

Muassislar:  
**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi,  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi**

1982-yildan chiqa boshlagan.

Tahrir hay'ati:  
**Sirojiddin SAYYID  
Minhojiddin MIRZO  
Nodir JONUZOQ  
G'ayrat MAJID  
O'razboy ABDURAHMONOV  
Farrux JABBOROV**

Jamoatchilik kengashi:  
**Qahramon QURONBOYEV  
Iqbol MIRZO  
Muhammad ALI  
Abdurasul ABDULLAYEV  
Rustam NOSIROV  
Rustam QOBILOV  
Ahmad OTABOYEV  
Shuhrat SIROJIDDINOV  
Serobiddin ISMOILOV**

Bosh muharrir:  
**Faxriddin HAYIT**

Bosh muharrir o'rinbosari:  
**Nurilla CHORI**

Mas'ul kotib:  
**Sa'dullo QURONOV**

Mas'ul muharrir:  
**G'iyosiddin O'NAROV**

Adabiy muharrir:  
**Husan MAQSUD**

Muharrir:  
**Yahyoxon FAYOZ**

Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Chilonzor tumani,  
Bunyodkor ko'chasi, Adilbar xiyoboni,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi binosi.  
Indeks 100066  
E-mail: yoshlik-jurnali@umail.uz  
Web sayt: www.yoshlikjurnali.uz  
Tel.: (0371) 231-20-58, 231-20-59

**Navbatchi muharrir:** Yahyoxon FAYOZ  
Bosishga 12.03.2019-yilda ruxsat berildi.  
Qog'oz formati: 60x90 1/4  
Nashriyot hisob tobog'i: 8,7  
Indeks – 822.  
ISSN 0207-9137. Jurnal 2007-yil 4-mayda  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi  
tomonidan № 0253 raqami  
bilan ro'yxatga olingan.  
Jumaldan ko'chirib bosilganda  
"Yoshlik" dan olindi" deb izohlanishi shart.  
"SILVER STAR PRINT" MChJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Buyurtma № 7. Adadi: 1500  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani,  
22-mavze, 17-uy.

## MUNDARIJA

**MUTOLAA**  
**3 Shodmon Otabek**  
Qalb islohoti mutolaadan  
boshlanadi

**QODIRIY TAVALLUDINING**  
**125 YILLIGIGA**  
**7 Umarali Normatov**  
"O'tkan kunlar" saboqlari

**NASR**  
**18 Shodiqul Hamro**  
Muazzam

**NAZM**  
**15 Odil Og'a**  
Bahor yo'lda – kelyapti...

**32 Farog'at Xudoyqulova**  
Dunyoni tutmoqda  
yaproqlar hidi

**56 Shavkat Odiljon**  
Sirot kabi nozidir taqdir




Muqovada:  
Termizdagi Afg'on  
fuqarolarini o'qitish  
markazi talabasi, yosh  
shoira Ra'no Sherzod.

Ahmad To'ra  
olgan surat.

7



18



**29 SO‘ZOYNAK**  
Ishq bilan Imomni idrok etdim  
men

**45 DILKO‘PRIK**  
**Yevgeniy Soya**  
Moviy osmon sening  
kipriklaring ostida, dilbar

**47 SIZNINGCHA...**  
Milliy ruh – millat hujjati


**52 TADQIQOT**  
**Huseyin Baydemir**  
O‘zbek eli o‘r keladi,  
o‘zi o‘jar zo‘r keladi

**58 XOTIRA**  
**Sayyora Xolmirzayeva**  
Ukajonim, Jahongir...

**62 BIRINCHI UCHRASHUV**  
**Alisher Nazarov**  
G‘aroyib damlar



52



62



**Shodmon OTABEK,**

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi*

## Qalb islohoti *mutolaadan* boshlanadi

**S**o'rovnomalarga ko'ra, insoniyat tarixidagi eng buyuk ixtiro – kitob ekan! Dunyoning yetti mo'jizasi haqida ko'p eshitganmiz. Ammo rasmiy e'tirof etilmagan bo'lsa-da, hech qanday e'tirozga o'rin qoldirmaydigan yana bir mo'jiza bor, bu ham bo'lsa kitobdir! Kitobning mo'jiza ekanini his etish uchun esa, avvalo, kitobxon bo'lish kerak.

Kitob o'qiydiganlarning dunyoqarashi, bilim, qiziqish doirasi keng, hayoti mazmunli bo'ladi, shu bois ularning suhbatlari diltortardir. Kitob o'qimaydiganlar bilan nima haqda gaplashishni ham bilmaysan kishi – darrov zeriktirib qo'yishadi.

Kitob haqida mashhur shaxslar – buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, mutafakkirlar dono, ibratli hikmatlarni xo'p va ko'p aytganlar. Ular bir joyga jamlansa, bir necha jild kitob bo'ladi.

“Odamlar o'qishdan to'xtaganda fikrlashdan ham to'xtaydilar” degan edi buyuk fransuz mutafakkiri Didro. Naqadar dono fikr! “O'zimdagi barcha yaxshi fazilatlar uchun kitoblardan minnatdorman” deya kitobning buyuk tarbiyaviy ahamiyatini qayd etadi rus adibi Maksim Gorkiy. Menga mana shu e'tirof ko'proq yoqadi. Darhaqiqat, kitob insonni tarbiyalaydi. O'z vaqtida o'qilgan birgina kitob inson hayotini alg'ov-dalg'ov qilib, taqdirini butunlay boshqacha o'zanga solib yuborishi ham mumkin. Yaqinda Rossiyada chiqadigan bir gazetada taniqli rus dramaturgi Viktor Rozovning xotiralarini o'qib qoldim. Unda shunday g'aroyib voqea hikoya qilinadi. Ashaddiy bir jinoyatchi poyezdda birovning katta jomadonini o'g'irlaydi. Keyin yolg'iz qolgach, o'ljasini mudoq ochib qarasa, jomadondagi turli lash-lushlar ostida bir kitob turganmish. U fransuz adibi Romen Rollanning “Jan Kristof” degan romani ekan. Jinoyatchi erinmay asarni o'qib chiqadi-yu, azbaroyi qattiq ta'sirlanganidan butunlay boshqa odamga aylanadi. Yozuvchiga xat yozib, tavba-tazarru qiladi. Keyin militsiyaga borib, aybini bo'yniga oladi. Jazo muddatini o'tagach, oila qurib, bola-chaqali bo'ladi va to'g'ri, halol yashash yo'lini tanlaydi. Hammasiga o'sha birgina kitob sabab bo'ladi.

Ma'naviyatni yuksaltirishning yagona yo'li-chorasi kitobga oshno bo'lish, mutolaadir. Kitob fikrlashga o'rgatadi, tafakkurni charxlaydi. Qalb tarbiyasi, qalb islohoti ham asosan kitob orqali amalga oshiriladi. Bu borada hech narsa kitob bilan tenglasholmaydi.

Hali-hamon eng sirli xilqat sanalayotgan inson haqida, uning murakkab ichki dunyosi haqida eng mukammal, eng ta'sirchan ma'lumotni, bilimni biz badiiy adabiyot atalmish san'atdan olamiz.

Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanida besh yuz nafarga yaqin qahramon tasvirlangan. Ularning har biri o'z fe'l-atvoriga, xarakteriga, taqdiriga ega. Yozuvchi ana o'sha qahramonlarning har biriga “jon ato etolgan”, ya'ni bir vaqtning o'zida besh yuzta rolni “o'ynay olgan”. Vaholanki, biz sahnada bitta rolni yaxshi o'ynay olgan aktyorni olqishlaymiz. Demak, boshqa san'atlarni mutlaqo kamsitmagan holda dadil aytish mumkinki, adabiyot barcha san'atlar ichida insonga eng yaqin, eng buyuk san'atdir.

Mutolaa madaniyatining susayishi sabablari haqida gap ketganda, ko'pincha yoshlarning vaqti

ijtimoiy tarmoqlarda o'tayotgani, internet atalmish "balo" ko'pchilikni mutolaadan chalg'itayotgani qayd qiliniadi. Yuzaki qaraganda bu gaplarda jon borgan o'xshasa-da, masalaning mohiyati murakkabroq. Internetni olabo'ji qilib ko'rsatmaslik kerak. Agar undan to'g'ri, o'rinli foydalanilsa, u mutolaa masalasida betakror, beminnat yordamchi bo'lishi mumkin.

Endilikda nashriyotlarda chop etilayotgan kitoblarning adadi juda kamayib ketayotgani, shu bois ularning narxi qimmatlashib borayotgani sir emas. Shunday pallada internet asqatadi. Kerakli kitoblarni internetdan topib, bemalol ekranda o'qish yoki uni qog'ozga ko'chirib olish mumkin. Audio va elektron kitoblar "moda" bo'lib borayotgani ham sir emas. Bunda vaqt va ko'z nuri tejaladi. Ammo, baribir, qog'ozda chiqarilgan bosma kitoblarni afzal ko'ruvchilar ko'proq.

Yaqinda fransuz adibi Frederik Begbederning ayni shu masalaga bag'ishlangan "Kones sveta" degan kitobini o'qib qoldim. Muallif hozircha, fursat g'animatligida o'zi tavsiya etgan yuzta bosma kitoblarni o'qib qolishga da'vat etadi. Bu kitoblarni faqat o'zining didi-saviyasi asosida tanlaganini ham yashirib o'tirmaydi.

Prezidentimizning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishining

e'lon qilinishi ayni muddao bo'ldi. U ko'pchilikni to'liqlantirib, ruhlantirib yubordi. Farmoyishda mazkur masala bo'yicha to'planib qolgan va o'z yechimini kutayotgan bir qator masalalar yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilangan. Oradan o'tgan shu qisqa fursatda juda ko'p foydali, xayrli ishlar qilindi, muhim tadbirlar amalga oshirildi. Odamlarning kitobga munosabatlarida ijobiy o'zgarishlar yuz berayotgani kuzatilmoqda. Kelinlarning seplariga tilga tushgan mashhur kitoblar sovg'a tariqasida qo'shib qo'yilmoqda. Kitob o'qimaydigan ayrim rahbarlar ham kitobga yuz tuta boshladilar, o'z hududlarida kitob do'konlarini ochishga kirishdilar. Ammo hali qilinishi kerak bo'lgan yumushlar juda ko'p.

Farmoyishda "kitobxonlik madaniyati" degan ibora qo'llangan. Xo'sh, bu nima degani?

Ma'lumki, barcha sohalarda bo'lganidek, kitobxonlikning ham o'z madaniyati bor. Mutolaa madaniyati deganda, avvalo, kitobni tanlay bilish va tanlab, saralab o'qish va uning ma'no-mohiyatini teran tushunish malakasi nazarda tutiladi. Xo'sh, nima uchun kitobni saralab o'qish kerak? Sababi oddiy. Dunyoda yaxshi kitoblar juda-juda ko'p, insonning vaqti-umri esa hisobli. Eng yaxshi, kerakli kitoblar saralanib o'qilmasa, ularni o'qishga ulgurish qiyin bo'lib qoladi.

Mutolaa madaniyati haqida gap ketganda, juda ko'p muammolar ko'z oldimizga keladi. Shulardan uchtasi, mening nazarimda, juda muhimdir. Bular quyidagilardir:

1. Kitobxonlikka havas, qiziqishni qanday uyg'otish mumkin?
2. Qanday kitoblarni o'qish kerak?
3. Kitobni qanday o'qish kerak?

Menimcha, birinchi masala juda muhimdir. Agar shu masala hal etilsa – olam guliston, kitobxonlik madaniyati bilan bog'liq barcha muammolarning yechimi topiladi. Kitobxonlikka havas uyg'ongandan

keyingina qanday kitoblarni o'qish va ularni qanday o'qish haqida mulohaza yuritish o'rinli bo'ladi. Chunki har qanday ish zavq-shavq, ishtiyoq bilan bajarilsagina kutilgan samarani beradi. Kitobxonlikda ham xuddi shunday.

Kitobxonlik madaniyati ham, avvalo, oilada shakllanadi. Endi xayolga andak erk berib, shunday manzarani ko'z oldimizga keltiraylik. Oilada yaxshigina, boy uy-kutubxonasi bor. Ota-ona ziyoli, o'qimishli odamlar. Qo'llaridan kitob tushmaydi. Kitobxonlik madaniyati borasida o'zlari ideal – namuna! Ammo farzandlari yoki nabiralari kitobga mutlaqo qiziqishmaydi. Ular zurriyodlarining kitobga qiziqmasligidan xunob bo'lishadi, da'vatlar, majbur qilishlar kor qilmaydi. Har kuni bolakaylar bilan kitobxonlik masalasida dahanaki jang bo'ladi. Bolapaqir esa boshini xam qilganча yer chizib turaveradi yoki maktabda uyga berilayotgan vazifalar ko'payib ketganini bahona qiladi. O'sha bolakay uch oylik ta'tilda ham baribir kitob o'qimaydi. Boyoqish qiziqmasa nima qilsin?..

Xo'sh, nima qilmoq kerak, degan azaliy jumboq-muammo kun tartibiga chiqadi. O, qaniydi bu borada tayyor bir yo'l-yo'riq, qonun-qoida bo'lsa... Men bu haqda juda ko'p o'ylayman. Hali-hamon bir to'xtamga kelolmayman. Shu bois bu borada jo'yali maslahat berishdan o'jizman. Menimcha, bu muhim masala tajribali o'qituvchilar, pedagog – olimlar, sotsiolog va psixologlarning o'zaro hamkorlikdagi sa'y-harakati bilan yechilishi lozim bo'lgan muammodir.

Yaqinda Madaniyat va ma'rifat "telekanal"ida adabiyotshunos olim Omonullo Mada'yevning ushbu masala yuzasidan

aytgan qimmatli mulohazalarini eshitib qoldim. Domla sira ikkilanmay “Bola kitob o‘qigisi kelmasa, uni majburan o‘qitish kerak” dedi. Bolaligida ota-onasi, Anvar Hojiahmedov degan adabiyotshunos tog‘asi uni kitob o‘qishga majburlashgani, shuning oqibatida adabiyotga ixlos qo‘yganini ham eslab o‘tdi.

Ustozning fikriga to‘la qo‘shildim. Darhaqiqat, bolani davolash uchun unga achchiq dorilarni majburlab ichiramiz-ku! Kitob o‘qishga majburlasak, osmon uzilib tushmas!..

Matbuotda kitob va kitobxonlik masalalariga bag‘ishlangan maqolalarni sinchkovlik bilan kuzatib borarkanman, yuqoridagi muammo haqida chuqurroq, asosliroq mulohaza aytilarmikin deya intiqlik bilan kutib yurdim. Bu borada fikr aytishi lozim bo‘lgan mutaxassislar – pedagoglar, psixologlardan negadir diqqatga sazovor mulohazalar aytilavermadi. Ehtimol, kitobga ishtiyoq, havas uyg‘otish masalasi KUTILAYOTGAN KASHFIYOT bilan bog‘liqdir.

Ittifoqo, matbuotda taniqli yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad va zukko adabiyotshunos olim Zuhridin Isomiddinovning yuqoridagi muammoga daxldor maqolalarini o‘qib qoldim.

“Biz bolalarda kitob o‘qishga havas tug‘dirish yo‘llarini ko‘p izlaymiz, lekin aniq yo‘l-yo‘riq topganimizcha yo‘q, – deydi Xurshid Do‘stmuhammad. – Besabab emas bu, zero, mutolaa havasining tug‘ilishi har kimda har xil kechadi. Ana shu turlicha kechgan jarayon mohiyatidagi qonuniyatni topish uchun mumkin qadar misollarni ko‘plab jamg‘armog‘imiz, sinchiklab o‘rganmog‘imiz kerak”.

Yozuvchining bunday o‘rinli taklifini o‘qirkanman, hazrat Navoiyning yetti yoshida “Mantiq ut-tayr”day murakkab asarni yod olganini esladim. Ayni chog‘da Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G‘afurov,

Mahkam Mahmudov, Mahmud Sa‘diy kabi ustozlarning kitobga bo‘lgan ibratli munosabatlari, boy tajribalari ko‘z oldimga keldi.

Zuhridin Isomiddinov yoshlarda kitobxonlikka havas uyg‘otish masalasiga yana-da realroq, hayotiyroq yondoshadi:

“...Biz yoshlarning kitobga qiziqishi oshishini istasak, avvalo, butun jamiyatda o‘qigan odamlarning o‘qimagan kishilarga nisbatan, ozgina bo‘lsa-da, yaxshiroq yashashiga erishishimiz kerak”.

E’tiroz bildirish qiyin bo‘lgan istak-taklif. To‘g‘rida, axir, dunyoni baribir manfaat boshqaradi.

Olimning ushbu istagi hayotda ijobat bo‘la boshlaganiga guvoh bo‘layotirmiz. O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tashabbusi va homiyligida televizorda namoyish etilgan “Yosh kitobxon” tanlovi naqadar qiziqarli, mazmunli va maroqli o‘tayotgani ko‘pchilikka ma‘lum. Tanlov g‘oliblariga yengil avtomobil va boshqa qimmatbaho sovg‘alar topshirildi. Umid qilamizki, bunday tadbirlar yana bardavom bo‘ladi.

Kitob tanlashda bolaga ota-onadan keyin ikkinchi muhim yordamchi maktabdagi adabiyot muallimidir. Kuzatishimcha, aksariyat adabiyot muallimlari o‘zlarining bu muhim vazifasiga yaxshi e’tibor qilmaydilar, bolalarning sinfdan tashqari qanday kitoblarni o‘qishayotganiga qiziqmaydilar, maktab darsliklari doirasidan chetga chiqolmaydilar. Adabiyotni san’atning bir turi sifatidagi mohiyatini yaxshi ilg‘amaydilar. Adabiy jarayonni mutlaqo bilmaydilar, bilishga intilmaydilar ham. Sanoqli adabiy nashrlarni o‘qib bormaydilar. Bunday muallimlarning qo‘lida ta’lim olgan bolalarda adabiyotga ishtiyoq, qiziqish uyg‘otish qiyin. Adabiyot muallimining asosiy vazifalaridan biri yaxshi kitobxon tayyorlashdir. Shu o‘rinda mashhur rus shoiri, Nobel mukofoti sohibi Boris Pasternakning “Buyuk kitobxonlar paydo bo‘lgandagina buyuk adabiyot paydo bo‘ladi” degan so‘zlari esga tushadi

Maktabdagi ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq aksariyat muammolarni ijobiy hal etish bevosita o‘qituvchining SHAXSIYATI bilan bog‘liqdir.

Maktab davridagi shunday bir unutilmas lahzani eslagim keladi. O‘zi ham ahyon-ahyon she‘rlar yozib yuradigan, kolxozning ko‘p nusxali gazetasini mustaqil, bir o‘zi chiqargan darveshfe‘l amakim Sodiq Otaboyev o‘qitardi. Bir kuni u dars paytida Pushkinning “Dubrovskiy” povestini hikoya qilib berdi. Xuddi teatr aktyorday, rolini qoyilmaqom ijro etdi. Amakimning bunday noyob iste’dodi borligini birinchi marta ko‘rib turardim. Boshqalarni bilmadim-u, men bu hikoyadan shu qadar ta’sirlandimki,



ertasidan boshlab o'sha povestnigina emas, Pushkinning ona tilimizga qilingan barcha tarjimalarini topib o'qidim. Balki keyinchalik kasb tanlashimga amakimning o'sha hikoyasi turtki bo'lgandir.

Ishonchim komilki, bolaning fanlarga qay darajada qiziqishidan tortib qanday kasb tanlashi va qanday inson bo'lishigacha – hamma-hamma-sida o'qituvchining SHAXSI muhim o'rin tutadi. Afsuski, biz bu dolzarb masalaga shu davrgacha yetarli e'tibor bermay keldik. Biz san'atning barcha turlarida birinchi galda iste'dod lozimligini ko'p ta'kidlaymiz, ammo yaxshi muallim bo'lish uchun ham talant kerakligini unutib qo'yamiz. Pedagogika universitetlariga talabalikka qabul mahali bironta test savollari abituriyentda bunday iste'dod borligini aniqlab berolmasa kerak. Menimcha, bunday noyob iste'dodni aniqlash uchun maxsus test savollari tuzish joiz...

Faraz qilaylik, kitobxon o'qish uchun o'ziga kerakli kitobni topdi ham deylik, ko'nglida mutolaaga havas-ishtiyoq ham bor, xo'sh, endi u kitobni qanday o'qishi kerak? Bu ham juda muhim masala. O'qish boshqa, uqish boshqa deya bejiz aytilmagan. O'qish malakasi ham yillar davomida shakllanadigan tajriba mahsulidir. Eshitishimcha, ayrim xorijiy mamlakatlarda kitob o'qish malakasi fan sifatida maxsus o'rgatilar ekan. Buyuk nemis shoiri va mutafakkiri Gyote sakson yoshida ham haligacha kitob o'qishni yaxshi o'rganolmaganidan yozg'irib gapir-

gan ekan. Bu soxta kamtarlik emas, albatta.

Kitob o'qishda tezlik masalasi ham muhimdir. Sezganmisiz, yosh bolakay (kattalarda ham shunday holatni kuzatish mumkin) kitob o'qiyotganda lablari bilinar-bilinmas pichirlayotgandek bo'ladi. Mutaxassislarining fikricha, ana o'sha holat kitobni tezroq o'qishga xalaqit berar ekan. Tez o'qishni o'rgatadigan maxsus kurslar, ko'plab adabiyotlar bor. O'zimcha mashqlar qilib, tez o'qishni o'rganmoqchi bo'ldim-u, oxirigacha hafsalam yetmadi.

Xo'sh, tez o'qish nima uchun kerak o'zi degan tabiiy savol tug'iladi. Javobi oddiy: insonning umri juda qisqa, dunyoda yaxshi kitoblarni o'qib chiqishga ulgurish qiyin. Bu masalada oddiygina bir xulosaga kelganman. G'oyaviy-badiiy saviyasi yuksak kitoblarni shoshilmay, "mzasiga quloq solib" deganday, sekinroq o'qiyversam ham bo'ladi, ma'lumot olish, xabardor bo'lib qo'yish uchungina o'qiladigan kitoblarga, publitsistik asarlarga esa kamroq vaqt sarflansa ham bo'laveradi...

Kitobni chuqurroq anglashda, undan chinakam zavq-shavq olishda uni qayta o'qib chiqish juda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'pchilik yaxshi bilmaydi. "Bir marta o'qib chiqishga arzimaydigan kitoblar ikki marta o'qib chiqishga ham arzimaydi" degan edi donolardan biri. Darhaqiqat, yaxshi kitoblar ikkinchi marta, qayta mutolaa qilinganda o'zgacha kayfiyat uyg'otadi, taassurotlar yangilanadi, yozuvchi g'oyasi bor ko'lami – salmog'i bilan namoyon bo'ladi. Esimda, ustoz adabiyotshunos va mohir tarjimon Ibrohim G'afurov bir maqolasida "Qutlug' qon" romanini o'n ikki marta qayta o'qiganini yozgan edi. Jahon va o'zbek adabiyotida qayta-qayta o'qishga arziydigan asarlar kam emas. Gap ularni tanlay bilishda va vaqt, hafsala topib qayta qo'lga olishda.

Mavzuga ozroq daxldor bo'lgani uchun o'zining kitobxonlik tajribam haqida ozroq to'xtalmoqchiman. Men o'qilgan kitoblar haqida yozish uchun maxsus qalin daftarlar tutganman. Hozirgacha ularning soni o'ntadan oshib qoldi. Bu daftarlarga o'qigan kitobimning nomi, muallifi, asosiy qahramonlar, qachon, qayerda chop etilgani, o'zimga ma'qul bo'lgan jumlar, hikmatga monand gaplar hamda kitob haqidagi qisqacha fikr-mulohazalarimni (kichik taqriz) yozib borishni odat qilganman. Kitob har qancha qiziqarli, mazmunli bo'lmasin, yillar o'tgach, ko'p joylari xotiradan ko'tariladi. Daftarga shundoq ko'z tashlasam kifoya – kitobni yaqinda o'qib chiqqanday bo'laman.

Ko'psonli aziz kitobxonlarga haqiqiy mutolaa zavqi bir umr hamroh bo'lib qolishini tilayman.





**Umarali NORMATOV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
fan arbobi

## “O'tkan kunlar” saboqlari:

**romanning ijodiy tarixi, ijtimoiy  
pafosiga oid mulohazalar**

Jahon adabiyotidagi shoh asarlarning dunyoga kelish tarixi shundan dalolat beradiki, ularning har biri, avvalo, davr, ijtimoiy vaziyat taqozosi, qolaversa, mualliflar tarjimai holi, oilaviy va ijodiy muhiti, hayotiy tajribalari, bilim darajasi, tafakkur tarzi, miqyosi, ma'naviy bisoti, maslak, aqida-e'tiqodi, orzu-intilishlari, eng muhimi, ijtimoiy ideallari hosilasidir.

Zamonaviy jahon adabiyotshunosligida bu muammoni o'rganish bobida boy tajriba to'plan-gan. Bizda, xususan, yangi o'zbek adabiyoti yetuk namunalarini shu jihatdan tadqiq etish borasida

ba'zi ishlar qilingan bo'lsa-da, ular ko'ngildagidek emas. Hatto “O'tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”dek beqiyos romanlarimizning ijodiy tarixi, sir-sinoati hali to'laligicha ilmiy kashf etilgani yo'q. Aziz kitobxon, ana shu “ochilmagan qo'riq”qa qur-bimiz yetgunga qadar bir nigoh tashlab ko'ray-lik-chi, bu jabhada qanday jumboqlar, hikmatlar bor ekan...

Boshdayoq dadil shuni aytish mumkin: Abdulla Qodiriy o'tgan asrning 20-yillari sharoitida tarixiy mavzuda o'zgacha emas, ayni “O'tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”dek romanlar yozishga har jihatdan tayyor edi.

Bilasiz, Abdulla Qodiriy dastlab eski usulda-gi, so'ng rus-tuzem maktabida, ma'lum muddat madrasada, keyinroq Moskvadagi adabiy-badiiy ins-titutda ta'lim olgan, turkiy tillardan tashqari arab, fors, rus tillarini yaxshi bilgan bo'lg'usi adib diniy, tarixiy, adabiy asarlarni mustaqil o'rgandi, vaqtli matbuotni muntazam kuzatib bordi.

U oq-qorani tanib, ijtimoiy va ijodiy faoliyat doiralari-ga qadam qo'yar ekan, davrning eng qaynoq, o'ta murakkab, ziddiyatli jabhalari ichida turdi, asosan, matbuot maydonida qalam tebrat-di. Dastlab o'lkada kechayotgan milliy uyg'onish, jadidchilik harakati ruhidagi asarlar ta'sirida yozil-gan she'rlar, hikoyalardan boshlangan ijod ko'lami tobora kengayib, uch asosiy yo'nalish – davrning o'tkir, dolzarb muammolariga aks-sado tarzida bitilgan publitsistik chiqishlar, “Kalvak maxzum”, “Toshpo'lat tajang” singari hajviy asarlar va ni-hoyat, tarixiy mavzudagi romanlar ustida ish olib bordi. Adibning har uch yo'nalishdagi ijodiy merosi shu paytga qadar qanchalar o'rganilgan bo'lmasin, hali bu buyuk bisotning ochilmagan qirralari, yechil-magan jumboqlari behisob.

Birgina adib tarixiy romanlarining mavzu-mun-darijasini belgilash masalasini olaylik. “O'tkan kun-lar”ga kirish tarzida bitilgan izohda shunday so'zlar bor: “Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar”. Xo'sh, shu xayrli ishga qo'l urgan adib nega millat tarixining son-sanoqsiz shonli sahifalari turib, asar uchun mavzuni “yaqin o'tgan kunlardan”, keyingi “xon zamonlari”dan belgilaydi, nega bu davrni “ta-riximizning eng kirlik, qora kunlari” deb ataydi?

Ma'lumki, “O'tkan kunlar”ni yozish adib ko'ng-lida Oktyabr to'ntarishidan keyin tug'ilgan, Okt-yabrdan oldingi kayfiyati xususida u tarjimai holid-a shunday yozadi: “Nekalayning taxtdan yiqilib, hurriyat bo'lg'anig'a xursandligim, albatta, dunyo-ga sig'mas edi va sig'masligi tabiiy edi. Ayniqsa,

1916-yil rabochiy olish masalasidan keyin umuman Turkiston ishchilarida uygʻongʻan istibdodga nafrat menda ham kuchlik edi”. Koʻp safdoshlari qatori boshda uning Oktyabr toʻntarishidan umidi katta edi, ammo umidlar birin-ketin sarob boʻlib chiqa boshladi, ayniqsa, Qoʻqon muxtoriyatining ayanchli qismati mashʻum istibdodning yangicha koʻrinishidan ayon dalolat edi. Oʻsha kezlarda chorizm istilosi istibdodiga olib kelgan omillar, ayni oʻsha bosqin arafasidagi “qora kunlar” saboqlari haqidagi tarixiy asarning koʻngilda tugʻilishiga turtki boʻlgani, yozuvchining qoʻliga qalam olishga undagani – bular ham hayotiy haqiqat, ham hayotiy ehtiyoj, ijtimoiy muhit, vijdon, imon taqozosidir.

Ayni shu “Oʻtkan kunlar”dek asarning dunyoga kelishida ijtimoiy faktorlar bilan barobar oilaviy muhit omili ham katta boʻlgan. Shu paytga qadar ijtimoiy faktor xususida ozmi-koʻpmi gapirilgan, yozilgan, ammo oilaviy omil negadir nazardan chetda qolib keladi.

Sinchiklab razm tashlansa, “Oʻtkan kunlar”da qalamga olingan makon, zamon, oʻsha makon va zamonda sodir boʻlgan tarixiy voqealar, alohida tarixiy shaxslar ayni hayotdagidek aniq-ravshan, bor holicha berilgan, hatto “ijodiy fantaziya” mahsuli boʻlgan “toʻqima” obraz – qahramonlarning ham hayotiy prototiplari mavjud. Shunisi ham borki, asar mutolaasi chogʻida hayotda bor tarixiy shaxslar bilan “toʻqima” obrazlar orasidagi tafovutlarni sezmayisiz; ularning har ikkisiga ham yozuvchi birdek jon ato etgan, ular xuddi tirik, tanish insonlardek koʻz oldingizda gavdalanadi.

Shu oʻrinda “Oʻtkan kunlar” yozib tugatilgan, ammo roman hali eʼlon etilmagan kezlari “Inqilob” jurnalining 1922-yil 7–8-qoʻshma sonida bosilgan muallif qalamiga mansub “Otam ham bolshevik” sarlavhali kulgulik (yumoristik) xotira-hikoyasi ustida toʻxtalib oʻtsam. Bir qarashda hazil-mutoyiba tarzida bitilgan ixchamgina bu gʻaroyib asar aslida gʻoyat jiddiy – buyuk adibning ijodiy taqdiri, tafakkur olami sir-sinoati, asl maslagi, aqidasi aniqlash, anglatishda, tarixiy romanlarining ijodiy tarixini oʻrganishda muhim ochqich – kalit vazifasini oʻtaydi. Kulgulikning avvalida adib “Otam 1242-hijriy, 1823-milodiy yillari Toshkandda tugʻulub, alhol, 99-100 yoshlaridadir” degan maʼlumotni beradi. Shundan soʻng bu tabarruk zotning millat tarixi oldidagi buyuk missiyasi ustida soʻz ochib: “Ruslar istilosi vaqtida 42 yoshida boʻlub, Toshkandni ruslardan mudofaa qilgʻan qahramonlarning biridir” deya izoh beradi. Ota haqidagi aslida gʻoyat

jiddiy, nihoyatda qimmatli maʼlumotlarni bergan asarni “kulgulik” – hazil-mutoyiba tarzida yozilishi tasodifiy emas. Qarangki, shoʻro yillarida asarda keltirilgan Qodiriyning otasi “Toshkandni ruslardan mudofaa qilgʻan qahramonlarning biridir” iborasi oʻquvchilar uchun shunchaki hazil-kinoya boʻlib tuyilgan, oʻz vaqtida bunga jiddiy eʼtibor bermaganlar. Yozuvchi bu bilan cheklanmaydi. Kulgulik muallifi otaxon yuz yillik umrining qirq yili musulmon xonlari zamonida, ellik yili Rusiya chor istibdodi, keyingi besh yili mehnatkashlar hokimiyati davrida oʻtayotganligini aytib: “Otam Rusiya chor hukumatini sira ham tilamaydir. Chunki uning elli yillik istibdodini oʻzi istiqbol etkan, Chorning ach-chigʻ-chuchugini koʻp tatigʻan” deb yozadi. Soʻng “Bu kungi mehnatkashlar hokimiyatiga ham uncha doʻst emas” deya dilidagi gapini dangal aytadi va “Buning ham sababi maʼlum”, deydi-yu, sabablari oʻquvchiga maʼlum boʻlgani uchun u yogʻiga oʻtmaydi.

Ammo xon zamonlarini oʻylagan chogʻlarida otaxon yayrab ketadi: “Ey, xoʻb zamonalar bor edi, tilla jobduqliq otlar-u va basavlat beklar-u oʻrdalarda har kun qarsa bazim-u... Oʻtub ketdi endi bir zamonlar”, deb afsus yeb qoʻyadir.

Soʻng yozuvchi gʻoyat nazokat bilan chol koʻnglida kechgan istiqlolni qoʻmsash kechinmalari izhoriga oʻtadi:

“Xudoning xohlagani-da, kofirning qoʻlida qolub ketdik... Oʻzimizda gʻayrat yoʻq. Agar yurt bir ogʻizgʻa tupurub (taʼkid bizniki – U.N.), yarogʻ topolmagʻanda ham qora kaltak boʻlub chiqsa, isni-biska qoʻymas edi. Qadimgi zamonning yigitlaridan shu kunda ham boʻlgʻanda-chi, ey-ha, oʻrusingga yoʻl boʻlsun”.

Soʻng yana bir “qaltis” masala – hozirgi zamonda yurt rahbari ustida soʻz ketganda bolshevikning kattasi oʻzimizning musulmonlardan ekani aytilganida, qariya bundan taskin topganday boʻladi, yana oʻgʻlini savolga tutadi:

– Tuzuk, tuzuk, koʻb yaxshi. Bolshevoying odamoxun ekan, sarbozdan kel, sarbozdan. Oʻzimizdan sarbozlar bormi?

– Bor, lekin boʻlsa ham, yoʻq hisobida.

– Attang, shunisi chakki ekan.

– Nima zarari bor, dada?

– Ey oʻgʻlim, odam boʻlgandan keyin har narsaning ham boshida boʻlish kerak, “Non qoʻynimda, it keyinimda!..”

Ana shunday zot oilasida, tarbiyasida, taʼsirida tugʻilib voyaga yetgan oʻgʻlon nimalarga qodir



ekani, uning hayotiy, ijodiy aqidalari, hattoki bosh asarlari “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, oxiriga yetmay qolgan “Amir Umarxonning kanizi” romanlarining mavzu-mundariyasi, pafosi o‘sha ulug‘ zotning bolalikdan qulog‘iga quyilgan ko‘rgan-kechirganlari, orzu-armonlari, oila davrasidagi xotira-hikoyalari ta‘sirida shakllangani sir emas. Kulgulikda mana bunday qimmatli ma‘lumot bor: “Turkiston xonlaridan Sheralixonni, undan so‘ng Xudoyorxon, Mallaxon ham bu orada yillab va oylab xonliq qilub o‘tkan Murudxon, Said Sulton va boshqa xonlarni, Toshkand beklaridan (hokimlaridan) Muhammad Sharif otaliq, Salimsoqbek (bu zot Buxoro amiri tomonidan Toshkand bekligiga qo‘yilgan edi. Musulmonqul tomonidan o‘ldirildi), Azizbek, Normuhammad Qushbegi, Shodmon o‘roq, Qanoat shoh, Mirza Ahmad qushbegi, Mallaxon (Mallaxon og‘asi Xudoyorxonning xonlig‘i vaqtida Toshkandda uch yillab bek bo‘lib turg‘andir). Eng oxirdan, Qo‘shdodholarning bekligini ko‘rub, o‘tkuzgan. Xonliqning bosh noziri va qo‘mondoni o‘rnida bo‘lg‘anlardan, Musulmonqul va mulla Alimqullarni ko‘rgan va urushlarida bo‘lg‘an. Piskatlik Qashg‘ar amiri mashhur Yoqubbekni Qashg‘arga kuzatkan”.

Ikki-uch roman emas, yana o‘nlab tarixiy-badiiy asarlarga mavzu-material bo‘lgudek qimmatli ma‘lumotlar, o‘ziga tanish tarixiy shaxslar, jang-u jadallar, ular haqida hayotiy xotiralar... Har ikki romanda bir necha bor voqealar jarayonida o‘rni bilan ota nomining tilga olinishi bejiz emas. Tarixiy shaxslarga baho berishda adib ko‘p hollarda ota qarashlariga tayyandir. Birgina misol. “O‘tkan kunlar”da Normuhammad qushbegi ustida gap ketganda, muallif unga sharh berar ekan, otasi nuqtai nazariga tayanib shunday yozadi:

“Normuhammad qushbegining Toshkanddagi beklilik davri taxminan 1270-dan 73-yil hijriyigachadir. Zamona beklarining hushyorrog‘idir. Otamxon zamonlarida o‘zi ko‘rib-kechirgan o‘nlab beklar ichidan shu Normuhammadni chiqarib: “Yurtni tinch tutdi, ko‘b yaxshi odam edi, xudo rahmati” deb qo‘yar edi”. (“O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, 1992, 105-bet).

Afsuski, Abdulla Qodiriy bisotida “Tarjimai hol”dagi qisqacha ma‘lumot, “Otam ham bolshevik” kulgulik asari, romanlaridagi ayrim qistirma, sharhlardan tashqari bu tabarruk zot haqida boshqa ma‘lumotlar yo‘q hisob. Ular bo‘lsa ham saqlanmagan. Odatda, bosib o‘tilgan yo‘l haqidagi xotiralar yozuvchi ulg‘ayib payg‘ambar yoshiga yetganida yoziladi, afsus, adib bu yoshga yetmay olamdan o‘tib ketdi, qanchadan-qancha ko‘rgan-bilganlari, otasidan eshitganlari yozilmay qoldi... 1924-yil Qodir bobo olamdan o‘tganida nabirasi Habibulla olti yoshli bolakay edi, ammo bobosi vafotidan so‘ng oila davrasida, qolaversa, uni yaqindan bilganlar og‘zidan eshitgan ko‘plab xotira-hikoyalalar bir umrga yodida qolgan. 1964 yili bobo hayotidan “Eski Toshkandda” nomli tarixiy qissa yozishga chog‘langan. Toshkent hokimi Azizbek davriga oid qiziqarli va ayanchli voqealar, asossiz ta‘qiblar, be-xuda qon to‘kishlar zamonida Qodir bobo tutgan adolat yo‘li haqida hikoya qiluvchi qissa, afsuski, tugamay qolgan. Qissaning qog‘ozga tushgan qismi Sh.Qodiriyning “37-xonadon” kitobida e‘lon etilgan.

Agar asar oxiriga yetganida Qodir boboning hayot yo‘li, ayniqsa, uning Toshkentdagi tarixiy voqealardagi ishtiroki, binobarin, Qodiriy romanlarining yuzaga kelishidagi ahamiyati, o‘rni yana-da kengroq ochilgan bo‘lardi.

\*\*\*

Ma‘lumki, “O‘tkan kunlar” romani voqeasi, muallifning o‘zi asarda qayd etganidek, 1264-hijriy, 1847-48-milodiy yildan boshlanib, 1269-hijriy, 1852-milodiy yilda intihosiga yetadi. Shu oraliqda Toshkentda ikkita g‘oyat tahlilali tarixiy voqea sodir bo‘ladi. Ulardan biri 1847-yili Toshkent hokimi Aziz parvonachi siyosatiga qarshi boshlangan mashhur Toshkent qo‘zg‘oloni hamda 1852-yil 9-oktyabrda Toshkent va Qo‘qonda yuz bergan mash‘um qipchoqqa qirg‘in voqeasi ifodasi asardagi bosh qahramonlar Yusufbek hoji hamda Otabek bisotini namoyon etishda eng oliy bosqich, qolaversa, asarning ijtimoiy pafosini belgilovchi cho‘qqi – kulminatsiyasi deb atash mumkin.

Nihoyat, asar xotimasida xabar tariqasida keltirilgan Otabek qismatiga oid mana bu ma‘lumot ham asarning asosiy ma‘no-mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uni qayta o‘qib, mushohada qilib ko‘ring-a:

“1277-yilning (milodiy 1861. – U.N.) kuz kezlarida bo‘lsa kerak, Yusufbek hoji Qanoatshodan bir xat oldi. Qanoatsho Avliyo otadan yozar edi:

“O‘g‘lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo‘shunda edi. Olmaota ustidagi o‘rus bilan to‘qunishma-

mizda birinchi saflarimizni shu ikki yigit oldi va qahramonona urushib shahid bo'ldi. Men o'z qo'lim bilan ikkisini dafn etdim..."

Maktub muallifi Qanoatsho – tarixiy shaxs, tarixiy manbalarda uning nomi, xizmati zikr qilingan, jumladan, romanda keltirilgan izohda shunday deyilgan: “Qanoatsho – hozirgi Tojikistonning Qorateginidan. Qo‘qon xonlarining bir nechasida amiri lashkar lavozimida, shuningdek, Turkiston viloyatining hokimi bo‘lgan. Ruslarga qarshi kurashganlardan. Buxoroga elchi bo‘lib borganda amir Muzafarxon tomonidan 1862-yilda qatl etiladi”.

Romanda qalamga olingan ko‘plab tarixiy shaxslar – Xudoyorxonning hokimiyat tepasiga ilk bor kelgan kezlardagi holati, Musulmonqul, Azizbek, Normuhammad qushbegi, Alimqul kabi tarixiy shaxslarning qiyofasi, maslagi, qismati ham otasi xotirasi, nuqtai nazari ham tarixiy manbalarga mos tarzda jonli gavdalantirilgan.

Ayni o‘sha tarixiy jarayonlarda musbat pozitsiyada turgan, bu borada muallif nuqtai nazarini, asl maslak-ideallarini o‘zida tashuvchi chin qahramonlar Yusufbek hoji bilan Otabeklar shunchaki “to‘qima” obrazlari, ularning hayotiy asoslari – prototiplari bormi? Shu haqda ko‘p yillardan beri o‘ylayman. Tarixiy manbalarni, avvalo, yozuvchining o‘z bisotini, qolaversa, adibning to‘ng‘ich o‘g‘li Habibulla aka xotiralarini titkilayman, son-sanoqsiz tarixiy manbalarga murojaat etaman.

O‘sha davr Toshkent tarixiga oid eng mo‘tabar tarixiy manbalardan biri “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida Parchabof mahallalik Muhammad Yusufhoji (shoyi to‘qish ustaxonasi egasi) boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarib, Aziz parvonachi navkarlariga hujum qilgani aytiladi. Ammo Yusufhoji nomini hisobga olmaganda, qo‘zg‘olon tafsilotlari romandagidan butunlay farq qiladi. “Tarix”ga ko‘ra, Aziz parvonachi zulmiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon ramazon oyining chorshanbasidan payshanbaga o‘tar kechasi ro‘y bergan, so‘ng ikki tomon kelishib sulh tuzishgan. Bundan norozi bo‘lgan quyi tabaqa vakillari juma kuni kechasi Yusufhoji boshchiligida ayni shu bitimga qarshi bosh ko‘targan. Qo‘zg‘olon 12 kun davom etgan, nihoyat, qo‘zg‘olonchilarning g‘alabasi bilan yakunlangan, Aziz parvonachi mansabdand chetlatilib, soliqlar bekor

qilingan... Romanda esa ikki-uch kunlik voqealar qalamga olinadi. Yozuvchini jarayonning barcha tafsilotlari emas, hodisaning tub mohiyati, o‘sha jarayonda personajlarning ruhiy-ma‘naviy holati, dramasi ko‘proq qiziqtiradi.

Shu voqea yuz bergan kezlari “Tarix” muallifi taxminan 17 yoshlar atrofida bo‘lgan, asli toshkentlik bu alloma voqealarning jonli guvohi. Ayni paytda “O‘tkan kunlar” muallifi tayangan noyob manba – otasi Qodir boboning bu xususdagi xotira-hikoyalari ham e‘tiborga sazovor, chunki otaxon o‘sha kezlari 25-26 yoshlardagi ayni kuchga to‘lgan, oq-qorani tanigan, xon sarbozi sifatida qo‘zg‘olon voqealarining, janglarning ichida-girdobida bo‘lgan. Keyinchalik bo‘lg‘usi tarixchi olim o‘zi shohid bo‘lgan qo‘zg‘olon voqealarini tarixiy asarida yozib qoldirgan bo‘lsa-da, sarboz jangchi – voqealar ishtirokchisi xotira-hikoyalari oradan yillar o‘tib o‘g‘loni – noyob iste‘dod sohibi – Abdulla Qodiriy qalami ostida tarixiy roman sahifalariga muhrlangan. Bir tarixiy voqeaning har ikki manba – tarixiy va badiiy asarlardagi ikki xil talqinlaridan qay biri haqiqatga yaqin – bu masalada hakamlik qilish mushkul yumush.

Romandagi Yusufbek hoji qo‘zg‘olonning boshida turgan odam, “Tarix”dagi Yusufhoji esa sulhga qarshi bosh ko‘targan kimsa. Bu odamning shaxsiyati, asl maslagi biz uchun qorong‘u. Yusufbek hoji esa asarning boshidan oxirigacha shaxsiyati, maslagi, e‘tiqodi, dard-u dunyosi bilan mana man deb turadi; o‘sha tig‘iz, tahlikali vaziyatlardagi xatti-harakatlari o‘quvchini larzaga soladi. Ayniqsa, keyingi mudhish voqea – qipchoq qirg‘ini asnosida bu zot butun ulug‘vorligi, ichki olami, iztiroblari bilan namoyon bo‘ladi.

Abdulla Qodiriy haqidagi ikki o‘g‘li, zamondoshlari xotiralarini, qolaversa, adibning o‘zi va yaqinlari haqida yozib qoldirgan ma‘lumotlarni sinchiklab o‘rganish shundan dalolat berayotirki, asar qahramonlarining xoh zamonaviy, xoh tarixiy bo‘lishidan qat‘i nazar, hayotiy asosi, prototiplari mavjud. “Xotiralarda adib siymosi”<sup>1</sup> sarlavhali maqolamizda bu xususda qator dalil-isbotlar keltirilgan edi. Bu boradagi kuzatish-mulohazalarni davom ettirib, “O‘tkan kunlar”dagi Otabek, Yusufbek hoji obrazining hayotiy zamini ustida mushohada, taxminlarimni ham aytib o‘tsam.

Bir qarashda erishroq tuyilsa-da, Otabek obrazida qisman muallifning o‘zidan, asosan, otasi

<sup>1</sup> Qodiriyning so‘nggi iltijosi. Toshkent, 2014-y. 8–34-betlar.

Qodir bobodan o‘tgan jihatlar anchagina. Habibulla Qodiriy bergan ma’lumotga ko‘ra, Qodir bobo 1821–1822-yillarda tug‘ilgan, serg‘ayrat, shijoatli va dunyo ko‘rgan kishi bo‘lib, yigitlik chog‘larida xon, beklar qo‘lida sarbozlik, ulg‘ayib qolgach, Eskijo‘vada baqqollik do‘koni ochib ipak, idish-tovoq, choy kabi mollar bilan savdo qilgan, tijorat vaji bilan uzoq shahar – mamlakatlarga ko‘p bor safar qilgan... Ma’lum bo‘lyaptiki, Qodir bobo yosh jihatidan “O‘tkan kunlar” qahramoni Otabekka deyarli tengdosh, uning nomidagi “ota” o‘zagi otaga ishoradek tuyiladi; kasb-kori jihatidan ham Otabekka o‘xshash savdogar, tijorat vaji bilan safarlarda bo‘lgan, boz ustiga, xon, beklar qo‘lida sarbozlik qilgan. Agar Otabek Olmota ustidagi o‘rus bilan to‘qnashuvda (1861-yili) qahramonona urushib shahid ketgan bo‘lsa, Qodir bobo, adib yozganidek, oradan to‘rt yil o‘tib (1865-yili) Toshkentni ruslardan mudofaa qilgan qahramonlarning biri sifatida e‘tirof etilgan. Qodiriy “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlarining bir necha o‘rnida, yuqorida aytganimizdek, bu tabarruk zot nomini mamnuniyat bilan tilga olib o‘tadi. Mavjud ma’lumotlarga tayanib, taxmin qilish mumkin: Qodir bobo yigitlik chog‘larida tijorat, qolaversa, sarbozlik vaji bilan Qo‘qon, Marg‘ilon shaharlariga ham bot-bot tashrif buyurgan, ehtimolki, romanda qalamga olingan Mirzakarim Qutidor, Akram hoji, Ziyo shohichi, usta Alimga o‘xshash marg‘ilonlik asl insonlar bilan gurunglar qilgan, olis shahar-mamlakatlarga qilgan safarlari haqida so‘zlab tinglovchilarni lol qoldirgan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas. Binobarin, Otabek kabi sevgi sarguzashtlarini ham boshidan kechirgan bo‘lishi mumkin...

Qodiriyning bobosi Hojimuhammad boboga kelsak, garchi ismidan boshqa u haqda hech narsa aytilmagan, yozilmagan bo‘lsa-da, ismidagi “hoji”ning o‘zi romandagi Yusufbek hojiga bir ishoradek tuyiladi. U kezlari “hoji” maqomi har kimga ham nasib etavergan emas. Qodiriylar sulolasi-shajarasi boshida turgan bu odam makon va zamon jihatidan Yusufbek hoji obrazi uchun prototip deb atashga muayyan asos beradi.

Uzoq yillik ko‘rgan-kechirganlari haqida Qodiriy aytgan shu qadar ko‘p ma’lumotlarni so‘zlab bergan zot – Qodir bobo o‘z otasi Hojimuhammad haqida ham to‘xtalmasligi, gapirmasligi mumkin emas. Bobo haqida jamiki eshitganlari, bilganlari romandagi Yusufbek hoji timsolida namoyon bo‘lganiga ishonging keladi kishi...

Kezi kelganda adibning ijodiy prinsiplariga oid yana bir muhim manba “Yozuvchi o‘z ijodi to‘g‘risida” maqolasidagi shaxsiy e‘tiroflarini eslab o‘tsak. 1935-yil 10-martda “Yosh leninchi”ning adabiy to‘garagida so‘zlagan o‘sha ma’ruzasida shunday mulohazalar bor:

“...mening boshimdan kechirganlarim mening yozuvchi bo‘lishimda kattagina rol o‘ynaganlar”;

“Men bir asar yozishdan avval shu yozmoqchi bo‘lgan narsam haqidag‘i materiallarni puxta o‘rganib chiqaman. Men biror joy to‘g‘risida asar yozmoqchi bo‘lsam, o‘sha joyni avval necha martaba ko‘rgan esam-da, yana borib tekshirib, yaxshiroq o‘rganib kelaman. Materialni o‘rganish mahalida eng mayda narsalarga (detallarga) ham e‘tibor beraman”;

“Yozuvchining o‘zidan qo‘shishi (ruscha aytganda “вымесель”) adabiy asarda katta rol o‘ynaydi... lekin men turmushda ko‘rmagan, bilmagan narsam haqida hech narsa yozmayman...”

“Har bir asarimning yozilishiga turmushda uchragan biror voqea sababchi bo‘ladi. Masalan, men kolxozlarda yurganimda haqiqatan ham Obid ketmonning ba‘zi xususiyatlariga ega bo‘lgan bir tipni ko‘rdim...”

Tasavvur qilib ko‘ring-a, mabodo, “tirik tarix” Qodir bobodek otasi, Hojimuhammaddek bobosi bo‘lmaganida, salkam bir asrlik Toshkent bekligi, Qo‘qon xonligi tarixining jonli shohidi, muhim tarixiy hodisalarning, ko‘plab



urushlarning bevosita ishtirokchisi xotira-hikoyalari tinglamaganida “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”dek beqiyos tarixiy romanlar dunyoga kelardimi? Aslo! O‘zi aytganidek, Yusufbek hojiga, Otabekka, qolaversa, Kumushga o‘xshab ketadigan hayotiy tiplar shundoqqina yonginasida edi-ku!

Zamonasining yetuk ziyolisi, adibi, Vatanning peshqadam, kuyunchak, fidoyi fuqarosi, millat erki, sha‘ni, ozodligi yo‘lida jonini tikkan fidoyi o‘g‘lon uchun tarixiy mavzu dildagi tug‘yonlarni, orzu-amonlarni to‘kib solish, yonib o‘zligini namoyon etish maydoni bo‘lganligini ham aslo unutmaylik, azizlar.

Mana, endi o‘zi e‘tirof etgan ijodiy prinsiplar amaliyotda qanday namoyon bo‘lgani haqidagi mulohazalarga o‘tsak bo‘lar.

Demak, avvalo, yozuvchining o‘z boshidan kechirganlari, oilaviy muhit, ota-onalari hayoti, sarguzashtlari ulkan yozuvchi bo‘lib yetishuvida, binobarin, tarixiy romanlarining maydonga kelishida muhim rol o‘ynagan.

Ikkinchidan, adib tarixiy romanlari mavzusiga oid materiallarni sinchiklab o‘rganib chiqqan, rus, fors tillarini puxta bilgan alloma Qo‘qon xonligi, Toshkent bekligi tarixiga oid ma‘lumotlarni, jumladan, Muhammad Solihxo‘janing “Tarixi jadidayi Toshkent” (1863–88-yillari yozilgan), Mulla Olimning “Tarixi Turkiston” (1915), Bartoldning “История культурной жизни Туркестана” (1927), V.Nalivkinning “Краткая история Кокандского ханства” (1886) kabi manbalar, shuningdek, Qo‘qon xonligi tarixi, xonlar hayotiga oid XIX asrda Qo‘qonda yaratilgan qator tarixiy asarlar bilan tanish bo‘lgan.

Uchinchidan, xotiralar, ilmiy-tarixiy manbalar bilan cheklanib qolmay, adibning o‘zi mustaqil tekshirish, surishtirishlar olib borgan, roman voqealari yuz bergan joylarni avval necha marta ko‘rgan esada, o‘zi aytganidek, yana borib yaxshiroq o‘rganishga harakat qilgan.

Ayni shu jarayon talqinida “O‘tkan kunlar” muallifi hech qaysi tarixiy asar muallifining qo‘lidan kelmaydigan nihoyatda muhim bir achchiq haqiqatni badiiy kashf etadi. Gap olomon qiyofasi, fojiasi ustida ketayotir. Olomon o‘z nomi bilan olomon: kechagina Azizbekning munofiqona aldovlariga uchib, Azizbek uchun “bir tomchi qonimiz qolgun-ga qadar yo‘lingizda jon beramiz”, deb ont ichgan va bu ahdida qattiq turib, uni himoya qilgan o‘sha xalq – olomon bugun unga qarshi qo‘zg‘aladi, “sevikli” bekni taxtdan qulatadi, “Sen bizlarga nima

ishni qilmading” deya ta‘na toshlarini yog‘diradi. O‘sha “sadoqatli” olomonning talabi bilan Azizbek ikki oyog‘idan arqon bilan bog‘lab otning choviga sudratma qilinganda uning ot oyoqlari ostida sudralib ketishini huzurlanib tomosha qiladi... “Qodiriy mo‘jizasi” kitobimizda bu jarayon talqini keng tahlil etilgani uchun bu o‘rinda u haqda batafsil to‘xtab o‘tirmadik.

Ayni shunday holatlarga 1852-yili bo‘lib o‘tgan mash‘um qipchoq qirg‘ini voqeasi tasviri, talqinida ham duch kelamiz. Tarixiy manbalarda bu borada qayd etilishicha, hodisa o‘sha yilning kuzida, aniqrog‘i, 7-oktyabr kuni bir paytning o‘zida ham Toshkentda, ham Qo‘qonda sodir bo‘lgan, ochig‘i, puxta o‘ylab uyushtirilgan. Qiziq, “O‘tkan kunlar”da hodisa muddati kuzdan bahor fasliga ko‘chirildi. Romanda fitnaga tayyorgarlik jarayoni batafsil qalamga olingani holda bevosita jarayonning o‘zi tasvir doirasidan tashqarida qoladi, mudhish jarayonning oqibatlarini asar qahramoni Otabek nigohi orqali gavdalandiriladi.

Qodiriy ijodining ilk tadqiqotchilaridan biri Oybek bunga e‘tiroz bildirib, “Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li” risolasida shunday yozadi: “Qipchoqlar qirg‘ini ko‘rsatilganda... Otabekni yozuvchi dalaga “qimiz ichish”ga chiqarib yuboradi. Ish bitgandan so‘ng u qaytadi. U dalada qimiz ichib, kechqurun shaharga qaytganida bo‘lib o‘tgan qirg‘inning qonli izlarini ko‘radi. Voqea tafsilotlarini odamlarning og‘zidan eshitadi. Xafa bo‘ladi, kuyunadi” (Oybek. Asarlar. O‘n tomlik. 9-tom, 1974, 259-bet).

Ehtimol, romanning “Toshkent ustida qonlik bulutlar”, “Toshkent qamalda”, “Azizbek”, “Istiqlol dardi” boblarida Qo‘qon xonligi bilan Toshkent bekligi orasida kechgan mojaro – janglarning mudhish manzaralari, Azizbekka qarshi qo‘zg‘olon jarayoni bevosita butun dahshat-u vahshati bilan ko‘rsatilgani uchun adib qipchoq qirg‘ini voqeasini ifodalashda o‘zgacha yo‘ldan borganidir...

Darhaqiqat, Oybek aytganidek, romanda bu jarayon manzarasi bevosita qalamga olinmagan, asarning ikki yetakchi qahramoni Yusufbek hoji ham, Otabek ham mudhish voqealardan chetda turadi. Garchi Yusufbek hoji qabih mojaroni uyushtirishga bag‘ishlangan majlisda ishtirok etib, tish-tirnog‘i bilan unga qarshi turgani qalamga olingan bo‘lsa-da, g‘alamislar uni aldab, atay g‘aflatda qoldirib o‘z muddaolariga erishadilar; otasi kabi g‘aflatda qolgan Otabek ham ayni o‘sha kuni shahar chekkasida sayrda bo‘ladi. Ayni shu holat tasvirida ham muhim haqiqat, mohiyat bor. Tarix-

dagi ko'plab mudhish jinoyatlar ayni shu tarzda – zamonasining haqgo'y vijdoni sanalmish siymolar nigohidan tashqarida g'oyat pinhona bir tarzda uyushtirilgan. Romandagi voqealar oqimining o'zi ko'rsatib turibdi, Yusufbek hoji, Otabeklar bundan ogoh bo'lganida imkon qadar uning oldini olgan bo'lardi-da!

Garchi qirg'in oqibatlarini manzaralari Otabekning Mingo'rik sayridan qaytish, shaharga kirib borish asnosida ko'rgan-kechirganlari, guvohlarining aytganlari tarzida berilsa-da, uning mudhish manzaralari ayni jarayonning o'zidagidan kam emas. Otabekning o'sha kezlardagi iztiroblari, ichki tug'yonlarini o'qiganda kitobxon o'zini qo'yarga joy topolmay qoladi.

Bundan ham muhimi, ertasi Ota bilan uchrashuvda hodisa va uning asl sababi, ildizi ustida ketgan bahs-suhbat poyonida romanning bosh pafosi baralla namoyon bo'ladi. Butun boshli mamlakat, millat tarixidagi eng katta, hayot-mamot ahamiyatiga molik hodisaning tub ildizi, asl mohiyati ayni o'sha daqiqalarda yarq etib ochiladi. Qirg'in oldidan yuqori doirada o'tkazilgan kengashda hojining o'rtanib-yonib dil-dilidan aytgan nutqidagi mana bu so'zlarini yana bir karra o'qib ko'ring-a: "Mana, burodarlar! Siz o'z qipchog'ingiz uchun qabr qazig'an fursatda, sizga ikkinchilar tobut chopadir. Biz qipchoqqa qilich ko'targanda, o'rus bizga to'p o'qalaydir. Siz dunyoda o'zingizni yakka dushmaningiz qilib qipchoqni ko'rsangiz, men boshqa

yovni har zamon o'z yaqinimg'a yetkan ko'raman! – dedi va ro'ymoli bilan ko'z yoshisini artib o'rnidan turdi. – Agarda dunyodan o'tayozg'an bir keksangizning maslahatiga quloq bersalaringiz, bu fikringizdan qayting, burodarlar!"


Afsus, ming afsus, davrada bu donishmand siymoning haq so'zini, ogohlarini eshitadigan, anglaydigan zot topilmaydi, aksincha, Hoji davrani tashlab ketganida uning ustidan hoholab, "ko'kno-ri ichgan", "vahimachi" deya masxara qiladilar. Qirg'indan keyin Hoji Otabek bilan uchrashuvda mash'um hodisa munosabati bilan dilidagi ohu zorini yana bir karra izhor etadi. "Men ko'p umrimni shu yurtning tinchligi va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib..." deb boshlanadigan mashhur monologda yaqin kelajakda yuz beradigan mislsiz falokat manzarasini chizib beradi. Tarix ko'rsatdi, ayni shu falokat yuz berdi, xalq salkam bir yarim asr davom etgan mash'um istibdod jabrini chekdi...

Azizlar, Yusufbek hojining ogohlari chorizm istilosiga yarim asr bo'lgan, istibdodning yangi bosqichi boshlangan kezlari bitilgan, binobarin, asar millatni ayni shu yangi falokatdan ogoh etish uchun yozilgan edi!

Yashirib nima qilamiz, Yusufbek hojining, Otabekning romandagi ana shu dil so'zlari – ogohlari, avvalo, Qodiriyning dil so'zlari – bashoratlari edi. Taassuflar bo'lsinkim, bashoratlar to'g'ri bo'lib chiqdi, roman yozuvchi aytmoqchi, "dunyoga kelishi bilanoq baxtsizlikka" uchradi, tanqid uni nayza ko'tarib qarshi oldi, asar kitob holda to'liq bosilib chiqqan yili muallif bo'hton bilan qamoqqa olindi, haqiqat yo'lida o'limni ham pisand qilmagan bu jasur siymo qat'iy turib o'zini himoya qildi, erkinlikka chiqdi; ta'qib-u tahdidlarga qaramay ijodiy faoliyatini davom ettirdi, afsus, hali otasi umrining yarmini ham yashamay turib 37-yil yuhosi uni o'z komiga tortib ketdi. Ayni qahramoni Otabek kabi, romanda 18 yil burun bashorat qilinganiday, o'zi ham yurt ozodligi yo'lida qurbon bo'ldi. Binobarin, o'z qo'li bilan yaratgan ikki chin millatparvar adabiy qahramon – taqirdosh Otabek va Yusufbek hoji timsollari o'zi va otasi uchun ham qo'yilgan mangu haykaldir.

Hayotiy qismati jihatidan Qodiriyning eslatadigan Oybek yuqorida tilga olingan risolasida g'oyat nazokat, topqirlik bilan shunday yozadi:

"O'tkan kunlar"ni o'qiganda, yaxshilik bilan yomonlikning kurashi kabi bir hol seziladi. Musbat qahramonlar nomidan ko'pinicha Abdulla Qodiriy o'zi gapirganga o'xshab ko'rinadi. Otabek, Yusuf-



bek hojilar orqali yozuvchining ideyalarini inson qi-yofasiga kirib, gumanistik – axloqiy, siyosiy-ijtimoiy ideallarini ifoda etadilar”.

Oybek soʻzlarini tasdiqlaydigan dalil-isbotlarni yuqorida keltirdik. Nihoyat, yana bir asar bosh qahramonlari bilan muallif shaxsiyati, xarakteri, asl maslak-eʼtiqodi orasidagi mushtaraklikka oid hayratomuz dalil keltirib oʻtsam. Romanda qalamga olingan tarixiy voqea – Toshkent qoʻzgʻoloni arafasida Azizbek Yusufbek hojini oʻz tomoniga ogʻdirishga intiladi, unga katta vakolatlar beradi. Shunda hoji koʻnglida shunday oʻy kechadi: “Soliq yigʻishda qarshilik qilgʻanni darraga yotqizish, muvofiq koʻrilganda osdirish haqqi ham menga berilgan emish... Goʻyo Yusufbek ham oʻzidek bir qonxoʻrgʻa, bir zolimga aylansin emish... Men qonxoʻrlik uchun xudoning farz qilgʻan hajini ado qilmadim; oldimda oʻgʻlum bor, menda boshqalarning oʻgʻlini darraga yotqizish chogʻida koʻndalang keladigan vijdon bor, din bor, diyonat bor”.

Bu dil soʻzlari 1920-yili qogʻozga tushirilgan. Oradan olti yil oʻtib 1926-yili adib tevaragida uyush-tirilgan boʻhton tufayli uning ustidan jinoiy ish ochilib qamoqqa olinadi. Sudda soʻzlagan mashhur nutqida, jumladan, u “Men toʻgʻrilik orqasida bosh ketsa “ix” deydirgan yigit emasman... Bir necha shaxslarning orzusicha maʼnaviy oʻlim bilan oʻldirildim. Endi jismoniy oʻlim menga qoʻrqinch emasdir”, deydi. Keyinroq 37 yilgi mashʼum qatagʻon boʻroni arafasida Yozuvchilar uyushmasida adibni soʻroqqa tutadilar, jumladan, uning xudoga ishonish-ishonmasligini aniqlamoqchi boʻladilar. Shu qaltis daqiqalarda Qodiriy qatʼiy turib Allohning borligiga va birligiga imon keltiradi, shu tariqa boshiga balo orttiradi. Ertasi xonadonida shu haqda gap ketganda, yaqinlaridan biri shunchaki ogʻizda “xudo yoʻq” deb qoʻyaqolsang boʻlmasmidi, deganida, adib qatʼiy turib: “Endi men bir kishining ikki ogʻiz soʻzi deb, qirq yillik eʼtiqodimdan qaytaymi? Munofqlik, vijdonsizlik boʻlmaydimi bu” – deydi (H.Qodiriy. “Qodiriyning soʻnggi kunlari”, “Yoshlik”, 1989, 6-son, 37-bet). Ha, ulugʻ adib hayotidagi eng qaltis vaziyatda oʻzi suyuqli qahramonining yoʻlini tanlaydi.

Hayron qolasan kishi: donishmand adib qahramonining oʻta tahlikali damlardagi chin eʼtiqodi haqidagi satrlarni qogʻozga tushirayotganida kelgusida roʻy beradigan ayni shunday qaltis vaziyatdagi oʻz ruhiy holatini goʻyo oldindan bashorat qilgandek tuyuladi kishiga.

Koʻryapsizmi, azizlar, “Oʻtkan kunlar”dek shoh asarning maydonga kelishida, uning ijodiy, tarixiy, ijtimoiy-gʻoyaviy motivlarini, yetakchi qahramonlari iroda yoʻsinini belgilashda adib, avvalo, oʻz bisotiga tayanadi; qahramonlari timsolida oʻz shaxsiyati, oilaviy muhiti, ota-bobolari hayoti, qismatidan oʻtgan jihatlar behisob, ayniqsa, oʻz ideallarining mujassami boʻlmish bosh qahramonlari Otabek bilan Yusufbek hojilar timsoliga oʻzidan, ota va bobosidan koʻchib oʻtgan qismat, hikmatlar kishini lol qoldiradi, bular qahramonlarga ajib hayotiy joziba baxsh etadi.

Bugina emas, bu shoh asar bugun ham bizlarga oʻtgan kunlarning achchiq qismatidan saboq berishda davom etayotir. “Otam ham bolshevik”da Qodir boboning chapanichasiga aytgan “Oʻzimizda gʻayrat yoʻq. Agar yurt bir ogʻizgʻa tupurub, yarogʻ topolmagʻanda ham qora kaltak boʻlub chiqsa, isni-biska qoʻymas edi”, “kofirning qoʻluda qolub” ketmas edi, degan xalqona hikmati romanda Hoji bilan Otabekning bosh shioriga aylandi. Asar boshidayoq Otabek Shamay safari xotiralari ustida toʻxtalganda “Menimcha, oʻrusning bizdan yuqoridaligʻi uning ittifoqidan boʻlsa kerak... ammo bizning kundan-kunga orqagʻa ketishimizga oʻzaro nizomiz sabab boʻlmoqda”, deydi. Asarda qalamga olingan voqealar jarayoni birin-ketin shu hikmatning toʻgʻriligini tasdiqlaydi. Nihoyat, yagona Turkiston oʻlkasining ikki boʻlagi – Qoʻqon xonligi bilan Toshkent bekligi, yagona turkiy ulusning ikki qavmi – qorachopon va qipchoq orasidagi nizolar oxir-oqibat mudhish qirgʻinga aylanib, yurtni halokat yoqasiga keltiradi. Shunda donishmand Hoji “Ittifoqni ne el ekanini bilmagan, yolgʻiz oʻz manfaati shaxsiyasi yoʻlida bir-birini yeb, ichkan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprogʻidan yoʻqolmay turib, bizning odam boʻlishimizga aqlim yetmay qoldi. Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadirgʻan boʻlsa, yaqindirki, oʻrus istibdodi oʻzining iflos oyogʻi bilan Turkistonimizni bulgʻatar...” deya Qodir bobo, soʻng Otabek aytgan dil soʻzlarini eng oliy choʻqqiga koʻtaradi. Ajab, oqibat ayni ular aytganiday boʻlib chiqdi. Bu hikmat, bu bashorat, bu ogoh – tarixning achchiq haqiqati, tajribasi, mustaqillikka erishgan bugungi yorugʻ kunlarimizda ham ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Yurt va xalqning birligi mustaqilligimiz abadiyligining garovidir. “Oʻtkan kunlar”ning eng muhim hikmati, sabogʻi ana shunda.



**Odil OG'A**

1968-yili tug'ilgan.  
Toshkent davlat universiteti (hozirgi  
O'zMU)ning o'zbek filologiyasida  
tahsil olgan. "Ilova" nomli she'riy  
to'plami chop etilgan.

## Bahor yo'lda – kelyapti

### ORALIQDA

*Yer yuzidan qoniqmay, qonmay  
Koinotda kezar xayolim.  
O'ylarimni bir pulga olmay  
Yonginamda yashar ayolim.  
Qadrlidir menga xayolim,  
Ozurdadir bundan ayolim.*

*Tuyg'ular mo'l bo'lar, she'r bitsam,  
Tangrim meni yaratdi hischan.  
Hislarim ortidan ketsam,  
Uyda yolg'iz qoladi qizcham.  
Nega arzir tuyg'u-hislarim  
O'pkalasa mendan qizlarim?*

*Kemtigidan dunyo ko'rinar,  
Shoir dilim, o, sulton ko'nglim.  
Yolg'izliging ba'zan bilinar,  
Ko'nglim kabi yagona o'g'lim.  
O'g'lim, desam, torinar ko'nglim,  
Ko'nglim, desam, og'rinar o'g'lim...*

### DUNYO TA'RIFI

*Dunyo – barno yigit, mag'rur va bashang,  
Bir ayol qoshida boshin egmaydi.  
Dunyo – go'zal bir qiz, erka-yu satang,  
To qiyomat qadar erga tegmaydi.*

## TASHRIF

Oyoq osti biroz ho'l,  
Balki biroz yaxmalak.  
Bir qo'lida dasta gul,  
Bir qo'lida sumalak –  
Bahor yo'lda – kelyapti.

Ildizlarni uyg'otib,  
Butoqlarni bo'rttirgan.  
Qishdan chiqqan sovqotib,  
Neki mavjud – kuttirgan  
Bahor yo'lda – kelyapti.

Tog'lardan o'tar hatlab,  
Qor, muzlarni eritib.  
Borliq bag'rini butlab,  
Hademay kelar yetib,  
Bahor yo'lda – kelyapti.

Oyog'ini chag'ir tosh  
Tilsa, bir zum to'xtaydi.  
Shabnam-ko'klam to'kkan yosh,  
Lola qonga o'xshaydi –  
Bahor yo'lda – kelyapti.

Jon sarak va kamuyqu,  
Kuzdan farqli o'laroq.  
Yozdan xiyol ozg'in u,

Qahratondan to'laroq  
Bahor yo'lda – kelyapti.

Sovuq, zulmatda o'tgan  
Umlarga og'rinib,  
Borligini unutkan,  
Jonzotlarni sog'inib,  
Bahor yo'lda – kelyapti.

Shamol – qo'shig'i uning,  
Yomg'ir – uning lapari.  
Tenglashtirib tun-kunni  
Tugar balki safari,  
Navro'z yo'lda – kelyapti.

To'qqiz oy burun to'yi  
Bo'lgan qiz og'iroyoq.  
Turkiston – ota uyi,  
Ko'zi yorar keliboq,  
Bahor yo'lda – kelyapti.

Bu tashrifdan kim xushhol,  
Bor qadriga yetmagan.  
Lekin hech kim intizor  
Shoirchalik kutmagan  
Bahor yo'lda – kelyapti.

Omon yetsin iloyim...

## TARIXIY RANGLAR

Oq va qora faqat ... kulrang yo'q,  
Yashil ham yo'q, bordir to'qqizil.  
Nega kerak moviy, pushti, ko'k?  
Bas qil, o'g'lim, shunga ko'n, qizim.

O'tmish – zulmat, qora rangda chiz,  
Qizil chapla – qonni eslatar.  
Kamalakmi?.. osmondagi iz –  
Yetti xil rang – bari safsata!

Oq tasvirla bugunni chizsang,  
Oq – izlarni bosguvchi qordir.  
Mening suratimga kirishsang,  
Oq bo'yoqdan sochimga qoldir!

\* \* \*

Yiroq emas ekan unchalik  
osmon. Mendan shu fikr o'tdi.  
Bir so'zing-la ko'nglim yuksalib  
Boshim esa osmonga yetdi.

Yer qattiqmas. Buni, ehtimol,  
To'qigandir bironta baxil.  
Qattiq bo'lsa bir so'zing bilan  
Yerga kirib ketmasdim, axir!



## AVTOPORTRET

Qirq yil urush kechgan mamlakat – tanda  
Bir necha oydirdi, tinchlik hukmron.  
Tuyg‘u shahid ketgan omonsiz jangda,  
Orzu surgun bo‘lgan, fikr – toshbo‘ron.

Yurak – poytaxt, qonga botirilgan – jim,  
Qalb saroyi endi misli sovuq g‘or.  
Ko‘ngil ko‘chasida ko‘rinmas hech kim,  
Ishq qo‘shini butkul etilgan tor-mor.

To‘qlikni baxt bilgan qorinda – bayram,  
Yo‘qsil a‘zolarining sotqin, boyrog‘i.  
Shahvat lashkarlari qilichin qayrar,  
Tobora yuksalar g‘aflat bayrog‘i.

Oyoq – taslim bo‘lgan ikki muzofot,  
Qo‘llar – qurib qolgan ikkita daryo.  
Vujud xilqatini tutgan qo‘sh ofat –  
Ishonch va jur‘atdan bo‘lgan mosuvo.

Endi hudud – shayton mustamlakasi,  
Tomir – ariqlarda oqar mute‘ qon.  
Haq hamda huquqning chiqmaydi sasi,  
Erksizlik evazi – mo‘l-ko‘lchilik... non.

Lekin o‘sib yotar rangpar soch-soqol,  
Sartarosh siridan voqif qamishday.  
Qaysi fotih shoxdor, qay biri – to‘qol,  
Ajabmas, bir kuni so‘zlab bersa nay.

Butkul yakson bo‘lgan mamlakat – tanim,  
Balki biroz erish, bu tashbeh, timsol.  
Lekin ochiq ketar ko‘zlarim manim,  
Yog‘iy yo‘lolmagan darvoza misol!

## AYOL

Quyosh sizni aylanib o‘tar,  
Chehrangizga ko‘zgu tutar oy.  
Yulduzlar bor – yo‘latmas xatar,  
Yer – siz uchun tiklangan saroy.

To‘rtta ko‘ylak sizga – to‘rt fasl,  
Bari sizga birday yarashar.  
Ohori sal ketsa bittasin,  
Ikkinchisi bilan almashar.

Shamol – sizning yelpig‘ichingiz,  
Gul-rayhonlar sizdan bo‘y olar.  
Haydasangiz, yetar kuchingiz,  
Tog‘lar – charchab cho‘kkan tuyalar.

Bari ezgu narsa siz uchun,  
Bor mavjudot bilan ahilsiz.  
Tushunmayman, nimaga, nechun  
Faqat bir men sizga daxlsiz?

\* \* \*

Muhrlanib qolgan yodiga,  
Ixtiyorsiz pichirlar behol.  
Mahzun boqib o‘z hayotiga,  
She‘rim o‘qib yig‘lar bir ayol.

So‘z to‘ldirar ko‘ngil bo‘shlig‘in,  
Ohang qalbni band etar darhol.  
O‘ksiklarning umumqo‘shig‘i –  
She‘rim o‘qib yig‘laydi ayol.

Baxtsiz bo‘lib qoldi bexosdan,  
Qo‘qqis unga yuzlandi zavol.  
Izlaganin topib qog‘ozdan  
She‘rim o‘qib yig‘ladi ayol.

Ko‘ngil yig‘lar, ko‘ndirolmayman,  
Yozsam – tinchir, boshqasi – malol.  
Men-ku, sizni kuldirolmayman,  
Yetar o‘qib yig‘lasa ayol.



Shodiqul HAMRO

# Muazzam

Qissa

Men ayni damdagi ahvol-ruhiyam, xayolimni band etib olgan o'y-fikrlar, yuragimni junbishga solayotgan tuyg'ularni oshkor etsam, ehtimol, kimgadir o'ta bachkana va erish tuyulishi, hatto kimdir qarib miyasi suyulib qolib, og'ziga kelgani ni valdirayapti, deya ustimdan masxaralab kulishi ham mumkin. To'g'ri-da, yoshi bir joyga borib qolgan, sochlarini oppoq qirov qoplagan, yuzini ajin bosgan, qaddi-qomati bukchayib borayotgan kishining kutilmaganda, xuddi alahsirayotgandek, o'zini unutkan kuyi muhabbat haqida gapirishi, tag'in deng, jo'shib ehtiros-u hayajonga berilishi, ba'zan go'dakdek quvonib irg'ishlashi odamga g'alati tuyiladi.

Albatta, men buni yaxshi tushunaman, ammo kim qanday o'ylasa, o'ylayversin, bu uning ishi,

meni boshqalarning fikri zarracha qiziqtirmaydi, chunki men o'zimni cho'g'i allaqachon o'chib qolgan o'choqning kulini umid va ilinj bilan titkilayotgan noshud-u notavon kimsa deb bilmayman.

Bilganim shuki, men har gal seni yodga olib, ismingni shivirlab takrorlaganimda, qirq yil muqaddam yuragim hayajon-u ehtirosga to'lib, qanday potirlab urgan bo'lsa, hozir ham xuddi shunday tuyg'ular to'olonidan vujudim o'rtanib ketadi.

O, yillar shafqatsizlik bilan yuzimni bezab-bejab, o'zining ayanchli izlarini qoldirayotgan, sochlarimga oppoq qirov sochayotgan, tanimdagi kuch-quvvatni surib olayotgan, ko'zlarimning nuri asta-sekin so'nib borayotgan bo'lsa-da, yuragim hamon sening ismingni eshitib, hayajondan hapqirib-hapqirib tushadi.

Men qirq yildan buyon sening ismingni takrorlab, umid va ilinj bilan yo'llaringga ko'z tikib yashayman, go'yoki hozir sen ko'z o'ngimda paydo bo'lib qoladigandek, yuragim o'z-o'zidan orziqib ketaveradi.

Qirq yildan buyon sening ismingni umid va ilinj bilan takrorlab kelaman, ko'chalar, bozorlar, aeroport-u vokzallarda, qo'yingki, qayerda yurmayin, hamisha nigohlarim bilan seni izlayman. Ehtimol, shu atrofda yurgandir, deya bezovta tortib, tevaragimga alanglab qarayman, ba'zan odamlar orasida kimnidir senga o'xshatib qolib, yuragim hapqirgancha shosha-pisha uning izidan yuguraman, ammo oxir-oqibat hafsalam pir bo'lib ortimga qaytaman.

Ba'zan esa, menga dafatan ro'paramda sen paydo bo'lib qoladigandek tuyulaveradi va men ana shunday saodatli damlarda istiqbolingga peshvoz chiqib, seni qarshi olish, hayajon va quvonchdan azbaroyi shoshib qolib, o'zimni yo'qotib qo'yimaslik uchun o'zimni ruhan ming marta hozirlayman, senga aytadigan gaplarimni qayta-qayta xayolimdan o'tkazib, pishitib olaman. Axir, tuyqus senga ko'zim tushgach, hayajon bosganidan dovdiragancha gapimni yo'qotib qo'yib, seni ham, o'zimni ham xijolatga qo'yishdan doimo cho'chib turaman.

O, sen aql ham, idrok etolmaydigan, shiddatli xayollar ham qamrab ololmaydigan, eng mohir musavvir ham shakl-shamoyilingni chizishga ojizlik qiladigan qanday sirli xilqatsan, nega o'rtanaverib ado bo'lgan yuragimni hech qachon tark etmaysan?! Nahotki, qirq yildan buyon yuragimni bosib yotgan bu dard hech qachon to'zim topmaydi?!

\* \* \*

Oradan qirq yil o'tayotgan, har lahza, har daqiqada seni eslab, ismingni najotbaxsh duodek shivirlab takrorlab yashayotgan bo'lsam-da, lekin hech qachon tabassumdan yorishgan chehrangni ko'z oldimga keltira olmayman, har gal butun fikr-u xayolimni jamlab, sening qiyofangni tasavvurimda jonlantirishga urinaman, ammo hech qachon buning uddasidan chiqa olmayman, xuddi uquvsiz va no'noq musavvir kabi birpasda haf-salam pir bo'lib bo'shshib ketaman.

Bir safar yaqin tanishlarimdan biriga cho'chib-gina shu haqida gap ochdim. U kutganimdan zid o'laroq, hayron ham bo'lmadi, taajjubga ham tushmadi, ustimdan ham kulmadi, aksincha, xotirjam javob berdi:

– Buning sira hayron qoladigan joyi yo'q, – dedi u. – Odam kimgadir qattiq ko'ngil qo'ysa, uning qiyofasini butunlay unutib yuboradi. Keyin esa, uning qiyofasini tasavvurida yaratishga intilaveradi, intilaveradi... Bu esa, yurakdagi olovni battar alanga oldiradi. Axir, parda ortida turgan odam hamisha sirli tuyuladi... Chin muhabbat deganlari aslida shu.

Uning mulohazalarida jon bor edi, haqiqatan ham, men sening sirli jilmayib turgan holatingni tasavvurimda jonlantirishga juda ko'p marta uringan, har gal zavq va ishtiyoq bilan ishga kirisharkanman, hademay xayolimda sening muazzam siymongni yarataman, deb o'ylardim, ammo oradan hech qancha fursat o'tmay tasavvurlarim nechog'li shiddatli va uchqur bo'lmasin, baribir, sening chehrangni yaratishga ojizlik qilib xuddi tonggi tuman kabi to'zg'ib ketayotganini sezib qolardim. Shundan so'ng beixtiyor sen eng cheksiz tasavvur ham, shiddatli xayol ham qamrab ololmaydigan sirli xilqat ekaningga iqror bo'lardim.

Ammo shunga qaramay sening tundan ulgi olgandek tim qora ko'zlaring, yurakka sanchilib botadigan o'tkir nigohing xotiramda qattiq o'rnashib qolgan edi. Sen haqingda o'ylaganimda, ismingni shivirlab, tilga olganimda, eng avvalo, tasavvurimda ana shu sirli nigohing paydo bo'lardi. Oradan qirq yil o'tayotgan, yillar shafqatsizlik bilan har bir narsaga o'zining muhrini bosib kelayotgan bo'lsa-da, sen dafatan qarshimda paydo bo'lsang, men sira ikkilanmay, adashmay-og'ishmay ana shu nigohlaringga qarab, seni tanib olaman. Nazarimda, sening nigohing hech qachon o'zgarmaydi, qarib-chirib, so'nib bitmaydi, balki hamisha birdek – goho mahzun va g'amgin, gohida esa, quvonch bilan boqib turaveradi. Aslida ham sening sir-sinoat-

ga to'la nigohing quyosh yanglig' xotiram qa'rini yoritib, doimo seni yodimga solib turadi.

\* \* \*

Yana qayta aytaman: men sen haqingda o'zimni unutmagan ko'yi jo'shib gapirishim, ehtiros-u hayajonga berilishim, go'dakdek quvonib, o'zimni qayerga qo'yishni bilmay qolishim kimgadir kulgili tuyilishi, hatto kimdir meni qarib, miyasi aynib qolgan telbaga ham chiqarib qo'yishi mumkin.

Ehtimol, yana kimdir dunyoda shunday sohir tuyg'u borligiga, uning qudrati, istak-xohishi va mayli bilan chechaklar chiroy ochib, dunyoga zeb-u ziynat bag'ishlashi, qushlar betinim qo'shiqlari bilan hammaga zavq ulashishi, uning mayin va yoqimli epkinlari silab-siypalab o'tishi bilan dag'al va zada tortgan ko'ngillar bir zumda xuddi zamzam suviga chayilgandek, poklanib, musaffo va tiniq tortishi, agar u yuraklarni tark etib ketsa, dunyo xuddi chala tug'ilgan go'dak singari birdan ayanchli qiyofaga kirib qolishi, ko'ngillarda qabohat va yovuzlik in qurib olishi, aslida u xuddi ohista beshik tebratayotgan ayol singari dunyoni tutib turganiga mutlaqo ishonmasligi, bularning bari shunchaki cho'pchak, deya qo'l siltab ketishi mumkin.

Men aytaman: siz so'zlarimga shubha-gumon bilan qarab inkor etishga, bemavrid xulosa chiqarishga aslo shoshilmang, bu tuyg'uning mo'jizakor qudratini o'z ko'zingiz bilan ko'rishni istasangiz, ortimdan yuring. Men sizga Ibrohim va Muazzam qissasini so'zlab beraman.

\* \* \*

Uni qishloqda, daryo yoqalab o'tgan toshyo'lda uchratdim. Men kechki payt daryo bo'yiga chiqib, katta xarsang tosh ustida xayolga tolib bo'lib o'tirgandim. Qishloqda hali bahor tugab ulgurmagan bo'lsa-da, jazirama yozning tafti sezilib qolgan, yo'l yoqalarida siyrak o'sgan o't-o'lanlar allaqachon qurib-qovjirab, sarg'ish tusga kirgandi. Daryoning ham suvi tortilgan, uning tubida bir ariqcha suv toshlarni bazo'r ko'mgancha jimir-jimir oqardi. Quyosh tobora ufqqa og'ib borar, atrofga kechki salqin tusha boshlagandi.

Men ancha payt xayolga g'arq o'tirdim, bir chog' toshyo'lning kunchiqar tomonidan ikki ayol va bir yigit kelayotganiga ko'zim tushdi. Ular ildam-ildam qadam olib kelishar, yigit qo'lida qora rangdagi sumka ko'tarib olgandi.

Ular mening qarshimdan o'tayotganda, haligi ayollar begonasiragan ko'yi ko'z osti bilan qarab-qarab qo'yishdi, anavi yigit esa iljaygancha

qiziqsinib tikildi, hatto boshini irg'ab salom ham berdi.

Rosti gap, men qancha sinchkov nazar tashlamay ularni tanimadim, ko'nglimdan qo'shni qishloqdan bo'lishsa kerak, degan o'y kechdi.

Ular o'tib ketishgach, yana yolg'iz qoldim. Ayni damda xayollarga g'arq bo'lib o'tirishim o'zimga juda yoqar, ayniqsa, atrofdagi sokinlikdan ruhim orom olardi.

Oradan qancha fursat o'tganini bilmayman, bir payt toshyo'lda yana boyagi yigitning qorasi ko'rindi. Chamasi, u anavi ayollarni kuzatib qo'yib, iziga qaytib kelayotgandi.

U bu gal qarshimga kelib, qo'l uzatib so'rashdi.

– Aka, yaxshimisiz? – dedi u. – Qishloqqa yaxshi keldingizmi?

– Rahmat, – deya o'rnimdan turib, u bilan so'rashdim. – O'zingiz yaxshi yuribsizmi?

– Men sizni taniyman, – dedi u go'dakdek soddalik bilan iljaygancha. – Siz haqingizda ko'p eshitganman, shaharda yashaysiz.

Menga o'ttiz-o'ttiz besh yoshlar chamasidagi, o'rta bo'yli, sarg'ishdan kelgan bu yigitning sodda va samimiy gap-so'zlari, o'zini tutishi yoqib qoldi, unga qarab turib, ko'nglimda allaqanday iliqlik uyg'ongandek bo'ldi.

– Yo'l bo'lsin? – dedim men.

– Qarindoshlarimiz mehmonga kelishgan ekan. Ularni kuzatib, qaytyapman. O'zim huv anavi Polvontepa qishlog'ida yashayman, – dedi u va boshi bilan kunchiqar tomondagi qishloqni ishora qilib ko'rsatdi.

Men Polvontepa qishlog'idagi odamlarning ko'pchiligini yaxshi tanirdim, ammo unga qanchalik razm solib tikilmay baribir taniy olmadim. Shu bois undan so'radim:

– Kimning o'g'li bo'lasiz?

– Ey, asli men boshqa qishloqdanman, – dedi u negadir shoshib. – Taqdir ekan, Polvontepa qishlog'ida uylanib, shu yerda qolib ketdim.

– Polvontepada kimning qiziga uylangansiz?!

– Mahmud aka degan odamning qiziga uylanganman.

– Qaysi Mahmud aka? – dedim men va peshonamni tirishtirib, polvontepaliklarni bir-bir xayolimdan o'tkaza boshladim.

– U kishining dunyodan o'tib ketganiga ancha yil bo'lgan, – dedi haligi yigit xayolimni bo'lib. – Ammo siz tanisangiz kerak, bir paytlar qishlog'ingizni podasini ham boqqan. Shu Mahmud aka-ning qiziga...

Hayotda ba'zan bir og'iz so'z yoki kutilmagan-da ro'y bergan arzimasi voqea ham ko'ngilning

tub-tubiga cho'kkan va asta-sekin unutilib bo'rayotgan xotiralarni dafatan uyg'otib yuborishi mumkin. Men ham ayni damda shunday holatga tushgan, qarshimda allaqachon chim ustida chordan qurib o'tirib olgan yigitning "Mahmud aka" degan so'zlari birdan xayolimni ostin-ustin qilib yuborgan, ko'z o'ngimdan olis bolalik yillarim, Mahmud aka va uning telbasifat o'g'illari bir-bir o'ta boshlagandi.

Rostdan ham, men Mahmud va uning o'g'illarini yaxshi tanirdim, taqdir boshi ustidan barcha sho'rish-u azobi, kulfat-u g'ussasini ayovsiz to'kib solgan, ermaktalab odamlar uchun atay ovunchoq yaratgandek, hammasining birdek aql-u idrokini o'g'irlab qo'ygan bu oilani kim ham tanimasdi, deysiz?

Oradan ko'p yillar o'tib ketgan bo'lsa-da, men ayni damda ham Mahmud akaning o'g'illari ismini adashmay-og'ishmay aytib beraman: to'ng'ichini Sulton, undan keyingisini Eljon deb atashar, adashmasam, qizlari ham bor edi.

Mahmud aka o'ta sodda, bo'sh-bayov, hatto laqmatabiat kishi edi, ammo uning farzandlari barchasi birdek, aqli noqis, ularning telba-teskari gap-so'zlari, beo'xshov qiliqlari ko'ngilda ayanchli tasavvur uyg'otardi.

Sira yodimdan chiqmaydi: Sulton, ehtimol, qaysidir kinoda ko'rganmi yoki kimdandir eshitganmi, doimo bir gapni og'zidan qo'ymay aytib yurardi: Fashistlar bostirib kelmayaptimi?!

O, bu telba yigit yo'lda kimni uchratsa, albatta, shosha-pisha shu savolni berar va ko'zlari jovdirab javob kutardi.

Odamlar uning telba-teskari gap-so'zlarini-u, beo'xshov qiliqlariga ko'nikib ketishgan, odatda, ko'pchilik uning ko'nglini xotirjam qilish uchun atay: "Sulton, sen xavotir olma, hammayoq tinch. Mabodo, fashistlarning qorasi ko'rinsa, o'zimiz senga xabar beramiz", deb qo'yishardi.

Sulton bu gaplarga chippa-chin ishonar va birdan ko'zlari yovqur chaq nab ketardi. "Ha, aytinglar, tag'in bexabar qolib ketmay. Fashistlar bostirib kelishi bilan uydan avtomatimni olib chiqib, hammasini tarillatib otib tashlayman", derdi u.

Odatda, Sultonning katta-katta tim qora ko'zlarida doimo allaqanday junun sharpasi o'ynab turar, u ko'pincha allanimalar deya o'z-o'ziga g'o'dranib yurar, ba'zan kutilmaganda, qah-qah urib kulib qolar, uning sovuq va ayanchli kulgisi ko'nglida vahm uyg'otar, ba'zan esa, qahr-u g'azabi, alam-u iztirobini ichiga sig'dirolmay qolganek, butkul quturib ketardi, bunday paytda uning ko'zlari qonga to'lib, qip-qizil tortib ketar, yuzi

bo'g'riqib qo'rqinchli tusga kirar va u qo'lidagi poda tayoq bilan mollarni shunday ayovsiz sa-valashga tushardiki, tayoqning zarbidan bechora sigirlar bo'kirib yuborardi.

Mahmud akaning ikkinchi o'g'li Eljon esa, o'ta uyatchan va tortinchoq edi, u doimo odamdan o'zini olib qochib yurar, agar yoniga yaqin borsangiz, birdan qo'llari bilan yuzini bekitib olardi, uni gapga solish, allanimalarni so'rash o'ta mushkul edi.

Men olis bolalik yillaridagi bu og'ir va ayanchli, ayni chog'da g'aroyib xotirlarni yodga olarkanman, o'zimga dam-badam tikilib qo'yayotgan haligi yigitga savolomuz qaradim. U qarashimdan ko'nglimda kechayotgan o'ylarni payqadi, shekilli, chuqur xo'rsinib qo'ygandek bo'ldi.

– Ha, aka, – dedi u allaqanday ma'yus ovozda, – bularning bari peshonamda bor ekan.

Aftidan, u men bilan gaplashgisi, yuragidagini to'kib solgisi kelayotgan edi, shekilli, chim ustida bamaylixotir o'tirib oldi.

– Mening aynan Mahmud akaning qiziga uylanganimni eshitgan odam yo hayron bo'ldi, yo ustimdan kuladi, – dedi u g'amgin ovozda. – Mayli-da, kim qanday o'ylasa, o'ylayversin. Mening hech kimga og'irligim tushib qolgan joyi yo'q. To'g'risi, shu choqqa qadar hech kimga og'iz ochib, yuragimdagini aytganim yo'q, bugun sizga aytayapman: Mahmud akaning qizi Muazzamga uylanganimga hech qachon pushaymon bo'lmaganman. Bundan keyin ham afsus qilmayman. To'g'risi, Muazzamni birinchi marta ko'rganimdayoq hozir o'zim ham tuzuk-quruq tushuntirib berolmayman, yuragimga qandaydir olov oqib kirgandek bo'lgan, butun tanim qizib ketgan, o'zimni juda g'alati sezganman. Boya sizga aytdim-ku, o'sha paytda huv anavi pastdagi qishloqda yashardim. Yoz boshlanishi bilan qishloqdagilar meni daryodan ariqqa suv boshlab kelishga yuborishardi. Ariqning qulog'i esa, Polvontepa qishlog'ining etagida edi.

O'shanda ham daryoga tushib, tosh-u shox-shabballarni bostirib, ariqqa suv ochayotgandim. Ishga juda berilib ketibman, bir chog' boshimni ko'tarib qarasam, shunday boshim ustida – jarlik tepasida qandaydir begona qiz ko'zini uzmay har bir xatti-harakatimni berilib kuzatib turgan ekan. Men peshonamdan oqayotgan terni qo'llarim bilan sidirib tashlab, unga xijolat bo'lgandek siniq jilmayib qaradim. Qiz esa, tikilib turganidan xijolat bo'lib uyaldimi, birdan ko'zlarini olib qochdi, so'ng yuzini narigi tomonga o'girib oldi. Uning egnidagi qizil gulli ko'ylagi o'ziga juda yarashib turar, mayda o'rilgan sochlari

yelkasini qoplagan edi. Men undan ko'z uzolmay tikilib qoldim. Bilasizmi, o'shanda uning jarlik ustida mung'ayibgina o'tirishiga mehrim toblanib qararkanman, yuragimga yoqimli iliqlik oqib kirib, butun tanim qizib ketgandek tuyulgan.

Shundan so'ng o'tirsam ham, tursam ham u haqida o'ylaydigan bo'ldim, uning jarlik ustida ojizgina qiyofada o'tirishi sira xayolimdan nari ketmay qoldi. Men o'zimga nimalar bo'layotganini tushunmasdim, kecha-yu kunduz shu qiz haqida o'ylar, uni dam-badam ko'rgim kelardi. Shuning uchun nuqul oyog'im Polvontepa qishlog'i tomonga tortib ketaverardi. O'shanda qishloqdagilar aytsa-aytmasa, suv boshlab kelishni bahona qilib, shu tomonga yo'l olardim.

Keyinchalik so'rab-surishtirib bilsam, u har kuni jarlikka ikki bosh qo'yini o'tlatgani haydab kelarkan.

Bilasizmi, o'shanda juda qiziq holatga tushib qolganman. To'g'risi, hozir sizga buni qanday aytishni ham bilmayman, nima desam ekan, har kuni Polvontepa qishlog'iga yo'l olarkanman, yo'l-yo'lakay o'zimcha o'sha qizga juda ko'p narsalarni aytishni o'ylab borar, xayolimda bir-biridan chiroyli so'zlar g'o'jg'on tortib aylanar, bundan o'zim ham zavqlanib ketardim. Ammo unga ko'zim tushishi bilan birdan hayajon bosganidanmi, dovdirab qolib, gapimni ham yo'qotib qo'yardim, yuragim ko'ksimdan otilib chiqqudek shitob bilan urib qolar, peshonamdan shovullab ter quyilib kelardi. Boyagi dadilligim, jur'atimdan asar ham qolmasdi, unga ancha payt jimgina tikilib o'tirib-o'tirib, so'ng bo'shshib izimga qaytardim.

Bir tomondan, unga dabdurustdan gapirgudek bo'lsam, jahli chiqib, qarq'ab berishidan, haydab solishidan cho'chib turardim. Axir, u hali meni tanimasdi, ko'nglimda nima borligini bilmasdi-da.

Qisqasi, men ancha payt nima qilishni bilmay boshim gangib yurdim. Faqat kunlardan bir kun yurak yutib, undan ismini so'radim.

– Muazzam, – dedi u eshitar-eshitilmas ovozda va shu zahotiyoq quyoshda qoraygan yuzi birdan qip-qizil tortib ketdi, hatto jilmayib qo'ygandek ham bo'ldi. Buni ko'rib, mening ham yuragim hapqirib, ich-ichimdan suyunib ketdim. Axir, nega quvonmay, uning uyalib-tortinib, erkalangandek ovozda ismini aytishida yurakka iliq tegadigan qandaydir mehr bor edi. Men shuni his etib, unga yana mehrim ortib ketgan, xuddi azaldan tanigandek, ko'nglimga juda yaqin olgandim.

O'shanda men ham unga ismimni aytganman:

– Mening ismim Ibrohim, huv pastdagi qishloqda yashayman.

Buni eshitib, u shiringina jilmayib qo'ygandi. Biz shu taxlit tanishganmiz.

O'sha kun bor-yo'g'i uning ismini bilib olganimdan quvonchim ichimga sig'may qolgan, dimog'im chog', o'zimcha allaqanday qo'shiqni xirgoyi qilib qishloqqa qaytganman.

\* \* \*

Aka, men yetim o'sganman, onamni eslay olmayman, uch yoshligimda dunyodan o'tgan ekanlar. Otamni esa es-es bilaman, meni to'ning bariga solib, qayerga borsa, o'zi bilan olib yurardi. Keyin otam ham kasallanib dunyodan o'tgach, tog'amning qo'lida qolib ketdim. Tog'am badjahl odam edi, ammo meni biron marta ham urishib-so'kmagan, yetimligimni o'ylabmi, doimo ko'nglimga qarardi. Yangam esa, meni ichida o'lardek yomon ko'rardi, lekin tog'amdan qo'rqqanidan damini chiqarmas, o'lganning kundan chidab kelardi.

Xullas, quvonchimni ichimga sig'dirolmay yurgan o'sha kunlari Muazzamga uylanish niyatiga tushib qoldim. Axir, yoshim o'ttizga borib qolgan, tengqurlarim allaqachon uylanib, bola-chaqali ham bo'lgandi. Ammo buni tog'amga qanday aytishni bilmay o'ylanib qoldim. So'ng o'ylay-o'ylay tog'amga bir og'aynim orqali aytirdim. Tog'am niyatimni eshitib, ko'ramiz, deya indamay qo'yibdi. Shundan so'ng bir necha kun uyalganimdan tog'amning ko'ziga ko'rinmay yurdim. Axiyri, bir kun ertalab, dasturxon ustida tog'amning o'zi gap ochib qoldi:

– Jiyan, uylanmoqchi ekansan, deb eshitdim. Topganing bormi?

O'shanda tog'amning gapini eshitib, uyalganimdan yerga kirib ketgandek bo'lganman. Keyin o'zimni biroz tutib olib, tortingancha ko'nglimdagini aytganman:

– Polvontepa qishlog'ida bir qiz bor ekan. Ismi Muazzam...

– Ey, hali kelin ham topib qo'rganman, degin, – dedi tog'am yoyilib kulgan. – Sen ham balo ekansan. Mayli, men bir surishtirib ko'ray-chi, keyin gaplashamiz.

O'sha kuni kechga tomon o'pkamni qo'ltiqlab, hovliqqancha yana Polvontepaga yo'l oldim. Bu gal qarorim qat'iy, hammasini Muazzamga ochiq aytib, uning roziligini olish edi.

Men Muazzamni odatdagidek, daryo bo'yida uchratdim, u qo'ylarini o'tlatib yurgan ekan. Menga ko'zi tushib, u ham ich-ichidan quvonib ketdi, shekilli, birdan yuzi yorishib, lablarining chetida kulgi sharpasi yugurgandek bo'ldi, ammo buni

sezdirmaslik uchun darrov boshini quyi solib oldi. "Kelishimni kutib turgan ekan" degan o'y kechdi ko'nglimdan. Men shundan dadillanib, to'ppa-to'g'ri uning oldiga bordim.

– Muazzam, yaxshimisan? – dedim hayajondan entikib.

U "yaxshi" degandek, jilmayib qo'ydi.

– Muazzam, – dedim yana. – Senga aytadigan bir gapim bor.

U birdan sergak tortdi va hayron bo'lgandek, ko'zlarini katta-katta ochganicha tikilib qoldi.

– Muazzam, – dedim. – Yaqinda tog'am uylaringga sovchilikka boradi...

U bir muddat hech narsani anglamayotgandek, kiprik qoqmay tikilib turdi, keyin esa, yuzi birdan qizarib ketdi, faqat ko'zlarida allaqanday mamnun aks etgandek bo'ldi.

– Uyatsiz, – dedi u allaqanday erkalovchi ovozda va shoshib qo'ylarini haydagancha qishlog'i tomon ketdi.

Men uning ortidan qararkanman, yuragim quvonchga to'lib borardi, nazarimda, o'sha damda dunyoda o'zimdan baxtiyor va omadli odam yo'qdek edi. Muazzamning erkalangan ohangda "uyatsiz" degan so'zlari qulog'im ostida jaranglab turardi.

Qishloqqa qaytarkanman, "Muazzamning ham menga ko'ngli bor ekan. Erta-indin tog'amni sovchilikka yuboraman" degan o'y xayolimni band etib olgan edi.

Xullas, men o'zimcha hamma ish bitdi, deb yurgan paytimda kutilmaganda, bari birdan chippakka chiqib ketishiga oz qoldi. O'shanda nazarimda, dunyo birdan teskari aylanib ketgandek bo'ldi, qattiq qo'rqib ketganimdan nima qilishni ham bilmay gangib qoldim.

Qisqasi, Muazzam bilan gaplashgach, oradan ikki kun o'tib, oqshom uyga kelsam, tog'am g'azabi qo'ziganidan o'zini qayerga qo'yishni bilmay turgan ekan. Menga ko'zi tushib, battar jazavaga tushib qoldi.

– Hov ovsar, lattachaynar, – dedi tog'am menga ko'zi tushishi bilan. – Kimning ortidan ilakishib yurganingni bilasanmi o'zi?! Sen aytgan o'sha Muazzaming ham, otasi ham g'irt jinni ekan-ku! Ularni qishlog'ida hech kim odam qatoriga qo'shmaydi, bu ovsar shunga uylanmoqchi emish... Hey, topgan qizingni...

Bu gaplarni eshitib, kimdir tuyquq boshimga bir musht tushirgandek, birdan gangib qoldim, hamon jazavaga tushganicha baqirib-chaqirayotgan tog'amga qo'rqa-pisa qaradim.



Rasmlarni Asliddin Kalanov chizgan.

Tog'am hadeganda jahlini bosolmas, xuddi izzat-nafsi toptalgandek, tutaqib gapirar, jahldan yuzi bo'g'riqib ketgan edi.

Men ancha paytdan so'ng xiyol o'zimni tutib oldim va tog'amga yolvorgandek, mo'ltirab qararkanman: – Bunday demang tog'a, Muazzam jinni emas, yaxshi qiz! – dedim bazo'r.

Buni eshitib, tog'am battar tutaqib ketdi.

– Buning topgan gapini qarang: yaxshi qiz emish, – dedi tog'am bo'g'ilib. – Yaxshi emas, g'irt tentak. Oilasida bironta sog' odam yo'q. Shuni tushunasanmi, o'zi?!

Hozir o'ylasam, o'zim ham hayron qolaman, umrim bo'yi tog'amning yuziga tik qarash tugul biron marta ham gapini ikki qilmaganman, ammo o'sha damda boshimga yog'ayotgan ta'na-dashnomlarga toqat qilolmadim.

– Tog'a, – dedim o'zimda jur'at topib, – men bari-bir Muazzamdan boshqaga uylanmayman.

Aftidan, tog'am mendan bunday gapni kutmagan ekanmi, birdan bo'shashib, jimib qoldi va hansirab nafas olganicha qahr bilan tikilarkan: – Hali shunaqa degin, – dedi. – Mayli, kimga uylansang, uylanaver. Jinniga uylanasanmi, telbaga uylanasanmi, bu sening ishing. Faqat topganingni bu uyga olib kelaman deb xomtama bo'lma. Senga ham, topgan xotiningga ham bu uyda joy yo'q. Endi ko'zimdan yo'qol!

O'sha oqshom men tog'amning uyidan chiqib ketdim. Bundan boshqa ilojim ham qolmagandi. Ammo tog'am quturib, qahr-u g'azabini sochgan, boshimdan ta'na-dashnomlarni yog'dirgan, hatto uyidan haydab solgan, eng yomoni, o'sha paytda qora tortib boradigan tayin boshpanam bo'lmasa-da, sira tushkun ahvolga tushmagandim. Aksincha, tog'amga ko'nglimda borini ochiq-oydin aytganim, Muazzamning sha'nini himoya qilganim uchun o'z-o'zimdan xursand edim.

Aka, tog'am bilan oramiz buzilib ketgani yaxshi bo'lmadi. Bu haqda o'zim ham ko'p o'ylayman. O'shanda tog'am menga azbaroyi yuragi achiganidan atay urishib-so'kib, niyatimdan qaytarmoqchi bo'lgan, hatto uyidan haydab yuborishgacha borgan, ammo qayoqqa ham borardi, ertaga ko'zining yoshini oqizib, yana qaytib keladi, deb o'ylagan. Menga yolg'iz jigarim, deb yuragi kuyganidan shunday yo'l tutgan. Men buni yaxshi bilaman. Ammo mening shunday yo'l tutishdan boshqa ilojim yo'q edi. Axir, men qanday qilib Muazzamdan voz kechib ketardim?! Tog'am esa Muazzamning nomini ham eshitishni istamasdi. Tog'amning fe'lini yaxshi bilaman, u juda oriyatli odam edi, men Muazzamga uylangudek bo'lsam, qishloq-

dagilarning gap-so'zi, malomatini eshitishdan cho'chib turardi, shuning uchun u meni o'lib-tirilib, niyatimdan qaytarishga uringandi.

Harqalay, nima bo'lganda ham, endi tog'amning uyiga qaytish niyatim yo'q edi. Ayniqsa, o'sha oqshom tog'amning Muazzam haqidagi haqoratomuz gaplari ko'nglimga juda og'ir botgan, ich-ichimdan hamma-hammasini yomon ko'rib qolgandim. Agar bilsangiz, o'sha paytda ko'nglimdagi niyatim shu qadar qat'iy ediki, Muazzamga yetish uchun hech qanday kuch yo'limdan qaytarolmas, Muazzamdan boshqa hech kimni ko'rishni ham, nomini eshitishni ham xohlamasdim; Muazzamni o'ylagan sayin qop-qorong'i tortgan ko'nglim yorishib borardi.

Qisqasi, tog'amning uyidan bosh olib ketgach, ikki-uch kun qishloqdagi og'aynilarimning uyida yotib yurdim. Keyin xayolimga qayerdan keldi, bilmayman, to'ppa-to'g'ri Polvontepa qishlog'idagi qassobning oldiga borib, boshimdan kechirganlarimni oqizmay-tomizmay gapirib berdim va undan yordam berishni iltimos qildim. Qassob gaplarimni sabr bilan eshitgach, ancha payt o'yga tolib qoldi. Keyin esa u ham niyatimdan qaytarishga urinib ko'rdi. – Buni umr savdosi deyishadi, – dedi u. – Kimga og'iz solayotganingni yaxshilab o'ylab ko'r, tag'in ertaga afsus qilib yurma.

Qassob yana allanimalar deya uzoq nasihat qildi. Ammo men o'jarlik bilan aytganimga turib oldim, nima bo'lsa, peshonamdan ko'raman, dedim. Shundan so'ng qassob noiloj Mahmud akaning uyiga sovchilikka borishga rozi bo'ldi.

Muazzamning otasi Mahmud aka qassobning gaplarini eshitgach, yo'q, demabdi, faqat ro'zg'orimning tirgagi shu qizim, uni uzatib yuborsam, battar xarob bo'lamiz. Agar qizimga uylansa, biz bilan birga yashaydi, deb shart qo'yibdi.

O'shanda qassob o'zicha hazil qilgan bo'ldi: mashoyixlar yetimning yo'ldoshi Xudo, deb bejizga aytmagan ekan. Qara, bir kunda ham uylik, ham kelinlik bo'lding...

Aka, o'sha paytda Mahmud akaning shartiga rozi bo'lmasdan boshqa ilojim yo'q edi. O'zimga boshpana topilganidan umuman xursand bo'lganim ham yo'q, yakka-yu yolg'iz ilinjim Muazzamga uylanish edi, shuning uchun har qanday shartga rozi edim. Qassobga ham rozi ekanimni aytdim. Dunyoda yaxshilar ko'p, buni odam boshiga tashvish tushganda bilar ekan. Qassob savobtalab, tanti odam ekan. Meni yetim ekanimni bilgach, uyidan joy berdi, xuddi o'g'lidek boshimni silab, mehribonlik qildi, qo'lidan kelgan yordamini ayamadi. To'yga ham o'zi



bosh-qosh bo'ldi, to'rt-besh so'm xarajatini ham o'zi ko'tardi.

Tog'amga uylanayotganimni aytmadim, balki o'zi eshitgandir. Chamasi, o'shanda tog'amning mendan qattiq ko'ngli qolgan ekan, shu paytgacha yo'qlab kelmadi. Nasib bo'lsa, biron kun o'zim oldiga boraman. Oradan ancha yil o'tdi, balki endi tog'am meni kechirgandir.

Shundan so'ng oradan ko'p o'tmay Muazzam bilan to'yimiz bo'ldi. Buni rosmana to'y deb ham bo'lmaydi. Mahmud akaning hovlisida qishloqning besh-o'n chog'li odami yig'ildi. Meni kuyov sifatida qassobning o'g'li boshlab bordi. Mahmud aka hovlisining chetidagi tomi osilib qolgan, ko'rinishidan omborxonaga o'xshab ketadigan ikkita kichkina xonali uyni bizga ajratib bergan ekan. To'ygacha Muazzam bu uyni supurib-sidirib tozalabdi, devorlarini oqlab qo'yibdi. To'y kuni uy ichiga chimildiq ham tortib qo'yishgan ekan. O'sha kuni ayollar qo'shni hovlidan Muazzamni yasantirib olib chiqishdi. Unga qarab turib, rosti gap, taniy olmay qoldim: uning egnida cho'g'dek toblanayotgan atlas ko'ylak, sochlari mayda o'rilgan, boshida katta oq shoyi ro'mol tashlab olgandi. Muazzam juda chiroyli kelin bo'lgan, hovlida to'plangan ayollar ham pichirlashib shu haqida gapirishar, hatto ularning: – Xudo aqldan qisgan bo'lsa ham, qurg'urning husniga qarab, ko'z to'yamaydi-ya, deb aytgan so'zlari qulog'imga chalingandi.

O'sha kun qishloqning mullosi nikohimizni o'qib qo'ygach, oldin Muazzam, so'ng men chimildiqqa kirdik.

\* \* \*

Aka, men Muazzamga uylanganimga o'shanda ham, hozir ham sira afsus qilmayman. Axir, nega pushaymon bo'lay, Muazzamdek oqila qiz bilan taqdirim qo'shilganiga doimo shukr qilaman. To'yimiz o'tgach, bunga qayta-qayta ishonch hosil qildim. Faqat to'ydan so'ng qishloqdagilarning ish-qilib, kuyovning aql-u hushi joyida ekanmi yoki u ham jinnimi, degandek menga qattiq qiziqib qolishgani, hatto darvoza-yu devor tirqishlaridan tinimsiz poylashgacha borishganiga sira ko'nikolmay yurdim. O'sha kunlari uydin tashqariga chiqishga yuragim bezillab qolgandi, har qadamda odamlar nigohi bilan tinimsiz ta'qib qilayotgani, ko'chada to'qnash kelib qolganda, surbetlarcha aft-angorimga qarashlari, turli kesatiq gap-so'zlari, ba'zan ochiq-oydin kulishlari jonimdan to'ydirib yuborardi. Ammo men ko'nglimga qanchalik og'ir botmasin, bariga chidadim, ustimdan kulgan,

hatto masxara qilganlarga ham qattiq gapirmadim, shunchaki indamay qo'ya qoldim. Keyin-keyin hammasi iziga tushib ketdi.

Odamlar meni jinni emas, to'rt mucham soppa-sog', aql-u hushim joyida ekanimga ishonishdi, Muazzamga mehrim balandligi uchun bu yerga kelib qolganimni ham tushunib yetishdi. Shuning uchun ko'pchilik hurmat bilan qaray boshladi.

Hozir qishloqda hech kim bizning ustimizdan kulmaydi, masxara-yu mayna qilishni xayollariga ham keltirishmaydi, faqat bizga rahmlari kelibmi, achinib qarab qo'yishadi. Ko'pincha esa, yaxshi gapirib, ko'nglimizni ko'tarishga harakat qilishadi.

Bilasizmi, aka, to'yimiz o'tgach, men Mahmud akaning yuragini qanday dard-u balo kemirib, ado qilganini tushunib yetdim. Bechora Mahmud aka dunyodan kuyib-kuyib armon bilan o'tdi, farzandlarining aqli noqis, jinni tug'ilgani, qishloqdagilarning ochiq-oshkora masxara-yu mayna qilishi, hatto odam o'rnida ko'rmay xuddi bedavo dardga yo'liqqan kimsaga qaragandek, irg'anib qarashlarini o'ylab, dardi ichiga sig'may ketar, tursa ham, o'tirsa ham, Xudo qaysi gunohim uchun meni bunday jazoladi, deya tinimsiz yozg'irardi.

U o'limi oldidan qo'llarimni mahkam ushlab olib, bolalarimni tashlab ketmang, deya qayta-qayta yolvorib so'ragani sira ko'z o'ngimdan nari ketmaydi.

Aka, nimasini aytay, o'shanda nafaqat Mahmud aka va Muazzam, hatto qishloqdagi odamlar ham meni bu dard-u balolarga chidayolmay ertami-kech, kelgan tomoniga ketib qoladi, deb kutib yurishardi. Ayniqsa, Muazzam hammadan ko'proq shu haqida o'ylaganidanmi, ko'nglidan sira xavotir-u hadik arimasdi. Ba'zan ko'chaga chiqib ketsam, u yo'lga qarab, ko'zlari to'rt bo'lganini, xavotirga tushganidan bezovtalanib o'zini qo'yarga joy topolmay qolganini, hovliga kirib kelganimda, tipirchilab, u yoqdan-bu yoqqa yugurgancha ko'nglimni olishga urinishini sezardim. Ammo men bu hovlidan boshimni olib, allaqayoqqa ketib qolishni hech qachon xayolimga keltirmaganman. Bunday fikr xayolim ko'chasidan ham o'tmagan.

Qisqasi, Mahmud aka dunyodan o'tgach, hovlida o'zim bosh bo'lib qoldim. Mahmud akaning xotini ancha yil burun qazo qilgan ekan. U nuquq xotinim sho'rlik bolalarining etagiga yopishgan dardni ko'tarolmay dunyodan ko'zi ochiq ketdi, zorlanib gapirardi. Oilaning to'ng'ich o'g'li Sulton esa men uylanishimdan xiyol ilgari boshi aylanib, uydin chiqib, dom-daraksiz ketgan, u hali-hanuz qaytib kelmagandi. Rahmatli Mahmud aka hali

ko'zi tirik paytidayoq Sultonning qaytib kelishidan umidini uzib qo'yg'an, nuqul sho'rlik bolam endi tug'ilgan uyini ham topib kelolmasa kerak, deb kuyinardi. Ba'zan kimdir Sultonni qaysidir uzoq shaharda ko'rganini, soch-soqoli o'sib, bir ahvolda yurganini aytib qolar, buni eshitib, Mahmud akaning bitta dardi mingta bo'lardi. Eljon esa, o'ta yovvoyi, doimo odamdan qochib yuradi, otasining o'limidan so'ng kichkina uychaga qamalib olib, sira tashqariga chiqmaydi. Muazzam har kuni bir kosa yovg'on-u yarimta nonni uyga kiritib beradi.

Bilasizmi, aka, men uylangach, shuni anglab yetgandimki, Muazzam akalari singari butkul aql-u hushidan ayrilgan, na xatti-harakati, na gap-so'zlarini idora qilolmaydigan jinni emasdi. Ishonsangiz, uning to'rt muchasi soppa-sog', aql-u hushi ham joyida, hamma-hamma narsani tabiiy va to'g'ri idrok etadi. Faqat bilasizmi, qishloq-dagilarning oilasi ustidan ochiq-oshkor kulishi, ko'cha-ko'yda "jinni, jinni" deya masxara-yu mayna qilishi, ochiq jirkanib qarashi, hatto bir lagandan osh yeyishdan or qilishi uning hali bolaligidan qalbini butkul qabartirib, zada qilib tashlagan edi. U odamlarning ana shunday ko'z ochirmay qo'yg'an ta'qib-u malomatlarini eshitaverib, hech kimga ishonmay qo'yg'an, hamma narsaga hadik va qo'rquv bilan qarar, ko'cha-ko'yda o'zini savdoyidek tutar, o'rni kelganda og'zidan tupuk sachratib bobillagancha, shallaqilik qilish, hatto o'g'il bolalar bilan ham teppa-teng yulishishdan tap tortmasdi. U hayotda oddiygina mehr, andisha, hayo borligini allaqachon esidan chiqarib yuborgan, doimo odamlardan qochib yurar, hech kimga ishonmas, hamma narsani yomon ko'rardi. Baxtsizlikni qarangki, u onadan soppa-sog', aql-u hushi joyida tug'ilgan, ammo qattol qismat boshiga ayovsiz yog'dirgan ko'rgiliklarni ko'raverib, og'ziga kuchi yetmagan odamlarning ta'na-dashnomi, malomatlarini eshitaverib, aqldan ozishiga, jinni bo'lib qolishga bir baxya qolgandi.

To'g'risi, to'yimizdan so'ng dastlabki kezlarda Muazzamning hurkak va yovvoyiligiga, arzimagan narsalarga ham baqirib tashlashiga, ba'zan kurakda turmaydigan qarg'ishlariga ko'nikolmay rosa qiynalganman. Hatto o'shanda asablarim qaqshab, yuragim siqilib ketganidan bu hovlidan bosh olib ketish haqida ham o'ylaganman. Ammo darrov fikrimdan qaytganman. Axir, men ketib qolsam, Muazzam butkul aqlini yo'qotib, rostdan ham, jinni bo'lib qolishi tayin edi. O'shanda Muazzamni o'ylab turib, bunga hech qachon jazm qilolmasligimni tushunib yetganman.

\* \* \*

Aka, men umrimda ko'p kitob o'qimaganman, kitob titkilashga vaqt qayda deysiz, erta-yu kech yugur-yugurdan bo'shamayman. Ammo yorining ishqida kuyib-kuyib, oxir-oqibat savdoyi bo'lib qolgan oshiqqlar haqida eshitganman. Bilasizmi, bu savdoyilikning da'vosi mehr-muhabbat ekan. Hatto hayvonlarga ham mehringizni bersangiz, erkalab boshini silasangiz, ular ham buni sezmay qolmaydi, oyoqlaringizga suykalanib, sizga ham mehr ko'rsatadi, o'zining minnatdorligini bildiradi.

Muazzam ham har kun, har daqiqada mening mehr-muhabbatim, yuragim tafti, ishonch-u umidimni his etib, asta-sekin sokin hayotga qayta boshladi. Uning kundan-kun ruhan sog'ayib, hayotga ishonch va umid bilan qarayatgani, uzoq yillardan buyon yuziga soya tashlab kelgan qo'rquv va vahm sharpalari o'rnini xotirjam va mahzun ifoda egallayotganini his etib turardim.

Sizga buni qanday tushuntirsam ekan, Muazzam shunday ko'z o'ngimda asta-sekin o'zgarib borardi, ba'zan unga qarab turib, kechagi Muazzamni taniyolmay qolardim, chunki u kechagi yovvoyi va qo'rs, hamma narsaga nafrat va shubha bilan qaraydigan, doimo nimadandir hadiksirab turadigan, ko'zlari qo'rquv va vahima bilan boqadigan Muazzamdan og'ir va bosiq, andishali, har bir so'zini o'ylab gapiradigan, mehr-shafqatli, rahmdil va mehribon ayolga aylanib borardi.

Uning ko'nglida o'zimga nisbatan cheksiz mehr uyg'ongan, u faqat mening ishonch-u hurmatimni qozonish, qaynoq mehrimga munosib javob qaytarish uchun butun vujudi bilan intilar, intila turib, ruhan sog'ayib borardi. Men buni uyda kechgan har daqiqada yurak-yuragimdan his etib turardim.

Ayniqsa, Muazzam kechagi irkit, o'ziga umuman qaramay qo'yg'an, hamisha kir-chirga botib yuradigan qizdan saranjom-sarishta, orasta va nozikta' ayolga aylangan edi. Chunki uning yuragida ishonch va umid chechaklari bo'y ko'rsatgan sayin to'zg'ib, xarobaga aylanib qolgan, allaqanday vahimali va qo'rqinchli tuyiladigan hovlimizga birdan fayz kirib borardi, u erta tongda turib, hammayoqni supurib-sidirib, chinidek top-toza qilib qo'yardi. Uyimiz oldidagi bir parcha yerga rayhon ekan, uning xushbo'y hidi butun hovliga taralib turardi.

Aka, Muazzam bilan birga yashay boshlagach, yana bir voqea ro'y berganki, shuni eslasam, hozir ham ko'nglim g'alati bo'lib ketadi. Nima desam ekan, har kuni ertalab uydan chiqayotganimda tuflimni top-toza, artib qo'yilganini ko'rardim.

Avvaliga bunga uncha e'tibor bermadim. Keyin esa, kimdir tundami yoki tong azon payti chang-cho'ngga botgan tuflimni tozalab, artib qo'yayotganini sezib qoldim. Bir kun erta tongda uyg'onib, tashqariga chiqsam, Muazzam berilib tuflimni tozalayotganini ko'rib qoldim. Ishon-sizmi, u shunchalik mehr va ishtiyoq bilan tuf-limning chang-cho'ngini aritar ediki, hatto men tikilib turganimni ham sezmasdi.

Men o'shanda Muazzamga qarab turib, ayolga mehringizni bersangiz, uning ishonch-u e'tibori-ni qozonsangiz, u sizni Xudodek ko'rishini, o'zini butkul sizga bag'ishlanishini anglab yetganman. Balki men xato o'ylayotgandirman, ammo odam-ga bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak...

\* \* \*

To'yimizdan so'ng oradan ikki yilcha o'tgach, bir kun Muazzam omborxonada shiftida osib qo'yilgan, chaqaloqligida o'zi yotgan beshikni olib chiqib, kir-chirlarini artib tozalabdi. So'ng allaqayerdan ko'rpacha-yu bolishi va yoping'ichla-rini ham topib kelib, beshikni yasantirib, uyning to'riga qo'yibdi. O'sha kun oqshom men daladan horib-charchab uyga kelgach, uy to'rida turgan beshikka ko'zim tushdi-yu, rosti gap, ko'nglim juda g'alati bo'lib ketdi. Nima gap ekanini darrov tushundim, ammo sir boy bermay Muazzamdan atay so'radim:

– Beshik nimaga kerak bo'p qoldi?

Muazzam ovozimni eshitib, menga yalt etib qaradi, qarab turib, yuzi va ko'zlarida quvonch sharpasi jilvalandi, bir zum shunday – baxtdan sarmastdek tikilib turdi-da, so'ng uyalganidan yugurib tashqariga chiqib ketdi.

Muazzam ayol edi, u butun vujudi bilan ona bo'lishni, jajji farzandini dunyoga keltirib, bag'ri-ga bosishni istayotgandi. Bu istak uning butun vujudini chulg'ab olgan, men buni uning har bir xatti-harakati, gap-so'zlaridan his etib turardim. Keyinchalik u tong-azonda, men uxlayotgan ma-halda, boshiga ro'molini yoyib tashlab olgan, bo'm-bo'sh beshikni tebratgan past ovozda alla aytadigan odat chiqardi. Bir safar hali tong oqarmagan payt Muazzamning yig'lagan kuyi alla aytayotgan ovozidan uyg'onib ketdim. Ey, aka, uning o'sha paytdagi holatini eslasam, hozir ham ko'nglim o'ksib ketadi, yuragim bo'shshib, yig'lagim keladi. O'shanda Muazzam shunchalik hazin va dardchil ovozda alla aytardiki, uning o'zi emas, balki yuragi ezilib-ezilib yig'lar va bu iztirob, nola-yu fig'onni eshitgan har qanday tosh-bag'ir odam ham chidayolmay “dod” deb yuborar-

di. O, bu shunchaki alla emas, balki yurak-bag'rini ezib tashlagan dard-u hasratini qo'shiq qilib aytardi, o'zini unutib yig'lagan ko'yi nola qilar-kan, Xudodan marhamat-u inoyatini ayamaslik-ni, o'ziga farzand ato etishni agar niyati ijobat bo'lsa, bu dunyodan armon-u o'kinchsiz o'tishini aytib yig'lardi. Uning seldek ko'pirib-toshayotgan nola-yu fig'oni, dard-u hasratini eshitish juda og'ir va azobli edi. Men ham bunga uzoq chidab turol-madim, ko'nglim erib ketgandek bo'ldi, yuzimga ko'rpani tortib, qon bo'lib yig'ladim va yig'lab tu-rib, Xudodan bizga farzand ato qilishni so'radim.

\* \* \*

Oradan to'rt yil o'tayotgan bo'lsa-da, biz hali farzand ko'rmagandik. Muazzam kecha-yu kunduz shuni o'ylaganidan g'am-g'ussaga bo-tib, ma'yus tortib qolgan, tinimsiz toqatsizlanar, dam-badam yuragi hasratga to'lib ketganidan chuqur-chuqur “uf” tortib qo'yardi. Men ham uning ahvoliga qarab, ich-ichimdan qiynalardim va o'zimcha unga allanimalar deya taskin-tasalli bergan bo'lardim.

Bir kuni u dardini ichiga sig'dirolmadi, yura-gidagini aytdi:

– Meni do'xtirga olib borib ko'rsating...

O'sha kunlari o'zim ham shu haqida o'ylab yurgandim. Ertasi kun ertalab qishlog'imiz yaqi-nidagi shaharchada joylashgan do'xtirxonaga bor-dik. Do'xtirlar bizni qariyb bir hafta tekshirishdi. Ular mening sog'ligim to'grisida arzigulik bir gap aytishmadi. Faqat buyragingizda ozroq shamol-lash bor ekan, davolansangiz o'tib ketadi, deyish-di. Muazzamni esa, qandaydir g'alati apparatlar bilan qayta-qayta tekshirib ko'rishdi. O'shanda Muazzamni tekshirayotgan ko'zoynakli do'xtir-ning vahimali ovozda “Yo, tavba, buyog'i qanday bo'ldi?!” – degan gaplari hali ham qulog'im ostidan nari ketmaydi.

Qisqasi, o'shanda do'xtirlar Muazzamni uzoq tekshirishdi, o'zlaricha pichirlab, allanimalarni muhokama qilishdi. Keyin esa, haligi ko'zoynak-li do'xtir Muazzamga “Siz tashqariga chiqib tu-ring”, deya mening yolg'iz o'zimni olib qoldi.

Do'xtir kursiga o'tirarkan, menga ko'zoynagi ostidan g'alati qarab, Muazzam haqida so'rab-su-rishtirishga tushdi: u kimning qizi, ota-onasi, qarindosh-urug'lari kimlar... Xullas, do'xtir to'sat-dan shunaqa ko'p savollarni qalashtirib tashladiki, men javob berolmay, gangib qoldim. Buning usti-ga do'xtirning har bir savoli qandaydir qo'rqinchli tuyilganidan yuragim xavotirga to'lib borardi. O'shanda do'xtirning savollariga bilganimcha

javob berdim. Nihoyat, do'xtir Muazzamni Polvontepadagi Mahmud akaning qizi ekanini eshitgach, xuddi o'zini qiynayotgan jumboqqa javob topgandek, birdan ko'zlari chaqnab ketdi.

– Shuni oldinroq aytmaysizmi? – dedi u hovliqqan ko'yi. – Bo'ldi, bo'ldi, hammasi tushunarli.

Ammo men hech narsani tushunmay angrayib qolgan, qo'rquv va xavotir bilan do'xtirga qarab turardim.

Birozdan so'ng do'xtir menga yuzlanib, tag'in savolga tutdi:

– Siz uylanayotgan paytingizda hech narsani bilmaganmisiz?

– Yo'q, nimani bilishim kerak edi? – dedim jahlim chiqib.

– Ey, uka, o'zingizni bosing, – dedi do'xtir. – Avval yaxshilab so'rab-surishtirib, so'ng uylanish kerak edi. Bilsangiz agar, Mahmud akaning oilasi ro'yxatda turadi, farzandlarining bari ruhiy xasta bo'lib tug'ilgan. Tibbiyotda hali bu kasallikning da'vosi topilmagan. Bundan ham yomoni, bu kasallik suyak suradi. Shuning uchun bu kasallikning oldini olish maqsadida kasallikka chalingan o'g'il bolalar urug'sizlantiriladi, qizlarning esa onajoyi olib tashlanadi... Ulardan nasl qolmaydi...

Men do'xtirning xonasidan qanday chiqqanimni bilmayman, hushim o'zimda emas, butkul karaxt tortib qolganimdan boshim hech narsani idrok etmasdi. Ammo bunga qaramay eshik oldida toqatsizlanib, chiqishimni kutib turgan Muazzamga ko'zim tushishi bilan bazo'r jilmayishga urindim, biroq bir og'iz so'z qotishga tilim aylanmadi. Do'xtirning gaplarini qayta xayolimdan o'tkazarkanman, bo'g'zimga bir og'riq kelib qadalgandi. Ey Xudo, deyman ichimda, bu sho'rlik ayolni nega buncha qiynaysan, shuncha jabr-u sitaming yetmasdimi? Bu gapni eshitsa, u aqldan ozmaydimi? Endi uni qanday yupataman, nima deb ovutaman?!

Muazzam bilan jimgina uyga qaytdik. Yo'l bo'yi unga hech nima demadim. Ammo u bezovtalanib dam-badam yuzimga qarayvergach, axiyri sabrim chidamadi.

– Muazzam, – dedim atay xotirjam ovozda, – do'xtir aytdiki, ikkalamiz ham soppa-sog' ekanimiz. Faqat biroz davolanishimiz kerak. Shundan so'ng albatta, farzandli bo'lamiz.

Aka, Muazzam – ko'nglida g'ubor ham yo'q, go'dakdek sodda va ishonuvchan ayol, ayniqsa, mening gaplarimga hech qachon shubha-gumon bilan qaramaydi, nima aytsam, hammasini ro'y-rost qabul qiladi. Bu gal u ichimdan to'qib-bichib aytgan gaplarimga chippa-chin ishondi, birdan

chiroyi ochilib, yuziga qon yugurdi va qo'llarimni mahkam ushlab oldi.

Muazzamga hozirga qadar hech nima deganim yo'q. U dam-badam qachon davolanishga borishimni so'rab qoladi. Men esa hali uni, hali buni bahona qilib, atay orqaga tashlab kelayapman.

Aka, sizga aytsam, ba'zan o'zim ham bu sirni ichimga sig'dirolmay qolaman, yuragim to'lib ketganidan "dod" deb yuborgim keladi, kechalari o'ylab, uyqum qochib ketadi. "Ey Xudo, bu azobni qachongacha ichimda saqlab yashayman?!" deyman. O'zining tanidagi sirdan bexabar, hamon umid va ilinj bilan yashayotgan, Xudoga tinimsiz yolvorib, farzand ato qilishni so'rayotgan Muazzamni o'yilasam, dard-u alamim battar ortadi, dunyoga sig'may qolgandek bo'laman.

Bir kuni bu dardni ichimga sig'dirolmay yolg'iz o'zim yana haligi do'xtirning oldiga bordim-da, Muazzam hech qanday ruhiy xasta emas, soppa-sog' ekanini, ishonishmasa, qayta tekshirib ko'rishlarini aytdim.

Do'xtir mening gaplarimni diqqat bilan eshitdi, keyin xayrixoh ovozda gap boshladi:

– Uka, men hammasini yaxshi tushunib turibman. Ayolingiz ruhan sog'lom ekaniga ham ishonaman. Ammo bir paytlar qaysidir do'xtirning xatosi tufayli bechora ayolingiz bir umr baxtsiz bo'lib qolgan. Afsuski, endi bu xatoni tuzatishning umuman imkoni yo'q. Iltimos, meni to'g'ri tushuning, – dedi u.

Men dard-u dunyom battar qorong'i tortib, izimga qaytdim.

Aka, bunday o'ylab qaragam, bu dunyoda meni Muazzamdan, Muazzamning mendan bo'lak hech kimi yo'q. Shuni o'yilasam, unga mehrim yana-da ortib ketadi. Uni tashlab ketishni hech qachon xayolimga ham keltirmayman.

O'zi bu gaplarni shu choqqa qadar og'iz ochib hech kimga aytmagandim. Bugun negadir sizga yuragimni bo'shatib olgim keldi...

U shunday deya hikoyasini tugatdi va negadir aybdordek ko'zlarini jovdiratib menga qarab qo'ydi.

Uning so'zlari, o, yo'q, bular shunchaki oddiy, jo'n so'zlar emas, balki og'ir, dog'uli, iztirob va g'am-anduhga yo'g'rilgan, ayni damda nurli kechmish meni butkul ko'r-u karaxt qilib tashlagan, yuragim hayrat-u hayajonga to'lib borar, qarshimda boshini quyi solgancha o'tirgan, peshonasiga bitilgan qismat-u a'moldan zorlanmay-nolimay, buning uchun na dunyodan va na hayotdan biron-bir narsa ta'ma qilmay yashayotgan bu yigitga nisbatan ko'nglimda havas-u hayratim, hurmat-u mehrim tobora oshib borardi.

O'zbekiston xalq shoiri

**Omon Matjon:**

# **Ishq bilan Imonni** *idrok etdim men*



*Kitob do‘koni-  
ning boshqalaridan  
ajoyib farqi shuki,  
bu do‘konga har bir  
xaridor o‘z tarozusi  
bilan keladi.*

## *Ko‘z – topadi. Ba‘zan yarashadi ham!*

– Bolalar o‘t o‘ynashni, chollar o‘tga qarab  
xayol surishni yoqtirishadi. Ikki oraliqdagi-  
lar-chi?  
– Ularning hayoti o‘zi olov-ku!

*Ko‘zingni yum,  
o‘tmishingni ko‘rasan,  
lekin undan ko‘zingni  
yumma!*

Tabib tilingni ko‘rib,  
kasalingni aytgani  
qiziq...

*Hayot ajoyib o‘qituvchi:  
o‘zingga insho yozdira-  
di, o‘zingga tekshirtira-  
di, bahoni esa boshqa-  
lar qo‘yadi.*

*Bir  
do‘stim: “O‘zim-  
dan ham ko‘ra soyamni  
yaxshi ko‘raman”, degandi.  
Sababini hamon o‘ylayman:  
Hech narsa tama qilmay,  
umr bo‘yi izingda yurgani  
uchunmi?*





*Shoir qalbining xaritasida Soʻz,  
Tuygʻu, Rang va Imon bosh tomir  
boʻlishi kerak.*

Tabiat buyuk bir shoir ekan: yomgʻirni yerga  
ranglar kamalagiga solib otadi... Yerga  
oshiqayotgan har uchqun qorga gul solib ulguradi.  
U chindan ham buyuk! Shogird boʻlsam edi  
unga...

*Oʻzining qalbida bi-  
ror uchqun boʻlmasa,  
ustozi quyosh boʻlsa  
hamki, undan yorugʻlik  
chiqmogʻi gumon.*

Nega ipak qurti avval oʻzini ipakka  
burkab, keyin oʻladi? Umr boʻyi qilgan  
mehnatiga mukofotni oʻzi belgilaydi.

*Baʼzi narsalar oʻzini  
yaratgan sababiyatlar  
saqlanib tursagina goʻzal  
boʻlib koʻrinadi.*

*Baʼzilari oʻsha sababiyatlar  
yoʻqolib ketganida ham oʻz  
goʻzallini saqlab qoladi.*

Bu gʻurbat dashtidan nechuk oʻtdim men,  
Kimlarga ishonib jadal etdim men?!  
Izimga qarasam jilmayib turgan  
Ishq bilan Imonni idrok etdim men.

*Har bir shoir oʻz yuragining  
Kolumbi boʻlishi lozim.*

Xorazmda togʻlar yoʻq emas, bor!  
Xorazm togʻlari vohani tongda quyoshdan toʻsib qoʻymaslik  
uchun...

odamlar qiyofasida yashashadi!

– Xorazmiy,

Beruniy,

Shayx Najmiddin Kubro,

Zamaxshariy,

Pahlavon Mahmud,

Ogahiy,

Komiljon...





*F*arog'at  
XUDOYQULOVA

# Dunyoni tutmoqda yaproqlar hidi

## MUHABBATGA KO'M DILNI...

Hazrat Alisher Navoiy haykali poyida

*Ey, Farog'at, poklan sen, Navoiy poyini o'p,  
Meningdan kech, "men" deya zalolatga botgan ko'p,  
Tomiringda tomir otsin, avliyolar otgan cho'p,  
So'zga jon baxshida et, jonga so'z baxshida et.  
Dilim daryo desang-u, hayqirib oqolmasang,  
Oy nuridan so'z elab, chaqmoqdek chaqolmasang,  
Yuragingni har lahza ming karra yoqolmasang,  
Vatanimni sevaman, deganingdan nima naf?..  
Muhabbatga ko'm dilni, yolg'on dunyo chekinsin,  
Shuuringga kuy insin, ashklaringdan gul unsin,  
Olovga aylan, sachra, zarrangda tog' ko'rinsin,  
Xalq g'amin chek, g'amingni ko'targuvchi shu xalqdir.  
Xalqdirki – To'marisning qasosida tirilgan,  
Xalqqa bormoqqa abad Haq yo'lidan yurilgan.  
Yuzlarga hur Vatanning nasimlari urilgan,  
Sen uni ko'rinmagan yovlardan qo'ri, har on.  
Menam shoirman deysan, bunchalar oson deysan,  
Oybek tilga kirsay, "hayf" desa nima deysan?..  
G'afur G'ulom, Zulfiya yig'lasa nima deysan?..  
So'z uchun o'zingdan kech, so'z kechmay turib sendan...  
Ey, Farog'at, poklan sen, ulug'lar poyini o'p...*



\* \* \*

“Kitob – Toshkent” poyezdi jilar,  
 Havoda chayqalib ingranar ochun.  
 Kutishdan umid yo‘q,  
 Kuzatish o‘lim,  
 O‘zimni batamom unutganim chin.  
 Poyezd tutqichiga umrim shiddati  
 Osila-osila, uzilgan kezlar.  
 Yuragim yoshlari kiprigimgamas,  
 O‘tli relislarga tizilgan kezlar.  
 Na-da sevilmoqqa,  
 Na-da sevmuqqa,  
 To‘zg‘in xayollarim bermagan imkon.  
 Qo‘llarimdan ushla, yetakla zamin,  
 Nafas olmog‘imga yordam ber osmon.  
 Qor yog‘sa bitarmi  
 Qon oqqan yaram?..  
 Vokzal – ko‘zlarimday huvullab borar.  
 O, uning ketishi, so‘zsiz ketishi,  
 O‘quvsiz tabibdek ko‘ksimni yorar.  
 Shunda ham kutaman,  
 Lekin u haqda,  
 Biror kimsa xabar, bir so‘z aytmaydi.  
 Tushimda poyezdlar qaytar har sahar,  
 Lekin u hech qachon qaytmaydi.

### SHODA-SHODA BAXTDAN...

Mezon shamolida toblab hislarni,  
 Saxiy kuz yo‘l soldi chanqoq bog‘larga.  
 Yurtma-yurt uchirib moviy qushlarni,  
 Chinorlar qo‘l cho‘zdi azim tog‘larga.  
 Orzular qizardi anoryuz bo‘lib,  
 Umidlar joy oldi hilol yonidan.  
 Ariqlar oqdilar o‘pkasi to‘lib,  
 Olmalar rang oldi ko‘ngil qonidan.  
 Shoda-shoda baxtdan egildi shoxlar,  
 Bulutlar tashrifi endi g‘am bo‘lmas.  
 Ilhom buloqlari qaynagan mahal,  
 Noklardek to‘kilish – shoirga havas.  
 Dunyoni tutmoqda yaproqlar hidi,  
 Yulduzlar ko‘zida sirlil iymonish.  
 Bu oqshom, g‘arq pishgan satrlar aro  
 Zaminga viqor-la mamnun boqar qish...

### QADIMIY OHANG

Chaqmoqning hur qiziman,  
 Qanot berdi dovullar.  
 Har silkinsam, uyg‘onar  
 Mudroq bosgan ovullar.  
 Yorning qo‘li yetmagan  
 Taqim sochlarim – tovus.  
 Kiprigimda nur o‘ynar,  
 Oltin baliq, gul hovuz.  
 Tom boshida o‘ltirib  
 Osmonga otgandim so‘z,  
 Shamollarning labida  
 Pora bo‘ldi chanqovuz.  
 Bobotog‘ qirlarida  
 Payhon bo‘ldi lolalar.  
 Yorni yorga kuzatib,  
 Qilgandirman nolalar.  
 Suvda yongan shu‘lalar  
 Ko‘rpamga quroq bo‘ldi.  
 Yor keldi deb uyg‘onsam,  
 Tutganim firoq bo‘ldi.  
 Bulutlarning sochida  
 Arg‘imchoq uchdim, yorim.  
 Binafshaning bargidan  
 Chimildiq bichdim, yorim.  
 Sutday tiniq oqardi  
 Yoshligimning daryosi.  
 Qay tomon adashtirdi  
 Shamollarning dunyosi?  
 Ay dunyo, hur-hur dunyo,  
 Farog‘atim olding sen.  
 Ajab qildim, men sevib,  
 Ortda yolg‘iz qolding sen.  
 Ay dunyo,  
 Tutqun dunyo...

### LOLA SAYLI

Shamol chiqdi lola sayliga,  
 Qizardi yangi oy yuzlari.  
 Chashmalarning iliq suvida  
 Soch yuvadi qishloq qizlari.

Qonatarkan qirlar bag‘rini  
 Quyosh nurlarining sinig‘i.  
 Kechib o‘tar tog‘ tomon oqshom,  
 Loyqalanar suvning tinig‘i.

Bulutlarni panalab boqar  
 Oy aksidan qamashgan ko‘zlar.  
 Lolalarga qo‘shilib oqar  
 O‘n sakkizga kirmagan qizlar...

Ha, aniq bilaman, u aynan shunday yashashni allaqaysi kitoblardan o'qib-o'rganmagan yoki kimlardandir saboq ham olmagan, balki o'zining beg'ubor, sodda va samimiy qalbi bilan anglab yetgan, bundan hech qachon afsus-nadomat chekib, zorlanmagan, balki behalovat urib turgan yuragi faqat shundan taskin topayotgan edi.

Men yana shuni aniq bilamanki, ko'ngli g'ayr kimsalar ko'zlari to'rt bo'lib qanchalik kutmasin, u hech qachon Muazzamni tashlab ketmaydi, balki bu dalli-devona qizni muqaddas yalov kabi boshi uzra ozod ko'tarib yashaydi, bu qarimsiq dunyoda u o'zining yelib-yugurib, talpinib-intilib topgan baxt-u quvonchini ham, o'kinch-u armoni va umrining mazmun-mohiyatini ham shunda deb biladi.

Men ana shunday xayollarga g'arq bo'lganicha Ibrohimga uzoq tikilib qoldim. Bir chog' u kutilmaganda, o'rnidan qo'zg'alib, ketishga chog'landi.

– Aka, – dedi u jilmayib, – men endi uyga boray. Biznikiga ham mehmonga o'ting.

– Rahmat, nasib bo'lsa, o'tarman, – dedim men shoshib.

U xayr-xo'shlashgach, toshyo'l bo'ylab Polvon-tepa qishlog'i tomon ketdi.

Men uning ortidan qararkanman, tuyqus yana sen yodimga tushding va sening ismingni iztirob va armon bilan shivirlab takrorladim, ismingni takrorlay turib, yuragim nohaq tanbeh eshitgan yetim boladek o'ksib ketdi: taqdir shu doli-g'uli yigitni siylagan, uning umr yo'lini bezab tashlagan, ko'nglini quvonch-u umidga to'ldirgan baxtni nega menga ravo ko'rmadi?!

Yana sening ismingni muqaddas bitikdek ehtiros va hayajon bilan takrorlarkanman, hamma-hammasi qayta yodimga tushdi-yu, birdan ruhim, o nafaqat ruhim, balki butun jism-u jussam iztirob-u alam ichida qoldi. Va ayni damda o'zimni shunchalik noshud, notavon va o'jiz his etdimki, alam o'ti vujudimni o'rab-chirmab olganidan o'zimni qo'yarga joy topolmay qoldim. Ruhim qaqshab ketgan, yuragim alam-u iztirobga to'la, go'yo yer bilan bitta bo'lib o'tirardim.

Ehtimol, o'shanda jur'at-u shijoat topib, qalbimni tinimsiz o'rtayotgan, inon-ixtiyorim, xohish-u irodamni butkul o'z izmiga solib olgan bu o'jar va shafqatsiz tuyg'ularga seni ham ishontirganimda, tilsimlangan qalbingga adashmay yo'l topganimda qismat-u a'molim boshqaga kecharmidi?!

Qirq yildan buyon yuragimni bosib yotgan va tinimsiz iztirobga solayotgan bu dard qachon intiho topadi, tilsimlangan bu qo'rg'onning eshik-

lari qachon ochiladi?! Yana qancha payt bu o'jar tuyg'ular o'z holimga qo'ymay hayotning qorong'i va qo'rqinchli so'qmoqlarida sarson-sargardon adashtirib yuradi?!

Nahotki, mening murod-u muddaom hech qachon hosil bo'lmaydi, umid-u ishonchim bahorgi chechak kabi gurkirab ochilib, bo'y ko'rsatmaydi, yuragim quvonch-shodlikdan entikib, sarg'aygan yuzim yorishmaydi?

Nahotki, umrimning so'nggi nafasigacha yo'llaringga umid va ilinj bilan ko'z tikib o'tarman?! Yuragimni shafqatsizlik bilan tinim bilmay kemirayotgan bu dard-u iztirob, g'am-g'ussa va armon-u o'kinchning adog'i bormi?!

Men toshyo'ldan tobora uzoqlashgan sari kichrayib borayotgan Ibrohimdan ko'z uzmay turarkanman, yana sening ismingni shivirlab takrorladim va yana iztirobli xotiralar yodimga tushdi.

\* \* \*

O'shanda men hali bu tuyg'ular qalbimda makon tutmagan, hayotim tinch va osuda kechayotgan kunlarning birida g'aroyib tush ko'rgandim. Tushimda zim-ziyo tun qo'rida yolg'iz o'zim yelkamda tobut orqalab allaqayoqqa ketib borayotgan emishman. Tobut shunchalik og'ir, zil-zambil ediki, tobora yelkamdan bosib kelar, oyoqlarimni sudrab, bazo'r qadam tashlardim. Buning ustiga tobutning vahimasidan qattiq qo'rquvga tushgan, qo'l-oyog'im tinimsiz qaltirar, jism-u jussamdan sharros ter yog'ilib kelardi. Men bu azobga chidayolmay kimnidir yordamga chaqirish uchun atrofimga alanglab qarar, ammo tevaragimda biron-bir tirik jonning qorasi ko'rinmasdi. Men zulukdek qop-qora tun qo'rida tobutni yelkalab ketib borar, ammo yo'lning adog'i ham ko'rinay demasdi. Buning ustiga tobut ichida kim yotganini ham, uni orqalab qayoqqa olib borayotganimni ham bilmasdim.

Bu qo'rqinchli tush uzoq davom etdi, so'ng tunning allaqaysi pallasida qop-qora terga botgan ko'yi vahm bilan uyg'onib ketdim. Men ko'rgan tushimdan qattiq qo'rquvga tushgan, to'shakda qimir etishga majolim yetmay yotardim. Bu tush haqida o'ylagan sayin yuragim battar qo'rquv va vahimaga to'lib borar, nazarimda, erta yo'lin hayotimda qandaydir falokat ro'y beradigandek tuyilardi. Men o'zimcha bu tushning ta'birini turli xil narsalarga yo'yar, ammo hech qaysidan ko'nglim taskin topmasdi.

Shundan buyon ko'p tushlar ko'rdim, ammo ular qanchalik sirli va g'aroyib bo'lishiga qaramay,

barini tezda unutib yubordim, ammo bu tush xotiramda shunday mahkam o'rnashib qolgandiki, har qancha urinmay baribir uni unutilmasdim.

O'sha damda bu tush fikr-u xayolimni butkul band etib olganidan tanishlarimdan uning ta'birini so'rab-surishtirar, qadimgi kitoblarni titkilab o'zimni qiynayotgan savollarga javob izlardim, ammo ko'nglimni qoniqtiradigan biron-bir jo'yali fikr topa olmasdim.

Faqat bir gal eski shahardagi kitob do'konida tasodifan oppoq soqoli ko'ksini qoplagan bir chol bilan suhbatlashib qoldim va unga ham tushimni aytib berdim. Chol gaplarimni diqqat bilan eshitgach, negadir uzoq o'ygacha tolib qoldi. Keyin xo'rsingandek, og'ir tin oldi-da: – Bu tushning ta'birini izlab ovora bo'lmang, – dedi u, – baribir topolmaysiz. Tushning ta'bi umringiz qatida yashirib qo'yilgan. Umringiz o'tgan sayin tushning ham ta'bi ayon bo'lib boraveradi. Yana yaratganning o'zi barchasini bilguvchidir...

Chol boshqa hech narsa demadi, nazarimda, u birdan ma'yus tortib qolgan, yuzi va ko'zlarini allaqanday tushuniksiz ifoda qolab olgan edi. Keyin esa, u menga e'tibor bermay qo'ydi, biroz muddat o'zicha allaqaysi kitobni titkilab turdi-da, kutilmaganda indamay-netmay do'kondan chiqib, odamlar orasiga singib ketdi.

Rosti gap, cholning allaqanday sirli so'zlari, o'zini tutishi meni battar qo'rquvga solib qo'yan, ko'nglim g'ash tortib, hamma narsaga cho'chib qaraydigan bo'lib qolgandim.

Shundan so'ng har gal bozorga borganimda odamlar orasidan o'sha cholni izlar, ba'zan do'konlarga bir-bir bosh so'qib chiqardim, ammo uni hech qayerda uchratmadim.

Qisqasi, men ana shu tush ta'sirida yurgan kezlarim sening dorilfununga o'qishga kirganingni eshitib qoldim va ilgaridan tanish ekanimiz, bitta qishloqda o'sib-ulg'ayganimiz haqqi-hurmati sendan shunchaki hol-ahvol so'rash maqsadida oldingga borgandim. Sira yodimdan chiqmaydi: aftidan, sen hali bu sershovqin va halovatsiz shaharga ko'nikolmay qiynalanganingdan toqatsizlanib turgan ekansan, shekilli, menga ko'zing tushishi bilan birdan suyinib ketgan, u yoqdan-bu yoqqa yugurganicha o'tirg'izgani joy topolmay qolgandim. Sen xuddi yo'qotgan qo'g'irchog'ini kutilmaganda, topib olgan qizaloqdek, quvonib ketgan, ko'zlaring zavq bilan boqar va menga mehring toblanib qarab-qarab qo'yarding.

O'shanda sening hali shaharning nuqsi-nafasi urmagan buloq suvidek tiniq yuzing, sodda va samimiy gap-so'zlaring, egningdagi odmigina

ko'ylaging, sochlaringni uquvsizlik bilan turmaklashing, umuman, butun borlig'ing dafatan menga o'zim doimo sog'inib, qo'msab yashagan olis qishloqni yodimga solib yuborgan, senga zavq bilan qararkanman, yuragim orziqib ketgan edi.

O, yo'q, sen xuddi ovchi ta'qibidan qochib, kutilmaganda, shaharga kelib qolgan, ko'zlari jovdirab, hamma-hamma narsaga qo'rquv bilan hurkak nazar tashlayotgan ohuga o'xsharding, qarshingda yastanib yotgan va seni betinim bag'riga chorlayotgan bezab-bejalgan, yaltiroq, o'zing ilgarigi ko'nikkan tabiiy va sokin hayot oqimiga mutlaqo o'xshamagan shaharga xavotir va hadik bilan qarab turarding.

O'shanda men sening torgina xonangda buloq suvi singari tiniq qalbingdan otilib chiqayotgan so'zlaringni tinglab, uzoq vaqt rohatlanib o'tirdim. Keyin esa, men ketishga chog'langach, sen xuddi mehribon singlimdek izimdan ergashib, katta ko'chagacha kuzatib chiqqan va tez-tez kelib tur-ring, deya qayta-qayta tayinlagan eding.

Men dorilfununning orqa tomonidagi mahallada joylashgan kaftdek ijara uyimga qaytarkanman, go'yoki uzoq yillardan buyon o'zim anglamagan holda izlab yurgan, gohida xayolimning olis o'ngirlarida ko'rinish berib o'tgan, hali o'zim ham nomini tuzuk-quruq bilmagan muqaddas narsamni dafatan topib olgandek, yuragim hapqirib urar, sening boyagi kulib qarashlaring, sodda, samimiy so'zlaring xayolimdan sira ketmasdi. O'sha oqshom sen haqingda o'ylarkanman, yuragimga yoqimli iliqlik oqib kirib, asta-sekin butun vujudimga yoyilayotganini his etgandim. Bu shunchalik qudratli, rohatbaxsh va yoqimli tuyg'u ediki, u asta-sekinlik bilan butun jism-u jussamni mahv etib borardi. O'sha tun tongga qadar ko'zimga uyqu kelmadi va ilk marta hayajon bilan sening ismingni shivirlab takrorladim.

\* \* \*

To'g'risi, avvaliga men bularning bari shunchaki o'tkinchi xomxayol, deb o'ylab, tan olishni sira istamagan va hatto o'sha tunda allaqanday yengiltaklik bilan ehtiros-u hayajonga berilganimni o'ylab, o'z-o'zimdanda uyulib ketgandim. Keyin esa, bu haqida ortiq o'ylamaslikka, o'zimni boshqa narsalar bilan chalg'itishga, oxir-oqibat hammasini esdan chiqarishga urindim.

Ammo kunlar o'tgan sayin negadir xayollarim to'zg'ib, o'zim anglamagan holda beixtiyor sen haqingda o'ylaydigan, hatto ba'zan sog'inib,

qo'msaydigan bo'lib qoldim. O, yo'q, men butun vujudim bilan qanchalik tan olishni istamay bari-bir yuragimni allaqachon zabt etib olgan bu o'jar tuyg'ular junbisha kelib, tinimsiz sen haqingda o'ylashga va ismingni shivirlab takrorlashga undardi. O'shanda arzimas narsalarni ham vaj qilib, dovdiragancha sening oldinga borishimni, alahsi-ragandek, allanimalar haqida uzoq gapirganimni eslasam, hozir ham xijolatga tushganimdan o'zimni qayerga qo'yishni bilmay qolaman.

Bu – o'shanda sening bilganlaring, bilmaganlaring esa, tunlari daraxt yoki butaning ortida bekinib, sening uchinchi qavatdagi sarg'ish nurga chulg'angan derazangga tikilar, go'yo sen hozir derazadan qarab qoladigandek, yuragim hayajonga to'lib, ko'z uzmay turardim. Odatda, sen tun allamahol bo'lgan, atrofnii quyuuq qorong'ilik qoplagan mahal xonang chirog'ini o'chirib, uyquga ketarding. Men ham sekin o'rnimdan qo'zg'alib, ijara uyimga yo'l olardim. Men har tunni shunday o'g'ridek po'sib o'tkazar, ba'zan ziyoga chulg'angan derazangga tikilib tongga qadar qolib ketardim.

O'shanda meni bir narsa qattiq hayratga solgan: chamasi, sen o'zingni kimdir yashirincha kuzatib turgani, nigohi bilan tinimsiz ta'qib etayotganini zohiran sezarding shekilli, ba'zan kutilmaganda bezovta tortib, shoshganча, deraza tabaqasini ochar va kimnidir izlaganча alanglab, tun qar'iga uzoq tikilib qararding.

Buni ko'rib, men azbaroyi cho'chib ketganimdan shosha-pisha daraxt ortiga yashirinar va hatto nafas olishga jur'atim yetmay qolardi. Ba'zan esa, tun bo'yi derazang qilt emas, tikilaverib ko'zlarim tolib ketardi.

O'shanda o'zimni butkul izm-u ixtiyoriga solib olgan, bir dam hol-jonimga qo'ymayotgan bu tuyg'ularni senga aytishga ko'p marta chog'langan, hatto nimalar deyishni oldindan o'ylab, xayolimda pishitib qo'ygan, biroq bunga hech qachon jur'atim yetmasdi. Har safar sening oldinga yo'l olarkanman, tuni bilan qayta-qayta xayolimdan o'tkazgan o'ylarni bugun albatta, aytaman, deb ko'nglimdan kechirar, hatto bu juda oson va yengil tuyular, ammo senga ko'zim tushishi bilan birdan xayolim ostin-ustin bo'lib, to'zgi'ib ketar, boshim hech narsani idrok etmay dovdirab qolardim. So'ng esa, xayolimga kelgan butunlay boshqa narsalar haqida aljiragan ko'yi gapirar va oxir-oqibat bo'shshaganча izimga qaytardim.

O'shanda necha marta sening oldinga qat'iyat va ishonch bilan yo'l olganimni, ammo har gal bo'shshab, shalviragan ko'yi izimga qaytganimni bugun sanab adog'iga yetolmayman. Oxir-oqi-

bat esa, sening yuzingga qarab turib, yuragimni o'rtayotgan bu tuyg'ularni ochiq-oshkor aytishga hech qachon jur'atim yetmasligiga, har safar ayni shu holat takrorlanishiga ko'zim yetgach, oddiygina xat yozishga ahd qildim. Nazarimda, eng oson va qulay yo'li ham xat yozish edi. Ammo o'shanda bor-yo'gi to'rt so'zdan iborat xatni, ishonasanmi, yuz marta o'chirib, yuz marta qayta yozdim. Har gal xatni yozib bo'lgach, kutilmaganda, senga nimasidir yoqmay qoladigandek tuyular va darrov uni yirtib tashlab, yangisini yozishga kirishardim.

Keyin, o'sha kun kechga tomon xatni avaylab tumor singari buklab, cho'ntagimga soldim-da, sening oldinga oshiqdim. Sira yodimdan chiqmaydi: o'sha pallada go'yoki qismat-u a'moli hal bo'ladigan kimsadek, qo'l-oyog'im o'zimga bo'ysunmay tinimsiz qaltirar, azbaroyi hayajonga tushganimdan peshonamdan sharros ter yog'ilib kelardi.

O'shanda meni hayrat-u taajjubga solgan narsa shundaki, sen men uzatgan xatni hayron ham bo'lmay, biron-bir so'z ham qotmay indamaygina olding, faqat kutilmaganda yuzing birdan qip-qizil tortib ketdi, menga uyaliygina qararkansan, negadir sirli jilmayib qo'yding. To'g'risi, o'shanda men yuragim xavotirga to'lib, buning mutlaqo aksini kutgan, sen xatni ko'rishing bilan ko'zlaringni katta-katta ochib hayron bo'lishing, so'ng nima gap ekanini anglagach, birdan jahling qo'zib ketishi, hatto azbaroyi diling og'riganidan yuzing-ko'zing demay haydab solishing, haligi maktubni esa burda-burda qilib yirtganча yuzimga otishingni o'ylab, cho'chib turgandim.

Ammo sen xatni indamay olib, egningdagi xalating cho'ntagiga solib qo'yganingni ko'rib, ko'nglim birdan xotirjam tortdi, hatto quvonchdan yuragim entikib ketgandek bo'ldi.

Faqat shundan so'ng o'rtamizda og'ir sukunat tushdi, biron-bir so'z qotishga na sening va na mening jur'atim yetmas, go'yoki ikkalamiz ham tubsiz o'y-xayollarga g'arq bo'lib qolgandek edik. Oradan imillab qanча vaqt o'tganini bilmayman, axiyri, mening sabrim chidamadi, ketishga chog'landim.

– Men endi boray, keyin kelaman, – dedim men. – Yaxshi qoling.

– Mayli, – deding sen jilmayib. – Yaxshi boring.

Men ko'chaga chiqqach, xuddi yelkamni bosib turgan zil-zambil yukdan xalos bo'lgandek, birdan yengil tortgan, ko'ksimni to'ldiraganча yutoqib nafas oldim. Keyin e'tibor bersam, boya sening oldingda azbaroyi hayajonga tushganimdan, shunday ter bosgan ekanki, ko'yलगim nam tortib

ketibdi. O'sha damda men o'zimni go'yo hayotning qaltis va xatarli sinovidan omon-eson o'tib olgan kimsadek, yengil his etar, kayfiyatim chog', ko'zimga hamma-hamma narsa chiroyli va yoqimli ko'rinar, azbaroyi quvonganimdan lab-lunjimni yig'ishtiro olmay yo'ldan o'tib-qaytayotgan odamlarga nuqul kulib qarardim.

Keyinchalik men sening xatni olayotgan paytdagi holating, yuz-ko'zlaringda qalqib chiqqan ifodalar haqida ko'p o'yladim, xayolan qayta-qayta tahlil-u mushohada qildim va oxir-oqibat shunga amin bo'ldimki, sen hamma-hammasini – mening ahvol-ruhiyam, xayolimni band etib olgan o'y-fikrlar, o'zingga ipsiz bog'lanib qolganim, kecha-yu kunduz faqat seni o'ylab yashayotganimni allaqachon sezgan va kunlardan bir kun qarshingga kelib, hayajonga tushganimdan go'dakdek dovdiragancha barcha-barchasiga iqror bo'lishimni zimdan kutib yurgansan. Sening o'sha damdagi holating, o'zingni tutishing va yuz-ko'zlaringni qoplab olgan ifodalarni bundan boshqacha izohlab bo'lmaydi, hamma-hammasi sen bu sirdan allaqachon voqif bo'lganing, hatto bunday hayajonli damda shoshib, o'zingni yo'qotib qo'ymaslik uchun ruhan hozirlik ko'rganingdan darak berib turardi.

Ha, shunday, bundan boshqacha bo'lishi mumkin emas. Agar sen bu sirdan bexabar bo'lganingda, hech qursa, xatni ko'rgan zahoting ajablangan ko'yi bu nima, deya so'ragan bo'lar, hatto izzat-nafsing tahqirlangandek, birdan jahling chiqib, arazlagan ko'yi ketib qolarding. Sen esa, xatni ko'rib, sira ajablanmading, hayron bo'lib, taajjubga ham tushmading, aksincha, barchasi risolada shunday bitilganini bilgandek, iymajibgina xatni olding-da, cho'ntagingga solib qo'yding.

Demak, sen ham uzoq paytdan buyon yuragining hayajon-u orziqishga to'lib shunday xushsodat damlarni kutib yurgan, yolg'iz qolgan kezlarda tubsiz xayollarga berilgan, xuddi men seni har daqiqada o'ylaganim kabi sen ham men haqimda o'ylab yurgandirsan. O'sha kun men ketgach esa, sen ham nihoyat niyating ijobat bo'lganidan quvonchingni ichingga sig'dirolmay yugurgilab xonangga kirgan va shosha-pisha xatni o'qishga tushgandirsan. Bularning bari mening taxmin-u farazlarim, o'sha kun xatni olgach, ko'nglingdan nimalar kechgani, xayolingni qanday o'ylar band etib olganini bilmayman.

Harqalay, nima bo'lganda ham, o'sha kun men xuddi qismat kutilmaganda saxiyligi tutib, yo'lini ochgan va armon-u o'kinchi barham topib, murodi hosil bo'lgan kimsadek, baxtdan butkul sarmast

edim, xayolimni sening xatni olayotgandagi holating, iymajibgina jilmayishing band etib olgan edi.

O'sha tun allamahalgacha uxlamadim, sen haqingda o'yladim va ismingni shivirlab, qayta-qayta takrorladim.

\* \* \*

O'shanda oradan roppa-rosa bir hafta o'tgach, men yana umid va ilinj bilan yana sening oldinga yo'l oldim: bu gal mening ko'nglim ancha xotirjam tortgan, hatto sen meni ko'rishing bilan birdan suyunib ketib, mehr bilan qarshi olishingga qattiq ishonib turardim.

Biroq sen menga ko'zing tushishi bilan go'yoki allanimadan sarosimaga tushgandek, birdan bezovta tortib qolding, shosha-pisha nigohlaringni dib qocharkansan, yaxshimisiz, deya shunchaki nomiga mulozamat qilgandek bo'lding. Nazarimda, seni nimadir qattiq xavotirga solib turar, xayoling ham o'zingda emas, butkul tinchingni yo'qotib, bezovta tortib turarding. Seni bunday ahvolda ko'rib, mening ham yuragimga xavotir oraladi, ammo nima bo'ldi, deb so'rashga botinolmadim. Ammo tezda sening holating o'zgardi, yuzingdagi boyagi sarosima-yu xavotir o'rnini birdan allaqanday kibrli va bepisand ifoda egallab oldi, sen go'yoki o'rtamizda hech narsa bo'lmagandek, o'zingni o'ta beparvo va loqayd tutar, istamaygina gapirar, ba'zan zo'raki jilmayib qo'yar, ko'zlaringda esa, allaqanday mahvum ifoda sharpalari suzib yurar, ulardan biron-bir ma'noni uqib bo'lmasdi. Men senga qarab turib, kecha yonoqlari loladek qip-qizil tortib qarshi olgan, qarashlaridan mehr, ibo va hayo yog'ilib turgan qizni topolmadim, oradan o'tgan bir hafta ichida nimalar ro'y berganini bilmayman, ammo sen birdan o'zgarib, go'yoki boshqa odamga aylanib qolganding. Sen meni qanday maqsadda kelganim, murod-u muddaom nima ekanini juda yaxshi bilar, biroq bila turib, o'zingni atay go'llikka solib turgandek, butunlay boshqa narsalar haqida gapirarding.

Yo'q, yo'q, sen go'yoki mening sabr-toqatim, shijoat-u irodam va qurb-u quvvatimni sinab ko'rayotgandek, umuman boshqa narsalar haqida allaqanday ezmalangan ko'yi gapirar va gaplaring ohangida ich-ichingdan masxara-yu mayna qilib, kulib o'tirganing sezilib turardi. O, yo'q, sen mening yuragimdagi sir-asrorni bilib olgach, endi shaddodlik va quvlik bilan ustimdan kulib o'tirganga o'xsharding.

Men o'zimni bunday alfozda kutib olasan, deya mutlaqo kutmagan edim, shundan umid-u ishonchi kutilmaganda sarobga aylangan kim-

sadek tuyquq dovdirab qolgan, qarshingda o'ta ojiz va nochor ahvolda o'tirardim.

O'shanda sening og'zingga mahtal bo'lib termilganicha qancha vaqt o'tirganimni bilmayman, ammo sening yuz-ko'zingni qoplab olgan o'sha sovuq va kibrli ifoda o'zgaray demas, nigohingda zig'ircha bo'lsa-da, mehr-shafqat uchuqunlari ko'rinmas, istamaygina gapirar, aftidan, ich-ichingdan meni tezroq ketishimni kutib turarding. Axiyri, sabr-toqatim chidamadi, senga yolvorgandek iltijoli qaray-qaray ketishga chog'landim. Sen esa, ilgarigidek "o'tiring, borarsiz-da, qayerga shoshasiz", deya iltifot ham qilmading, aksincha, ketayotganimni ko'rib, yuzingda birdan mamnunlik ifodasi yugurib, yengil tortgandek bo'lding.

– Mayli, yaxshi qoling, – dedim men o'kinch bilan.

– Yaxshi boring, – deding sen istamaygina.

Ketdim, umidsizlik va tushkunlikdan yuragim vayron bo'lib ketdim.

O, hozir ham bu haqida o'ylasam, azbaroyi umidsizlikka tushganimdan yuragim muzlab, butun vujudim sovuq tortib ketgandek tuyiladi, o'shanda sening mavhum va sirli ifodalar sharpsi suzib yurgan yuzingga, ko'zlaringga qarab turib, o'zimga nisbatan na mehr-shafqat va na rag'bat-u xayrixohlik ko'rgan, sening kiprik qoqmay kibrli va bepisand qarashlaring yuragimdagi xuddi bahorgi maysa kabi mavj urib o'sib jo'nagan umid-u ishonchimni bir zumda yakson qilib tashlagan, nazarimda, sen nigohing bilan xuddi sen kimsan-u men kimman, ko'rpangga qarab oyoq uzat, deb aytayotgan eding.

O'sha kun yuragim alam va o'kinchga shunchalik to'lib ketgandiki, o'z yog'imga o'zim qovurilganicha endi sen haqingda hech qachon o'ylamaslikka, ismingni qayta tilga olmaslikka, hamma-hammasini unutib yuborishga o'z-o'zimga so'z bergandim.

“To'g'ri-da, – deya alam bilan o'ylaganman, – men kimman-u u kim?! Men bazo'r kunini ko'rib yurgan qashshoq va nochor odamman. Dorilfununda saboq olishim hali hech narsani anglatmaydi. Men shunchalik nochormanki, uni boyvuchchalar tanda qo'yib olgan anavi shohona qahvaxonalarga taklif etishga, ko'rgan ko'zni yondiradigan tilla-yu durlar bilan siylashga, hatto o'rni kelganda bir quchoq gul tuhfa qilishga ham qurbim yetmaydi. U buni juda yaxshi biladi va shuning uchun taqdirdan mendan ko'ra boy, omadli, og'zidan chiqqanini bir zumda muhayyo qilishga qodir, hamisha malika singari kaftida

ko'tarib yuradigan yigitni kutayotgandir. Ehtimol, u meni hech qachon nazariga ilmagan, hamisha bepisand qaragan, shunchaki tanishligimiz uchun o'lganning kundan muomala-yu murosa qilgan, har gal quvonchdan o'zimni yo'qotib qo'yganicha oldiga borganimda sirtidan jilmayib o'zini xushnud ko'rsatgan bo'lsa-da, aslida ich-ichidan ustimdan kulgandir”.

Men ana shunday sovuq va noxush o'ylarni xayolimdan o'tkazarkanman, tobora tushkunlik girdobiga g'arq bo'lib borar, ich-ichimdan o'zimni yomon ko'rib ketar, ko'nglimdagi hammasiga qo'l siltab, seni butkul unutib yuborish, ismingni hech qachon qayta tilga olmaslik haqidagi fikrim tobora qat'iy tortib borardi.

Men bir hafta, nari borsa, o'n kun o'z-o'zim bilan ana shunday ayovsiz olishib yurar, o'zimni butkul boshqa narsalar bilan chalg'itishga urinar va hatto ismingni qayta tilga olmayman, deya qasam ichardim. Ammo men butun vujudim bilan sen haqingda o'ylamaslikka, nomingni tilga olmaslikka qanchalik urinmay bari bir oxir-oqibat qurb-u quvvatim va irodam qalbimni tinimsiz o'rtayotgan o'jar va sarkash tuyg'ular qarshisida ojiz qolardi, so'ng o'z-o'zidan xayolimga yana sening yoding bostirib kirar va beixtiyor yana ismingni shivirlab takrorlashga tushardim.

O, sen bamisoli afsungarga o'xsharding, mening ko'nglimda tinimsiz g'alayon ko'tarayotgan tuyg'ularni, xayolimni band etib olgan o'y-fikrlarni, o'zingga butkul ipsiz bog'lanib qolganim, bugun eshigingdan quvib solsang, ertaga bari bir hech narsa bo'lmagandek, yana boshimni egib, qaytib borib marhamat-u inoyat so'rashimni juda yaxshi bilarding. Shuning uchun sen xuddi ertaklardagi qahri tosh qotgan malika singari shafqat-u iltifot, mehr va marhamat ko'rsatishni, qalbing eshiklarini ochishni hech qachon xayolingga keltirmas, meni atay qiynash, yuragimni azobga solish uchun pinak buzmay turarding.

O, sening sir-sinoat to'la ko'zlaringga qaragan sayin yuragimdagi olov battar alanga olar, sening hech qursa bir marta marhamat-u e'tiboringga sazovor bo'lish, mehr-u muhabbat va ishonchingni qozonish uchun hamma-hamma narsaga tayyor mute va notavon bir kimsaga aylanib qolgandim.

O, sen aql ham idrok etolmaydigan qanday sirli va joduli xilqatsan, nega inon-ixtiyorim, jur'at-u shijoatim, qurb-u irodamni butkul mahv etib, qo'l-oyog'imni ipsiz bog'lab tashlading?!

O'sha paytda nazarimda, yer shunchalik tosh qotgan, osmon esa, shunchalik uzoqlashib ketgan ediki, sening shafqatsiz nigohlaringdan qochib

yashirinishga, ko'zlaringga hech qachon ko'rinmaslikka biron-bir imkon topolmasdim.

Buning ustiga o'sha damda men o'zimni butkul yo'lini yo'qotib, arosatda qolgan kimsadek his etar, yurak yutib, sening oldingga borishga ham jur'atim yetmas, shuning barobarida seni ko'rmasam ham turolmasdim.

\* \* \*

O'shanda tumordek kichkina xatim qorong'ilik qa'riga otilgan toshdek, izsiz ketgan, ko'nglimni qoplagan shubha-gumonlar ta'sirida qanday yo'l tutishni bilmay butkul gangib yurgan bo'lsam-da, keyinchalik senga yana ko'plab xatlar yozdim. Bu xatlar dugonang orqali sening qo'lingga yetib borayotganini bilardim, ammo sen ularni o'qiganing yoki ko'zing tushgan zahotiy oq asablarining chatnab ketib, azbaroyi jahling chiqqanidan yirtib-yirtib axlat qutiga tashlab yuborganingni bilmasdim.

Kim biladi, balki sen yolg'iz qolganingda hech kimga sezdirmay pinhona bu xatlarni takror va takror o'qigan, mening o'tli so'zlarim, iqrору o'tinchim sening ko'ngling torlarini mayin chertib o'tgan va sen ham vujudingni cho'lg'ab olgan tuyg'ularning jilvakor raqsidan mast-u mustarig' bo'lib, cheksiz xayollarga berilgan, hatto dafatan ko'nglingda uyg'ongan shafqat tufayli menga rahming kelgan, shunga azob-uqubat, jabr-sitam yetkazganingdan pushaymon bo'lib, ko'zingga yosh ham olgandirsan.

Kim biladi, ehtimol, sen xuddi ertaklardagi malika singari ming bitta shart qo'yib, mening mehr-u muhabbatim, irodam va sabr-toqatimni obdan sinab ko'rayotgan, hamma vaqt o'zingni atay beparvo va bepisand qiyofaga solib ko'rsatgan, aslida esa, behalovat urayotgan yuraging butunlay boshqa narsalarni aytayotgandir.

O, sening qalbingda qanday sirli va nozik tuyg'ular kezinayotgani, mas'um xayolingni qanday o'ylar band etib olganini qani endi bilsam edi. Hayotimda eng ushalmas orzu-armon o'shanda ham, hozir ham, sening xuddi tilsimlab tashlangandek, sirli qalbingga bir qur nazar tashlash edi...

Nahotki, menga bu baxt hech qachon nasib etmaydi?!

\* \* \*

Uch yil umrim ana shunday arosat ichida kechdi, na sen iltifot-u marhamat ko'rsatib, zada tortgan ko'nglimni quvontiradigan bir gap aytding va na men ahd-u iqrорimdan tonib, hamma-hammasiga qo'l siltagancha boshimni olib ketdim.

Uch yil umrim ana shunday tushkun va umidsizlik girdobida g'arq bo'lib o'tdi, mening murod-u muddaom, ahd-u ishonchim va umidim xuddi havoda muallaq qotgan shardek lopillab o'ynar, bevaqt qo'zg'algan shamol yoki dovul uni chilpirrak qilib aylantirgancha allaqayoqlarga uchirib ketishi tayin edi. Aslida men ham shundan qo'rqr, shuni o'ylab, doimo xavotir va hadik ichida yuragimni hovuchlab yashardim.

Men oradan ko'p yillar o'tgach, bu haqda qayta-qayta o'yladim va o'shanda sening qalbingda umid-u ishonch uyg'otgancha, qo'llaringdan tutib o'zim tasavvurimda yaratgan sirli dunyoga boshlab kirishga, sening o'ta noziklik bilan urayotgan yuraging sas-sadosi, talpinishini anglab yetishga aql-u shuurim, quvvai hofizam o'zlik qilgani, shubha va badgumonlikning chilvir to'ridan xalos bo'lolmay ko'zlarim butkul so'qir bo'lib qolganiga dafatan iqrор bo'larkanman, yuragim birdan o'kinch-u armonga to'lib ketar, jism-u jussamni alam o'ti o'rab-chirmab olganidan o'zimni qo'yarga joy topolmay qolardim, ba'zan tunlari azobli o'ylar qurshovida to'shakda to'lg'onib chiqardim.

\* \* \*

O'shanda hammasi qora sharpaning ijara uyimga kutilmaganda kirib kelishidan boshlandi.

Shahar kech kuz og'ushida yashar, daraxtlar yoppasiga yaproqlarini to'kkan, yo'lak chetlarida xazonlar uyilib yotar, oqshomgi izg'irin etni junjiktirib yuborardi. Daraxtlarning baland shoxida qo'nib olgan qarg'alarning noxush qag'illashi sovuq kunlar kelayotganidan darak berib turardi.

Men kechki payt odatdagidek, ijara uyimda yolg'iz o'zim, hozir aniq eslay olmayman, allaqanday kitobni hafsalasiz varaqlab o'tirgandim. Shu chog' kutilmaganda, ko'cha eshigini kimdir taqilatgandek bo'ldi. Men shoshib uydan chiqdim va eshikni ochdim: ostonada qora sharpa turardi. Unga ko'zim tushib, rosti gap, birdan ajablandim, ko'nglimdan bemahalda nega kelibdi ekan, degan o'y kechdi.

To'g'ri, men uni ilgari tanirdim, biz, u garchi qo'shni qishloqda yashasa-da, bitta maktabda o'qigan, o'zimdanda bir yosh katta edi, ayni damda esa, dorilfununning nomdor fakultetida tahsil olardi. Shu paytga qadar u bilan oramizda biron-bir iliq munosabat yoki bordi-keldi bo'lmagan, ba'zan ko'cha-ko'yda yoki dorilfununda tasodifan uchrashib qolsak, azbaroyi tanish ekanligimiz uchun shunchaki bosh iring'ab, salomlashgan bo'lar va indamay o'z yo'limizga ketardik.

Uning otasi tumanda kattagina amaldor edi, shuning uchun u bolaligidan sirkasi suv ko'tar-maydigan erka va tantiq o'sgan, maktabda ham o'qituvchilar doimo uning qosh-qabog'iga qarab turar, hamisha uning istak-xohishiga qarab ish tutishar edi. Dorilfununda o'qiy boshlagach, uning dimog'i yanada ko'tarilib ketgan, odamga kibr bilan bepisand qarardi. U doimo so'nggi rusumda kiyinardi, rosti gap, qaddi-qomati ke-lishgan ekanidan kiyim-bosh ham unga yarashib turardi.

Ehtimol, men kutilmaganda uning ismi qolib, qora sharpa deb atayotganim seni ajablantir-gan, hatto bu senga qandaydir erish va hatto bachkanalikdek tuyulayotgandir. Yo'q, men uni yoqtirmaganim, jinim suymagani uchun atay ustidan kulish, masxara-yu mayna qilish maq-sadida shunday atayotganim yo'q. Bunday o'y o'shanda ham, hozir ham xayolimga kelgani yo'q. Buning boshqa sababi bor. Gap shundaki, o'sha oqshom u bosh-oyoq qora libosga burkanib olgan edi: egnida oyoqlarigacha yopib turgan qora charm kamzul, boshida qimmatbaho qora qunduz telpak va qo'lida esa, dasti uzun qora soyabon ko'tarib olgan edi. Uni ayni shu qiyofa-da qorong'ilik qa'ridan daf'atan ilg'ab olish juda mushkul edi. Men unga ko'zim tushgan zahoti-yoq, ko'nglimdan xuddi qora sharpaga o'xshaydi, degan o'y kechgan edi, shuning uchun uni qora sharpa deb atagandim.

Qisqasi, o'sha oqshom u bemahalda nega kel-diykin, degandek hayron bo'lib qarayotganimni sezdi, shekilli, birdan o'zi gap ochdi:

– Shu tomonga yo'lim tushgan edi, – dedi u xijolatomuz ovozd. – Sizni ham bir ko'rib ketay deb keldim.

– Yaxshi qilibsiz, – dedim men. – Qani, uyga kiramiz.

Biz izma-iz uyga kirdik. Men g'aribgina yashar, bir dahliz va kattagina xonadan iborat ijara uyim ancha eski, hatto devorning suvoqlari ham ko'chib tushgan, bir paytlar jimjimador naqsh solinib, bo'yalgan shifti esa, yillar ta'sirida rang-tusini yo'qotib, qorayib qolgan edi. Bu ijara hovlining sohibasi bo'lmish yoshi bir joyga borib qolgan kampir o'g'li va kelini bilan shahar chekkasidagi yangi mahallada yashar, men har oyning birin-chi kuni unga ijara haqini olib borib berardim. Aslida kampir ham, uning o'g'li ham ijara puliga qarab qolmagan, ular o'ziga to'q yashashar, o'g'li o'ziga qolsa, bu hovlini allaqachon sotib yuborgan bo'lar, faqat onasining ra'yidan o'tolmay inda-may turardi. Kampirning kundan-kun puturidan

ketayotgan kaftdek bu hovlini ushlab turishdan maqsadi boshqa edi: rahmatli cholimning tobuti shu hovlidan ko'tarilgan, ertaga qazoyim yetsa, mening ham tobutimni shu yerdan olib chiqishsa deyman...

Kampir qarib-chirib qolganidan ancha payt-dan buyon hovliga kelmay qo'ygan, faqat men borganimda u ezmalanib bu go'shadagi har bir narsani qayta-qayta so'rab-surishtirar, so'zining oxirida ko'ziga yosh olib, hovliga ko'z-quloq bo'lib turishimni qayta-qayta tayinlardi. Men qariyb besh yildan buyon bu hovlida yolg'iz o'zim yashab kelardim.

Qisqasi, o'sha oqshom qora sharpa seskan-gandek ko'zlarini alang-tajang o'ynatib ichkariga kirarkan, hamma narsaga qayta-qayta sinch-kov nazar tashlab chiqdi. So'ng burchakda-gi yoping'ichlarining rangi o'chib, hilvirab qolgan kursiga omonatgina o'tirarkan, zo'raki kulgan-cha, koshonangiz yomon emas ekan, dedi u. Uning so'zlarida allaqanday istehzo va kesatiq ohangi sezilib turar, hatto u uydagi buyumlarga burnini jiyirgandek ijirg'alanib qaraganini yashirmasdi. Ammo men uning istehzoli so'zlari ko'nglimga og'ir botayotgan bo'lsa-da, e'tibor bermaslikka urinardim. Biz bir muddat u yoq-bu yoqdan gapla-shib o'tirdik, biroq gapimiz hadeganda qovushib ketavermas, o'rta gapim jimlik tushardi. Mening xayolimni hali-hanuz u bemahalda nega keldiy-kin, degan o'y band etib olgan, shu bois unga dam-badam savolomuz qarab qo'yardim.

U endi kursida oyoqlarini chalishtirib bamayli-xotir o'tirib olgan-cha, uchi to'g'dek o'tkir soyabonini xuddi hassa kabi qo'lida aylantirib o'ynarkan, dip-lom ishi yozish bilan band ekani, kitob titkilayverib, miyasi achib ketganidan biroz o'zini chalg'itish uchun ko'chaga aylangani chiqqanini aytdi.

– Dilpomni himoya qilsam, ish tayyor, – dedi u o'ziga yarashmagan maqtanchoqlik bilan. – Qish-loqqa ketish niyatim yo'q, shaharda qolaman.

U yana allanimalar haqida uzoq gapirdi. Keyin vaqt allamahol bo'lganda, uning ketishga chog'langanini ko'rib, to'g'risi, xiyol yengil tortgan-dek bo'ldim.

Qora sharpa hovliga chiqqach, kutilmaganda, ilkis men tomonga o'girildi-da, negadir menga qattiq tikilgan-cha allaqanday tahdidli ovozd. Sen haqingda so'radi:

– ...ni ham ko'rib turibsizmi? – dedi u kiprik qoqmay yuzimga tikilarkan. Uning nigohi qahrli va sovuq edi, shundan yuragim seskanib ketgan-dek bo'ldi. Ammo men hali savoliga javob berish-ga ulgurmay turib, u yana so'z qotdi:



– Ey uka, oyga qo‘l uzatgan odamning oyoqlari baquvvat bo‘lishi kerak, – dedi u ochiq istehzo bilan menga bosh-oyoq qararkan.

U bir muddat aynan shunday – kiprik qoq-may kibr bilan tikilib turdi-da, so‘ng ters o‘girilib, xayr-xo‘shlashishni ham ep bilmay tez-tez yurgan-gancha qorong‘ilik qa‘riga singib ketdi.

Men qora sharpaning tahdidli so‘zlari-yu yurakka sanchilib botadigan sovuq nigohidan shunchalik karaxt tortib ketgandimki, eshik oldida ancha payt nima qilishni bilmay serra-yib turib qoldim. So‘ng sudralib qadam olgan-gancha uyga kirarkanman, ich-ichimdan qandaydir azobli og‘riq qalqib-qalqib ko‘tarilib kela boshladi, men o‘zimni xuddi shafqatsizlarcha haqoratlangan va qadr-qimmatini toptalgan kimsadek his etar, ayniqsa, qora sharpaning “Oyga qo‘l uzatgan kishining oyoqlari baquvvat bo‘lishi kerak” degan so‘zlarini qayta xayolimdan o‘tkazarkanman, nafrat-u alamim battar ortib borardi.

O‘sha paytda mening ong-shuurim birdan yorishib ketib, hamma-hammasini anglab yetdim. Ha, ha, qora sharpa hamma-hammasini so‘rab-surishtirib bilgan va bir hamladayoq meni yo‘lidan supurib tashlash maqsadida atay ijara uyimga kelgan. Boya uning yovuz chaq-nab turgan ko‘zlari, bepisandlik bilan ochiq-oshkor irg‘anib qarashi shundan darak berib turardi.

Men bularni xayolimdan o‘tkazarkanman, yuragim battar alam-u iztirobga to‘lib ketdi va dar-dimni ichimga sig‘dirolmay telbalardek gandrak-lab hovliga chiqdim-da, qorong‘ilik qa‘riga qarab, sening ismingni aytib chaqirdim. Men sira o‘zimni bosolmas, jism-u jussamni xo‘rlig-u malomat o‘rab-chirmab olganidan o‘zimni unutgan ko‘yi yig‘lab yubordim, yig‘lab turib, nola qilarkanman, sening ismingni aytib, qayta-qayta chaqirdim.

O‘sha tunda yuragimdan qaynab-ko‘pirib chiqayotgan bu iltijo-yu nolam, alam-u iztiro-bim, o‘tinch-u faryodlarim senga yetib bordimi yoki qop-qora tun yuho singari yutib yubordimi, bilmayman.

Bilganim shuki, shundan so‘ng qora sharpa xud-di bir hamladayoq o‘ljasini mahv etishga shaylan-gan qushdek qanotlarini keng yoyib, vahm va salo-bat bilan sening boshing ustida aylana boshladi.

Bu noxush va sovuq xabarlar mening bezovta tortgan ruhimga yomon ta‘sir qilar, yuragimga tig‘dek sanchilib, asablarimni qaqshatar edi.

Ammo ana shunday umidsiz va ojiz ahvol-ga tushib qolganimga qaramay yuragimning tub-tubida mubham bir ishonch xira tortib, miltirab turar, sen hamma-hammasiga tez va

osongina qo‘l siltab, meni tashlab ketmasligingga, qora sharpa yovuz afsungar singari afsun o‘qib, qanchalik urinmasin, baribir, sening qalbingni zabt eta olmasligiga, yo‘llaringni bog‘lab, aql-u hu-shingni tilsimlab tashlashga ojizlik qilishiga, bir soadatli kunda sen xuddi uzoq vaqt davom et-gan uyqudek dafatan cho‘chib uyg‘ongan malika singari shuuring birdan yorishib, bularning bari yolg‘on va ro‘yo ekani, bezovta tortgan yuraging butunlay boshqa narsalarni aytib, urayotganini anglab yetishingga va shunda tuyqus meni yodga olib, shoshib yo‘lga tushishingga, uzr va xayri-xohlik bilan to‘lin oydek ziyo taratib, kulbamga kirib kelishingga, mayin jilmayishing va jonbaxsh shivirlashlaring bilan kuyib ado bo‘lgan yuragim-ga malham qo‘yishingga ishonib turardim.

O‘sha paytda mening tushkunlik va umidsizlik-ka to‘lgan yuragimga faqat ana shu omonatgina o‘y ishonch bag‘ishlab turardi.

\* \* \*

O‘sha yil qishni xavotir va qo‘rquv ichida be-halovat o‘tkazdim. Nazarimda, bugun yoki ertaga yana qandaydir qo‘rqinchli voqea sodir bo‘ladi-yu, men seni bir umrga yo‘qotib qo‘yadigandek tuyu-lardi.

Buning ustiga o‘sha kunlari qora sharpa tinim-siz sening atrofingda girdikapalak bo‘lib yurgani, hatto uning tannozi onasi va singlisi atay shaharga kelib, seni ko‘rib ketishgani, endi bahorga chiqib, sizlarni unashirib qo‘yishlari haqida eshitgandim.

Bu xabarlar nechog‘lik sovuq va noxush bo‘lmasin men xuddi cho‘kayotgan odam xasdan najot izlagandek, o‘jarlik bilan o‘z bilganimdan qolmas, qora sharpa qanchalik yaltoqlanma-sin, dur-u gavhar, tillo-yu kumushlarini yo‘lla-ringga sochib, boshingni aylantirishga urinmasin, baribir, hech qachon sening qalbingga yo‘l topa ol-masligiga, sen oxir-oqibat hammasidan hafsalang pir bo‘lib, uni itdek quvib solishingga va meni qoshingga chorlashingga umid qilib turardim.

\* \* \*

Shaharda bahorning iliq va yoqimli nafasi sezilib qolgan, kutilmaganda shitob bilan esgan shamollar yap-yalang‘och dov-daraxtlarni turtib-silkitib uyqudan uyg‘otayotgan, ariqlar bo‘yida va yo‘l chetlarida yam-yashil maysalar bo‘y ko‘rsa-tayotgan paytda sen hali ta‘tillar boshlanishiga ancha vaqt borligiga qaramay negadir kutilma-ganda shoshib qishloqqa jo‘nab ketding.

Menga aytishdiki, qora sharpa ham sen bilan birga qishloqqa yo‘l olgan ekan. Yana aytishdi-

ki, uyingga sovchilar kelib, oyoq tirab olishibdi, onang, akang, xullas, uydagilaringning barchasi rozi, faqat sening bir og'izgina "xo'p" yoki "yo'q" degan so'zing qolgan ekan. Shu bois sen shoshib qishloqqa yo'l olibsan, ortingdan yaltoqlanib ergashgan qora sharpaning ham ra'yidan qaytarmabsan.

O, gap topguvchilar yana aytishdiki, sen shuncha yo'l bosib, horib-toliqib kelganingga qaramay, qishloqda bor-yo'g'i bir oqshom qolibsani, keyin ertasi kun ertalab yana shaharga yo'lga tushibsani.

O, Xudo qarg'agan o'sha oqshom uyingda nimalar ro'y bergani, taqdirning qora qozonida qanday savdolar qaynagani, uning ostiga kim jonini jabborga berib o't qalagani menga butkul qorong'i edi. Ehtimol, o'sha oqshom uydagilaring sening og'zingga mahtal bo'lib tikilgan, onang esa, qarshingda o'tirib, bu savdo har bir qizning boshida bor, tag-tugli oila ekan, qolaversa, yigit ham seni yaxshi tanirkan. Sovchilar kelib, holi-jonimizga qo'ymayapti. Sening o'zing nima deysan? – deya so'ragandir.

Sen esa, onangning so'zlarini eshitib, azbaroyi uyalganingdan birdan yuzing qip-qizil tortib ketgan va so'ng ancha payt sukut saqlab turib, boshingni quyi solganicha eshitilar-eshitilmas ovozdada: – Sizlar nima desangiz – shu! – degandirsani.

O, sening ana shu bir og'izgina so'zing qattol qismatning olmos shamshiri yanglig' bir zarb bilan hamma-hammasini uzil-kesil hal etgan, biron-bir e'tiroz-u o'tinchga hojat qoldirmagandi.

Albatta, bularning bari mening taxmin-u farazlarim, xayolimni band etib olgan shubha-gumonlar, aslida esa, o'sha kun sen kutilmaganda nega shoshib qishloqqa yo'l olganing va yana tezda shaharga qaytganing sababini bilmayman. Ayni damda bu men uchun unchalik muhim va qiziq ham emas. Muhimi shundaki, sen o'sha kun ertalab shaharga qaytish uchun yo'lga chiqqansani. Shunda senga qishloq oqsoqolining ko'zi tushib qolgan. Sen uyalibgina oqsoqolga salom bergach, u balli, qizim, degan. So'ng u qayoqqa ketayotganingni so'ragan. Sen tabiiyki, shaharga, o'qishga borayotganingni aytgansani. Buni eshitib, oqsoqolning g'amgin yuzi birdan yorishib ketgan va shosha-pisha shunday degan: ey, qizim, seni Xudoning o'zi yetkazdi. Nima qilishni bilmay boshimiz qotib turgandi. Shaharga yetib borgan zahotiyoyq uni topib, aytginki, zudlik bilan yo'lga tushsin. Otasining ahvoli juda og'ir, uch kundan buyon yo'lga qaraganidan jon berolmay arosat ichida yotibdi...

O'shanda oqsoqoldan bu noxush xabarni eshi-

tib, sening ko'nglingdan nimalar kechganini bilmayman. Ehtimol, sen meni o'ylab, yuraging ezilib ketgandir?! Balki menga azbaroyi achinganingdan shaharga yetib borgan zahotiyoyq bu xabarni yetkazishingni oqsoqolga aytgandirsani.

O'shanda oqsoqol yelkasidagi og'ir yukdan xalos bo'lgandek, ko'ngli xotirjam tortib, sen bilan xayrlashgan. Sen esa, o'sha kun avtobusda sakkiz soat-u o'ttiz daqiqa yo'l bosib, qora sharpa bilan birga shaharga kirib kelgansani. Ammo sen negadir bu xabarni menga yetkazishga shoshilmagansani. Qora sharpa xonang ostonasigacha kuzatib qo'ygach, sen yo'lda qattiq toliqqaningdan ko'zlarining o'z-o'zidan yumilib kelta boshlagan va o'zingni to'shakka tashlab, tosh qotib uxlab qolgansani.

Ertasi kun ertalab esa, sen shosha-pisha dorilfununga, o'qishga borgansani, haligi xabarni menga yetkazishga yana vaqt topolmagansani.

Faqat o'sha kun kechga tomon men seni dorilfununga olib boradigan torgina yo'lakda tasodifan uchratib qoldim. Sen menga ko'zing tushgan zahotiyoyq, negadir cho'chib ketgandek bo'lding, ko'zlaringni katta-katta ochib, qo'rquv bilan qarading. So'ng esa, sinq jilmayib, shunday deding:

– Kecha qishloqdan kelgandim. Otangizning tobi yo'q ekan. Siz tezda yetib borarkansiz...

Men bu xabarni eshitib, birdan yuragim og'ir qalqib tushdi, tuyqus ko'z o'ngimda ko'p yillardan buyon xastalanib, to'shakdan turolmay yotgan otamning ozib-to'zib, qoqsuyak bo'lib qolgan qiyofasi paydo bo'ldi. Bo'g'zimga iztirobmi, o'kinch qadaldi. Va senga qararkanman, alamli ovozdada, nega shuni kecha aytmadingiz, dedim bazo'r.

O'shanda sen nimalar deganingni hozir eslay olmayman, hushim o'zimda emasdi, boshim birdan karaxt tortgandek, hech narsani idrok etmay qo'ygandi. Sen bilan xayrlashishni ham unutib, ijara uyi tomon yugurib ketdim.

O'sha paytda shunday ojiz va imkonsiz ahvolga tushib qolgan edimki, hozir ham o'ylasam, "dod" deb yuborgim keladi. Qani endi, qanotim bo'lsa-yu, otamning qoshiga uchib borsam, uning boshida o'tirib, hech qursa, azob-u og'riqdan qurib-qaqrab yotgan lablariga bir qultum suv tutsam... Yo'q, nazarimda, qishloq shu qadar olis va uzoqda ediki, qancha yugurib-yelmay baribir yetib berolmasdim.

Men o'sha kun kechqurun soat o'n bir-u qirq beshda jo'naydigan poyezdga chiqib, qishloqqa yo'l oldim. Yo'l-yo'lakay Xudoga iltijo-yu nola qilib ketdim: otamning jonini olmay turgin, Xudojon?!

Mening ohu nolam, iltijo-yu o'tinchlarim Xudoga yetib bormadimi, yo'ldagi daydi shamollar to'zg'itib, allaqayoqlarga uchirib ketdimi, bil-

mayman, kechikib yetib bordim. Otam o'sha, sen qishloqdan yo'lga chiqqan kun oqshom payti uch kun arosatda yotib, jon taslim qilgan, ertasi kun qabrga qo'yishgan ekan.

Qishloq oqsoqoli meni bag'riga bosarkan, kecha sen kelib qolasanmi, deya ko'p yo'lga qaradik. Ammo sendan darak bo'lavermagach, noiloj otangni uyiga qo'yib keldik, bolam, dedi. O'shanda oqsoqol negadir xabar yuborgandik, aytishmadimi, deb so'ramadi, men buni boshqalardan eshitdim.

O'sha paytda uyimiz, o, nafaqat uyimiz, balki hayhotdek keng dunyo ham otamsiz huvullab qolgan, boshimni toshga urib, qanchalik dod solib yig'lamay bari bir yuragimdagi alam-u armon va iztirob o'ti sira bosilay demasdi.

Qishloqda bir hafta turdim, so'ng yana shaharga qaytdim. O'shanda sen haqingda o'ylarkanman, ko'nglimdan ilk marta alamli o'ylar kechdi: uning menga qanday qasdi bor edi? Nega o'sha oqshom shaharga yetib kelgan zahotiy oq otam kasal ekanini aytmedi? Yo anavi qora sharpa uni yo'ldan urdimi?!

Men ana shunday alam-u iztirob o'tiga qovurilgan ko'yi shaharga qaytib keldim.

Sen esa, oradan bir kun o'tib, kutilmaganda dugonang bilan birga ko'ngil so'ragani ijara uyimga kirib kelding.

O, agar bilsang, o'shanda mening ahvol ruhiyam, yuragimni o'rtayotgan alam-u o'kinch, dard-u iztirob seni yuzim quvonchdan yorishib, qarshi olishga, g'oyibdan kelgan bu baxtga ishonmagandek dovdiragancha istiqbolingga peshvoz chiqishga sira imkon bermasdi.

O'shanda dugonang negadir tashqarida qoldi, seni yolg'iz o'zing ichkariga kirib, kursiga omonatgina o'tirding.

– Bunday bo'lishini bilmagandim. O'sha oqshom...

Ammo sening uzrxohlik bilan aytgan so'zlaring bo'g'zingda qolib ketdi, men qahr bilan senga qararkanman, yuragimda ko'pchib yotgan alam-u iztirob birdan qaynab-toshib yuzaga chiqdi:

– O'z otasining qadriga yetmagan odam boshqaning qadriga yetardimi?!

Bor-yo'q gap shu. O, men shafqatsizlik bilan aytgan so'zlar seni shunchalik titratib yubordiki, birdan yuzing oqarib, ko'zlaring ma'yus tortib qoldi, nazarimda, sen dafatan mung'ayib, cho'kib qolgandek tuyilding. Keyin esa, kutilmaganda ko'zlaringda nafrat o'ti chaqnadi, bir muddat shunday tikilib turding, ammo biron og'iz so'z qotmading, balki shaxd bilan o'rningdan turib, otilib tashqariga chiqib ketding.

Bilaman, men o'shanda o'ylovsiz gaplarim bilan sening nozik qalbingga ozor yetkazgan, achchiq, iztirobli va alamli xotiralarni qayta yodingga solib qo'ygandim. Bir paytlar amaldor otang kutilmaganda allaqanday suyuqoyoq ayolga ilakishib qolgani, hatto uni deb sizlarni tashlab ketgani, keyin oradan bir necha yil o'tgach, abgor ahvolda boshini egib qaytib kelgani, ammo onang uyga kiritmagani, bechora bunday xo'rlikni ko'tarolmay ichkilikka berilib ketgani va oxir-oqibat allaqayerlarda o'lim topganini o'shanda sening yuzingga solganimni, shuni ro'kach qilib, alamdand chiqishga uringanimni hozir ham o'ylasam, xuddi jirkanch va tuban ishga qo'l urgan kimsadek, o'z-o'zimdand nafratlanib ketaman, buning uchun o'zimni hech qachon kechirolmayman.

O'shanda dard-u dunyong qop-qorong'i tortib, yig'lab-yig'lab ketding. Men sening ortingdan kuzatib chiqolmadim, bunga o'zimda na kuch va na jur'at topdim.

\* \* \*

Bundan ham yomoni, oradan bir hafta o'tgach, ro'y berdi. O'shanda adashmasam, haftaning chorshanba kuni edi, men kechga tomon dorilfunundan toliqqan ko'yi ijara uyiga qaytdim. Ko'cha eshigini ochayotib, allanima "tap" etib, oyog'im ostiga tushganini ko'rdim. Men hayron bo'lib, qarasam, yerda kattagina kulrang konvert yotgan ekan. Men uni darrov qo'limga olib, sirtiga ko'z tashladim: o'zimning ism-sharifim yozilgan ekan. Demak, kimdir meni izlab kelgan, ammo topolmagach, bu konvertni eshik tirqishiga qistirib ketgan, degan o'y kechdi ko'nglimdan.

Men konvertni ko'tarib uyga kirarkanman, ko'nglimda bu xat kimdan kelibdiykin, degan qiziqish tobora ortib borardi. Shuning uchun uyga kirgan zahotiy oq apil-tapil haligi sirli konvertni ochdim: uning ichidagi tumordek buklangan bir talay qog'ozlarga ko'zim tushib, rosti gap, avvaliga hech narsani tushunmadim. So'ng xayolim sal yorishib, tuyqus anglab qoldim: bu senga to'rt yil davomida yozgan xatlarim edi...

O, sen bu xatlarni xuddi muqaddas tumor yanglig' shunchalik ehtiyotkorlik bilan asrab-avaylab saqlagan edingki, ular xuddi hozirgina yozilgandek, bus-butun, rangi ham sarg'ayib ketmagan edi.

Men butkul o'zimni yo'qotganicha, uy o'rtasida o'tirib, xatlarga tikilarkanman, tuyqus aqldan ozib, savdoyi bo'lib qolgan kimsadek, qah-qah urib, kulib yubordim, kulib turib yig'ladim, yig'lab turib kuldim...

Men bari bir sening aqlli, oqila va dono, favqu-lodda jur'atli va qat'iyatli ekanligingni o'ylab turib, beixtiyor haratga tushaman. O'shanda yuraginga qattiq ozor yetgan, qadr-qimmatning ayovsiz toptalganidan ko'zinga dunyo qorong'i ko'ringan, vujudingni alam-u iztirob o'ti yondirayotgan bo'lsa-da, sen o'ta bosiqlik bilan ish tutgan, haqorat-u dashnomlarimga aynan shunday javob berishni o'zinga ep bilmagan, aksincha, uzoq yillar yuraging qatida asrab-avaylab yurgan, najotkor tumordek muqaddas, deb bilgan xatlarimni qaytarib bera turib, go'yoki yuzimga bir shapaloq tortib yuborgan eding.

Hozir ham bu haqida o'ylasam, yuragim xuddi to'xtab qolgandek tuyuladi, sen bu xatlar bilan birga qalbingdan meni ham xuddi eski buyumdek supurib tashlagan eding, endi buning o'rnini nafrat va alam egallab olgan edi.

Yo'q, yo'q, sen xatlarimni qaytarib bera turib, qanchalik ojiz, notavon va noshud ekanimni, sening pok-pokiza mehr-muhabbatining, yuragingning nozik talpinishi, ko'zlaring quvonchiga arzimlasligimni dafatan anglatib qo'yganding.

Bundan ham yomoni, keyinchalik o'shanda sen nega shoshib qishloqqa berganingni asl sabablarini bilgach, go'yo oyog'im ostidagi yer teskari aylanib ketgandek bo'ldi, dard-u dunyom qop-qorong'i tortib, aqldan ozishimga bir bahya qoldi.

O'shanda, haqiqatan ham, qora sharpaning otasi ustma-ust sovchilar yuboraverib, uydagilaringni hol-joniga qo'ymagach, onang: "qizimning o'zi biladi, u nima desa, shu bo'ladi", degan va seni zudlik bilan qishloqqa chaqirtirishgan.

Qo'ni-qo'shnilarning aytishicha, o'sha oqshom uyingda naq qiyomat qo'pgan: sen oqshom sovchilarga uzil-kesil rad javobini berib yuborgach, allamahalda kutilmaganda, qora sharpaning otasi, uning o'zi aytgandek, katta boshini kichik qilib, salobat bilan uyingga kirib kelgan. Uni ko'rib, tabiiyki, uydagilaring birdan nima qilishni bilmay shoshib qolgan, hatto akang senga injiqliging bilan shunday katta odamni ham bezovta qilding, deya o'pka-gina qilgan.

Qora sharpaning otasi qilni qirq yoradigan quv va ayyor odam edi, u uydagilaring bilan xuddi yaqin qarindoshdek quyuq so'rashgan, hatto o'zicha allanimalar deya hazil-huzil qilib, hammani kuldirgan.

Keyin esa, sen bir chekkada uyalibgina turganinga ko'zi tushib, alohida iltifot bilan gap boshlagan:

– Qizim, o'qishlar bilan charchab qolmadingizmi?! Yaxshi, o'qigan, bilim olgan yaxshi. Xo'sh, nima desam ekan, xullas, bugundan boshlab men sizni o'zimning qizim deb bilaman. Nasib bo'lsa, hech narsaga zoriqmay, g'am-tashvish nima ekanini bilmay yashaysiz. Shuncha yil yiqqan mol-davlatim sizlarniki bo'ladi. Shunga nima deysiz? Uyat bo'lsa ham, sizning gapingizni o'z qulog'im bilan eshitay deb atay keldim...

O, o'sha oqshom nafaqat qora sharpaning otasi, balki onang, akang va devor tirqishidan poylab turgan qo'ni-qo'shnilar ham kiprik qoqmay senga mahtal bo'lib tikilib qolgan.

Sen esa, qismat-u a'moling hal bo'layotgan pallada dovdirab, o'zingni yo'qotib qo'ymagansan, balki jur'at va qat'iyat bilan shunday degansan: – Ko'nglimdagini o'g'lingizga aytganman. Boshqa gapim yo'q!

Aftidan, sen qora sharpaga nima deganingni otasi yaxshi bilardi, shuning uchun u birdan bo'shashib ketgan, senga avzoyi buzilib qaragan. Ammo u garchi gapi yerda qolgan, obro'yi bir pul bo'lgan esa-da, sir boy bermagan: – Mayli, qizim, nima deymiz, zorimiz bor, zo'rimiz yo'q, – degan va eshikni jahl bilan yopganicha hovlidan chiqib ketgan.

\* \* \*

Men yillar o'tgan sayin o'shanda sening qalbinga shafqatsizlik bilan ozor yetkazganimni, bahor chechaklari singari bo'y ko'rsatayotgan orzu-umiding, quvonch-u shodliging va mehr muhabbatiningni toptab tashlaganimni iztirob bilan anglab borayapman. Yo'q, yo'q, sen uzoq yillardan buyon yuraging tub-tubida asrab-avaylab kelayotgan, hatto o'z-o'zingdan ham sir tutgan bu tuyg'u oxir-oqibat sarob va ro'yo bo'lib chiqqanidan qanchalik og'ir ahvolga tushganingni, qalbing alam va iztirobga to'lib qolganini xayolimdanda o'tkazar ekanman, mudhish xato va gunoh yelkamdan bosib turgandek, ko'zimga dunyo qop-qorong'i ko'rinib ketadi.

Sen baribir, Masih nafasida ham, Xizr nazari-da ham baralla bo'y ko'rsatib turgan o'sha muqaddas tuyg'uning o'zi kabi aziz, mukarram va ulug'san. Men sen tomonga talpina turib, shundan kuch-qudratga to'laman, xato-yu gunoh, iztirob-u alam va cheksiz og'riqlardan qabarib ketgan ko'nglim asta-sekin poklanib, taskin topayotganini his etaman.

Sen shunchalik qudratli, ulug' va azizsanki, qarshingda hamisha bosh egaman.



**Yevgeniy SOYA**

1992-yili Ukrainaning Odessa shahrida tug'ilgan. Shoirning "Hech narsadan gullar", "Hijriy" nomli to'plamlari nashr etilgan.

## Moviy osmon sening kipriklaring ostida, dilbar

### ENG MOVIIY OSMON

men ko'p mamlakatlar haqida faqat  
"bo'lmaganman", deya olaman.  
balki, shundanmikin,  
bo'sh sahifalar gunohi ortar.  
ammo men, shubhasiz, bilaman  
eng moviy osmon qaydaligin.

eng moviy osmon sening  
kipriklaring ostida, dilbar.

### MENGA JIMLIK KERAK

tez yurar. N shahri – Voronej.  
yelvizak. hafsalam shunday sovuq.  
ko'zlaringga boqib o'yladim: "cho'kish..."  
cho'kdim. o'sha ko'yi chiqqanim yo'q.

tun qayishqoq, qora sochlari bilan,  
yer yuzida olar tin.  
sahargi choy bilan tugar tun.

menga jimlik kerak sening ovozing ila.  
sening hiding taralgan zulmat kerak menga.

### FARISHTALAR

farishtalar ifor taratsa agar, sening iforingday bo'lardi faqat.  
farishtalar seva olganda edi, faqatgina seni sevardi ular.  
farishtalar kuylay olganlarida, sening qo'shiqlaringni kuylardi faqat.

farishtalar she'r yozsa agar, faqat sen haqingda bo'lardi u she'rlar.  
farishtalar so'zlay olganlarida, sening ovozing-la so'zlardi ular.

va ehtimol, Xudo barcha gunohlarni kechirar bir kun,  
faqat, sening sochlaring haqqi, faqatgina, sening sochlaring uchun.

Rus tilidan **Rafuq SAYDULLO**  
tarjimasi.

# MILLIY RUH – MILLAT HUJJATI

1. Globalashuv davrida dunyo xalqlarining madaniyati, san'ati va falsafasi qorishib, tobora yaxlit qiyofa kasb etib bormoqda. Jozibali ko'ringani bilan bu jarayon umummadaniyatga singib ketishining oqibatida yaxshilik yo'q. Zero, globalashuvning jilovi bizning qo'limizda emas, balki uning shakllanishiga ko'proq hissa qo'shganlar qo'lida. Shunday ekan, bugun nasrimizda milliy ruhni ifoda etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, bu borada nasrimizda qanday izlanishlar mavjud? Siz milliy ruhni tasvirlashda ijodkor nimalarga e'tibor qaratishi zarur deb hisoblaysiz?

2. Adabiyot – ijtimoiy hodisa. Har bir yangi asar davr bilan hamnafas dunyo yuzini ko'radi. Uzoqqa bormaylik, 80-yillardagi "Javob", "Galatepaga qaytish", "Yozning yolg'iz yodgori" kabi asarlarda ijtimoiylikning qahramonlar ruhiyatidagi evrilishlarga sabab bo'luvchi omillari yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etilgan. Yoki 90-yillarda "o'tish davri" tufayli vujudga kelgan madaniy-ma'naviy inqiroz, ayniqsa, ziyolilarning iztiroblari "Bozor", "Muvozanat" kabi asarlarda o'z aksini topgan. Xo'sh, bugun-chi, o'zbek nasrida zamon ruhini o'zida aks ettirayotgan asarlar yozilyaptimi?

3. Zamonaviy qahramonlarni yaratish faqat adabiyotning emas, balki ijtimoiy hayotimizning zaruratiga aylanib ulgurani sir emas. Nosir sifatida zamonaviy qahramonni qanday tasavvur qilasiz? Uning qiyofasini yaratishda nimalarga e'tibor qaratmoq kerak?



**Akmal JUMAMUROD**

1. Muayyan xalq ijodiyotining bo'y-basti, o'ziga xosligini belgilovchi bosh mezon milliy ruhdur. Boshqacha aytganda, u – millat pasporti. Bu "hujjat" asarning yashovchanligini ta'minlaydi. Xalq xarakter-xususiyatini ochib beradi.

Milliy ruh uch jihat – harakat, holat va nutq uyg'unligiga bog'liq. Asarda bular shunchaki bir-birini to'ldiruvchi vosita emas, birgalikda mazmun tashuvchi g'oya hamdir. Shu ma'noda ijodkor oldiniga MILLIY RUH nima ekanini o'zi uchun oydinlatib olgani ma'qul. "Asar mana bu mantiqqa qurilsa, milliy ruh yaraladi" deyishda muayyan nazariy asos yo'q. Chunki har bir ijodkor o'zi bilganicha yozadi, voqelikni o'zicha talqin qiladi. Hammamizga yaxshi tanish lavha: Otabek Marg'ilonda shu yerliklardan bir-ikki kishini mehmon qiladi. Hasanali choy keltirgani qo'zg'alganda mehmonlardan biri uning kimligini so'raydi.

"Otabek Rahmatning savoliga javob bermay, eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib, so'ngra javob berdi:

– Qulimiz".

Hasanalini uzoqlatib javob berish – nafaqat obraz sifatida Otabekning adabi, balki yozuvchi sifatida Abdulla Qodiriyning zehni, mahorati ham. Ehtimol, bugun tengqurlar ijodida mana shu zehn kamnamo.

Milliy ruh ekan deb ko'pda egniga chopon tashlab, beliga belbog' boylab, yaktakchan bo'z yigit obrazini yaratishga urinamiz. Ayol bo'lsa agar – boshiga ro'mol o'rab, atlas-u adras, zeb-ziynat bilan orolaymiz. Urg'uni tashqi metaforik chizgilarga yuklaymiz. Jo'ngina aytganda, milliy ruhni kiyim-kechaklar qatiga berkitamiz. Holbuki, zamon, makon va holatni ifodalovchi birgina HARA-KAT, birgina SO'Z (Hasanalini uzoqlatib aytilgan

“Qulimiz” singari) yakka obraz timsolida tarbiya va muhit, asar ruhi, pirovardida millat xarakterining “kod”lari, aslida. Shu sababdan ham ijodkor o‘zi qalamga olayotgan makon odamlari, xarakterini (zamondosh bo‘lgani holda) ilg‘ashi shart. O‘g‘risi, qassobi, boyi, nochori ham bir xil ohangda so‘ylaydigan bo‘lsa, fahmlash mumkin-ki, ijodkor asarda yashamabdi.

**2.** Jamiyat hamisha harakatda, bir nuqtada qotib qolgan emas. Yaqin o‘tmishga nazar tashlasak, ikkita jahon urushining o‘zi haqida tom-tomlab asarlar bitilgan. Undan keyin ham urush mavzusiga murojaat qilgan yozuvchi-adiblar ko‘p. Biroq holatni aynan o‘z ko‘zi bilan ko‘rib-guvohi bo‘lgan ijodkorchalik jonli tasvirlab berish deyarli imkonsiz. Demak, har bir davr haqida muayyan izoh, tasavvur beruvchi asarlarning vujudga kelishi bu – taqozo, izchil jarayon. O‘zgarishlar odamlar ongiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi, albatta. Ijod esa qalbda, ruhiyatda sodir bo‘layotgan ana shu “o‘zgarish”larni yuzaga olib chiqadi.

O‘z davrida Qodiriy domla aytgan: “Modomiki biz yangi davrga oyoq qo‘ydik, bas, biz har bir yo‘sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o‘xshash dos-tonchilik, ro‘monchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishg‘a, xalqimizni shu zamonning “Tohir-Zuhra”lari, “Chor darvesh”lari, “Farhod-Shirin” va “Bahromgo‘r”lari bilan tanishtirishka o‘zimizda majburiyat his etamiz...”.

Shaxsan men adabiyotning ijtimoiy hodisa ekanini O‘zbekiston xalq yozuvchisi, ustoz Erkin A‘zam ijodida kuzataman. “Jannat o‘zi qaydadir”, “Shajara”, “Piyoda”, “Suv yoqalab”, “Zabarjad”, “Qarzdor”, “Farishta”... Barchasida odamlarning dard-u dunyosi, orzu-armonlari, tashvishlari bo‘y ko‘rsatadi.

Misol uchun, “Jannat o‘zi qaydadir”da markschi olim, butun umr soxta g‘oyalarga ishonib, shuning orqasidan olimlikka erishgan Domla va uning fojiasi tasvirlanadi. Xotini Bibirobiya (Xonim) esa yangi davrda biznesmenga aylanib qolgan fan nomzodi.

Asarda o‘tish davri odamlarining ruhiyati gavdalantriladi. Aslida, buni har bir kishi o‘zicha boshdan kechirayotgan “o‘tish davri” desak ham yangilish bo‘lmaydi. Negaki, pulga, mol-dunyoga o‘chlik vajhidan o‘zga yurtlarda yaxshi yashashni orzulab, o‘z yurtini tashlab ketayotgan insonlar fojiasi – ayni bugunning ham gapi.

Yoki adib bilan “Suv yoqalab” yuramiz. Asar qahramoni Bolta Mardon bir vaqtlar rais bo‘lgan. Ikkita o‘g‘lini qabatiga olib, hovlisiga suv keltirish niyatida ariq yoqalab yo‘lga chiqadi. Qizig‘i, odamlarga raisning suv yoqalashi erish tuyuladi, chunki davri o‘tgan-da! Asarda Zulfiya, Sharofat aya, Musallam opa singari ruhiy dunyosi yakkash ayollar bilan uchrashamiz. Bunday obrazlarning barchasini rais Bolta Mardonning suv yoqalashi jarayonida birin-ketin tanib boramiz.

Yozuvchining “Piyoda” hikoyasini olaylik. Asar qahramoni Berdiboy o‘ziga yarasha o‘jar, qaysar – dilidagi tilida bo‘lgan obraz. Uning botinidagi isyon, norozilik kayfiyati nutqidagi kinoya, pichinglarda ham yaqqol sezilib turadi. Gap shundaki, Berdiboy jamiyatdagi yangilanishlarni qabul qila olmaydi. Deylik, qizlarning ochiq-sochiq kiyinishi, velosiped minishi va hokazo. Xuddiki buning bariga elektr, televizor “aybdor”. Aslida, jamiyatda taraqqiyotning odamlar ongiga ta‘sirini ko‘rib, bilib tursa-da, buni ich-ichdan tan olgisi kelmaydigan berdiboylar yon-verimizda doim topiladi. Biroq uning “isyon”dan asl muddaosi nima: “...aka-ukalar barimiz bir joyda, masalan deylik, momomning bog‘ida – dashtda yashasak, bir qo‘ra, bir qo‘rg‘on bo‘lib! Topgan-tutganimizni kechqurun bir qozonga solsak, birga yesak, birga tursak!”. Shu, xolos. Mana shu birgalikka soya so‘layotgan balo – texnika. Shular bo‘limganda “...mehr-oqibat ham, og‘a-inichilig-u ota-bolalik deganlari ham boshqacha bo‘lardi”.

Umuman, zamon ruhini o‘zida aks ettirayotgan ustoz ijodkorlar orasida Erkin A‘zam asarlari hatto qahramonlarga ism tanlashdan tortib, syujet sur‘atigacha xalqqa yaqin va kitobxonga chapani, jaydari kishilar obrazini bosh qahramon sifatida tanitishi bilan qadrlil.

*Zamonaviy o‘zbek nasri qay holatda? Nasrimiz manzaralarini aynan yosh nosirlarning qarashlari asosida chizishga harakat qildik. O‘ylaymizki, yosh ijodkorlarning mazkur fikr va xulosalari siz – aziz jurnalxonlarni e‘tiborsiz qoldirmaydi. Shuni inobatga olib, jurnalimizda yoshlarning adabiy jarayon xususidagi qarashlarini muntazam berib borishni rejalashtirdik.*


Yozuvchi deganidek: “Har gal yangi nimadir yozganingizda bir gaplarni aytdim-ov, deb o‘ylaysiz o‘zingizcha. Lekin bari – dengizdan tomchi. Dildagisini umrning oxirigacha aytib ado qilib bo‘lmas! Muhim gapni aytish uchun, avvalo, ko‘ngilda shunday gap bo‘lishi kerak”.

**3.** Badiiy obraz o‘z xarakter mantig‘idan kelib chiqib harakatlanadi, shunga izn berish zarur. Chunki u muallifga tobe emas, aksincha, o‘z yashash tarzi, dunyosi, turish-turmushi bor. To‘g‘ri, avvalboshi personaj xarakteriga xos parametrlarni ijodkorning o‘zi belgilaydi. Biroq syujet ichida u o‘z holicha erkindir.

Shundan kelib chiqsak, qahramon qiyofasini yaratishda ifodalarni o‘rni kelmasa qo‘llayvermaslik tarafdoriman. Xususan, qiyofa yaratishda ozg‘in, semiz, uzun, kalta kabi tasvirlar bilan siyratni ochishga uringandan ko‘ra, o‘quvchi ongida obrazni emin-erkin tasavvur qilishga imkon yaratish zarur. Toki kitobxon xayolida bitta obrazning minglab qiyofasi yaralsin. Bu esa o‘quvchini tahlilga, mushohadaga chorlaydi. Misol uchun, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida Qobil boboning amin huzuriga kelgan holati. “Og‘zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag‘baqasini osiltirib kuldi”, “chinchalog‘ini ikkinchi bo‘g‘inigacha burniga tiqib kuldi” singari ifodalar. Yozuvchi ana shu bo‘rttirma belgilar hisobiga zamona amaldorlariga xos jihat – qo‘l ostidagi fuqaroning taqdiriga befarqlikni ko‘rsatadi. Fikrimcha, qahramon yaratishda shu yo‘ldan borgan afzal.

Bir gal adabiy davrada “Ikki soniya” degan hikoyam ustida bahs ketdi. Unda ko‘pdan beri oylik olmayotgan ayol kechinmalari, turmushi, ruhiyati aks etgan. “Qurbaqani bossang ham vaq deydi” yo‘sinida pishib yetilgan sabri, oxir-oqibat, kresloda g‘o‘ddayib o‘tirgan rahbariga ayolning yo‘l bo‘yi suv shimib g‘ilchillab qolgan etigini yechib otishi manzarasi bilan yakunlandi. Biroq... bungacha kechgan voqealiklar (hikoyada ayolning ro‘zg‘or yumushlari bilan bo‘lib qo‘lini kuydirib olishi, bir paytlar otasi sovg‘a qilgan sharfning sizilishi va hokazo ifodalar bor edi) o‘quvchida ishonchsizlik kayfiyatini uyg‘otishi aytib o‘tildi. Ya‘ni maishiy vajlar xodimning (va yana ayolning!) rahbarga etik otishiga sabab bo‘lolmasligi, ushbu jur‘at uchun vaziyat hali xomligi, personajga ijtimoiy yuk yetishmayotgani kabilar yuzasidan keragicha pandlarni qabul qilib oldim.

Obraz “qahramon”-likka yo‘lni munosib bosib o‘tishi zarur. Buning uchun esa ijodkor uning gardaniga u ko‘tara oladigan darajadagi ijtimoiy yuk ortmog‘i lozim, zinhor ortiq yoki kam emas. Ana shunda u o‘zi yashab turgan davrdan boshqa davrlarga olib o‘tilganda ham “zamonaviy”ligini yo‘qotmaydi, zamona-soz bo‘lmaydi.



**Javlon JOVLIYEV**

**1.** O‘zbek millatning XXI

asr birinchi choragidagi qiyofasiga bir qarang, qanday manzarani ko‘rasiz? Axborot bosimi odamlarimizni qay darajada o‘zgartirib yubordi? Milliy g‘ururimiz qay darajada? Xalqimizning bugungi kundagi o‘y-xayollari, dard-u tashvishlari nimada? Yozuvchi, avvalo, shu savollarga javob izlashi va uni adabiyotda aks etib berishi kerak. Qahramonlarni kashta solingan chimildiqqa solib milliy adabiyot yaratdim deb da‘vo qilish, bodomdo‘ppi kiyib, “Barselona” jamoasiga muxlislik qilishdek gap. Millat dardi va haqiqat aks etmagan har qanday asar milliy adabiyot bo‘la olmaydi.

Ba‘zi “kattagina” yozuvchilarning asarlarini o‘qib hayron qolaman. So‘zlarni, jummalarni shunday mohirlik bilan ishlatishdiki, tahsin aytaman, xatolardan xoli, ohangi bor, atrofga sinchi kabi (ikir-chikirigacha tasvirlaydi) nigoh tashlagan. Ammo, afsuski, unda xalqning dardidan asar ham yo‘q, oxirida ko‘ngil oralig‘idagi bir nima bo‘lib chiqadi. Jon olib-jon berib yozilmagani seziladi, zamirini ko‘tarsangiz shamolda uchgan xas kabi har tarafga o‘ynaydi. Axir, bu (o‘zbek tilida yozilgan bo‘lsa-da) qanday qilib milliy adabiyot bo‘lishi mumkin. Ko‘taradigan g‘oyasi yo‘q, sovet zamonidan qolgan nishon, ya‘ni otgani mahalliy raisning yotog‘idan nariga o‘tolmaydi. Axir, ularning qo‘lidan millatning tiniq manzarasini berish keladi-ku! Axir, uning yoshlikda juda yaxshi yozgan



hikoyalarni o'qiganman-ku! Nahot, shuncha aynigan bo'lsa yoxud dard bilan jang qilishdan bezganmikin, yo boshqa sabablar bordir, bilmadim. Ammo bir narsa aniqki, ular adabiyotga emas, faqat o'zlariga xiyonat qilayotganlardir.

Bugungi milliy adabiyot xalq ongiga o'rnashgan milliy nigilizmni – o'z millatidan uyalishdan xalos qilishi kerak. Faqat chin san'at bilan bunga erish mumkin. Tog'ay Murod kabi bugungi odamlarimiz yuziga oyna tutishimiz, bu oynadagi dahshatli manzaralarni ko'rishdan "uyalmas"ligimiz, kimgadir "tegib" ketishidan cho'chib ketmasligimiz kerak.

Yapon adibi Kobo Abening "Qumdagi xotin" romanida, bir qarasangiz, yapon milliy obrazlari yo'qdek, ramzlar Ovropa adabiyotiga taqlidan vujudga kelganga o'xshaydi. Ammo aslo unday emas. Undagi ayol chinakam yapon xarakteriga ega, u na xitoy, na turk ayoliga o'xshaydi, uning matonati, yaponcha madaniyati bizga shunday xulosa chiqarishimizga asos bo'ladi. Asarning yakunida ko'z oldingizda har azobga (qumlar yomg'iriga) bardosh berib, jilmayib turishga kuch topadigan yapon ayoli namoyon bo'ladi.

Milliy ruhni aks etish uchun yozuvchi tanlagan qahramonning o'zi ham tom ma'noda milliy bo'lishi kerak-da. Nega biz hamon "O'tkan kunlar"ni sevib o'qiyamiz? Chunki unda qon-qonimizga singgan chin o'zligimiz, milliy obrazlarimiz, orzularimiz bor. Yusufbek Hoji, Otabek, Qutidor, Kumush, O'zbekoyim kabi personajlar sovet ta'siridan xoli, tom ma'noda milliy qahramonlardir. O'tgan 50–60 yil davomida yaratilgan asarlarning ko'pida sovet ta'sirida ulg'aygan odamlar obrazi olib chiqilgan. Qozonda bori cho'michga chiqadi deganday, xalqning o'zi ham katta o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Ammo hozir ham shunday asarlar yaratilayotganiga, hamon chaynalgan mavzularni ezg'ilayotganiga nima deysiz? Mavzu va qahramonni his qilish yozuvchi uchun juda muhim masala. Aytishadi-ku, yozuvchi nimani yozishdan ko'ra, nimani yozmaslikni yaxshi bilishi kerak. Qahramon tom ma'noda milliy bo'lmasa, milliy asar ham yaratib bo'lmaydi.

Yosh yozuvchilar bugungi yoshlar obrazini olib chiqishi kerak. Chunki ular tiniqroq ko'ra biladi bugungi o'zbek yoshlarining yutug'i va fojiasini. Shu navbatda aytish kerakki, yosh ijodkorlar tengdoshlardan yaxshigina qarzdordir ham. Bu qarzni uzmaslik, ma'naviy bo'shliqning kengayishiga xizmat qiladi. Bugungi yoshlar obrazi o'zbek adabiyotiga juda zarur deb o'ylayman.

**2.** Adabiyot tom ma'noda erkin bo'lishi kerak. Sen bunday yoz yoki unday yozma deb taqiq qo'yish ahmoqona ish bo'lardi. Fikr, qarash va g'oyalarga hech qanday to'siq bo'lmasagina, adabiyot, chinakam adabiyot vujudga keladi.

Qator tashkilotlar esimni tanigandan beri ishsizlik muammosi bilan kurashayotgani haqida gapiradi. Ammo bunday quruq gaplardan foyda yo'q. Uzoq yillar og'ziga asal solingan matbuot, maqtovlarga to'lgan "adabiyotchi"larning ham bu ishlarda ulkan gunohi bor, deb o'ylayman. Adabiyot doim millat yo'lini belgilovchi yo'lchi yulduz maqomida turmog'i lozim.

Bundan uch yillar oldin "Mustabidning hasharotlari" degan bir hikoya yozganman. Mustaqil bo'lganimizga 25 yil bo'lsa-da, o'zbek tilida gapirishni va yozishni bilmaydigan odamlar, rahbarlar haqida edi. Keyin, o'ylab qaragam, hikoyaning qamrovini juda tor olingan ekanman. Hozirgi kunda ham bolasining o'zbekcha bilmasligi, yoza olmasligi bilan ishi bo'lmaydigan, aksincha boshqa tilda ravon gapirishidan faxrlanib yuradiganlar ozmi? Ularning ongini mustabidning hasharotlari kemirmagan-ku? Ammo ular ham o'zini madaniyatli o'zbek ota-onalari deb hisoblashadi. Ularni nima deb nomlash kerak? Axir, til qon va jon masalasi... Unga befarq qarab bo'lmaydi. Shuning uchun yozuvchi tarixni o'rganibgina qolmasdan, zamonaga ham tiniq nigoh tashlashi kerak, deb o'ylayman.

Har qanday holatda ham xalq adabiyotga tayana olishi kerak, uni suyanchiq, adolatli ustun deb bilishi kerak, ishonishi kerak. Chinakam asarlar yozilsagina xalqning adabiyotga bo'lgan bu ishonchi ortadi.

3. Talabalik paytda kim qayerga yetaklasa, qiziqib ketavergan ekanmiz. 2012-yili o'tkazilgan "Sahnada zamondosh obrazi" teatr festivaliga qatnashganmiz. O'shanda qaysidir kursdoshim bu festival zamon qahramonini bizlarga topib berarkan, deb qoldi – Prezident topshirig'i ekan. Keyin birin-ketin shifokor, prokuror, irrigator, hokim, ixtirochi kabi "zamon qahramon"lari sahnaga chiqib keldi, ular shunday "rol" o'ynashdiki, festival oxirida zamon qahramoni degan so'zdan ko'nglim ayniydigan bo'ldi. Negadir ular zamon qahramonini biror-bir kasbdan qidirishgandi. Axir, u oliy ma'lumotli bo'lishi kerak edi-da. Shundan beri zamon qahramoni haqida gap ketsa, o'sha "rol" o'ynovchilar xayolimga keladi.

Adabiyot juda qudratli kuchga ega. Shuning uchun undan doim foydalanishni istashadi. Zamon qahramonini qidirib yozib bo'lmaydi. Avvalo, o'sha qahramon o'zi otilib chiqishi kerak, uni xalq ko'rishi kerak, qahramonligini sezishi kerak. Masalan, yong'in ketdi deylik (Xudo ko'rsatmasin), uyda yosh bolalar bor, odamlar birorta qahramon kutib turmaydi-ku, kimdir jur'at topib dahshatli olov ichiga o'zini otadi yoki hech kim joyidan siljimaydi. Hozir esa yong'in ketgan-u, qahramon ko'rinmayotganday tuyiladi.

Neft-gaz mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim sanaladi. U haqda qandaydir asar yozish mumkin emasmi, mumkin. Hamma har xil yozadi. Masalan, men pochcham haqida yozardim. U uzoq yillardan beri neft-gaz sohasida ishlaydi. Bilimi va ishchanligiga hamma havas bilan qaraydi. Ortidan shogirdlari ergashib yuradi, ammo o'quvchiga uning ichki dunyosi, o'ylari, dardi, muhabbati kerak. Xo'sh, uning dardi nimada? U shu ishidagi zararli moddalar tufayli qizining ko'zi tug'ma zaif tug'ilganligini biladi, tunlari azob chekadi, ammo ishini ham sevadi, kechib ketolmaydi. Har tong otasiga ko'zoynak taqmayman deb xarxasha qilayotgan qizini, yig'laguday bo'lib bag'riga bosgancha maktabga eltadi. Tun-u kun o'zi neft, elektr ishlab chiqarsa-yu, uyga kelib gazzsiz, o'choqda tezak yoqib ovqat qilayotgan xotinini ko'radi. Keksas ota-onasining televizor ko'rishiga, ko'z nuri zaif bolalarining elektr yorug'ida kitob o'qishiga imkon bo'lmaydi, ammo u nolimaydi, tinmay mehnat qiladi, chidaydi va yangi konlar kashf etadi. Qahramonlik ortida qahramon ko'tara oladigan katta azoblar ham borligini unutmaylik.

Yozuvchi nima haqida "so'zlamasin", adolat tarozisi yonida turishi kerak. Manfaat-u qo'rqqoqlikni ijodxonada ortiq ushlab turmaylik.



**Baxtiyor  
ABDUG'AFUR**

**1. Bir vaqtlar "XXI-asrda Islom: Post-**

**modern dunyoda Qiblani topish"** kitobini o'qiganimda asar muallifi Abdulhakim Murod (Timoti J.Uinter) "*Homo occidentalis*" – "*G'arb odami*" degan atamani qo'llagan edi. Bu atama ko'proq ommaviy madaniyatning o'ylab topilgan, zo'r berib ommaning ongiga singdirishga urinlayotgan soxta "qadriyatlar" ruhida tarbiyalanayotgan odamga mos keladi. Umumbashariy qadriyatlar bu odamga begona. Globallashuvning bir salbiy jihati, aynan shu narsalarni dunyoning turli burchaklariga eksport qilayotganidir. Bu hodisa, ming afsuski, bizni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Bunga qarshi kurashuvchanlik immuniteti, ishonchim komil, xalqimiz va millatimizning asrlar davomida kamol topgan yuksak e'tiqodi, ko'hna qadriyatlari asosida shakllanadi. Fanda bir gap bor – tabiat bo'shliqni yomon ko'radi. Ijtimoiy hayotda ham shunday. Mafkuraviy tomondan himoyalansizlik millat o'zligini yo'qotishiga olib keladi. Shunday ekan, o'zini hurmat qilgan, kelajagini o'ylagan xalq bunga qarshi o'z so'zini aytmog'i shart. Zamonaviy nasrimizda bu borada izlanishlar ko'zga tashlanmoqda. Milliy ruhni tasvirlashda ijodkor, yuqorida aytganimdek, asrlar davomida shakllangan e'tiqodimiz, ko'hna qadriyatlarimiz va milliy zehniyatimizga tayanmog'i lozim. Agar ijodkor shaxsiyatida bu narsalar bo'lmas ekan, asarlari milliy o'zlikdan uzilishi, unga begona bo'lishi tabiiy holdir.



**2.** Bu savolingizga javob berish uchun yana “Postmodern dunyoda Qiblani topish” asaridagi bir fikrga murojaat qilaman. Muallifning fikri taxminan shunday: “Odamlar sayyoramizdagi so‘nggi kisloroddan nafas olayotgan bir fursatda masjidlarimizda hamon soqolni qancha uzunlikda qo‘yish haqida bahslashamiz...” Bugungi kun o‘zbek nasrida yozuvchilar juda ko‘p. Roman, qissa yoki hikoyalar e‘lon qilayotgan ijodkorlar safi tobora kengayib bormoqda. Lekin hayotni to‘laqonli yoritib bera oladigan asarlar juda kam. Bu, avvalo, ijodkorning saviyasi, dunyoqarashi va estetik didi bilan bog‘liq. Yil yakunlari bo‘yicha u yoki bu asarni maqtashgani, maxsus tadqiqotlar qilinganiga ko‘zimiz tushib qoladi. Lekin o‘sha asarni o‘qisangiz, nimadir kamga o‘xshayveradi. Asardan estetik zavq ololmaysiz. Zamonaviy dunyo adabiyotiga bir nazar tashlasangiz, undagi janrlar, e‘lon qilinayotgan yangi-yangi asarlardan boshingiz aylanadi, qay birini o‘qishni bilmay qolasiz. Jahon adabiyotidagi ham shaklan, ham mazmunan yangilanayotgan asarlardagi ijodiy metodlarni milliy nasrimizga ham olib kira olsak, o‘ylaymanki, jahon adabiyoti bilan bemaol raqobatlasha olamiz. Agar yaxshi asar yozilsa, qaysi tilda bo‘lmasin, uni, albatta, ingliz, nemis yoki fransuz tiliga tarjima qilishadi. Bizda esa xorij nashriyotlari o‘zlari talab qilib tarjima qilingan asarlar bormi-yo‘qmi – bilmayman. Bilganim, mualliflarning o‘zlari dunyo tillariga tarjima qilishib e‘lon qilishmoqda.

**3.** Shu narsani ko‘p o‘ylaganman. Po‘lat Alemdar bosh qahramoni bo‘lgan “Qashqirlar makoni” serialini ko‘rganimdan keyin zamonaviy milliy qahramonni yoritish ishtiyoqi uyg‘ondi. Shundan ilhomlanib “Oltinchi yo‘lak” asarini yozgandim. Unda tasavvurimdagi zamonaviy qahramonni tasvirlashga harakat qilganman. Zamonaviy qahramonni gavdalantirishda ijodkorning o‘zi undan kam bo‘lmasligi kerak. Xohlaymizmi-yo‘qmi, ijodkor o‘zidan oshirib yozolmaydi, fikrlay olmaydi. Agar yozuvchi fikrda orqada bo‘lsa, unda bu narsaga qo‘l urmagan ma‘qul. Fikrimcha, zamonaviy

qahramon milliy o‘zlikni o‘zida saqlagan, shu bilan birga, aqlli, uddaburon, dunyo ilmidan xabardor bo‘lmog‘i lozim. Tasavvurimdagi zamon qahramonini o‘sha asarimdagi bosh qahramon misolida tasvirlaydigan bo‘lsam, u maxsus xizmatlar xodimi, universitetda ijtimoiy-gumanitar fanlarni chuqur o‘zlashtirgan, milliy tariximizni puxta biladigan, ayni vaqtda, geopolitika bo‘yicha benazir mutaxassis. Uning ilmiy-tahliliy maqolalari xorijiy veb-saytlarda e‘lon qilib boriladi. Uning boshlig‘i esa bir suhbatda uni maqtaydi: “maqolalaringni o‘qib bir mazza qilaman, shunaqa gaplarni qayerdan topasan, a?” Asarda u boshlig‘i polkovnik bilan shaxmat o‘yinida bugungi kun geosiyosati va undagi o‘yinlarni nozik tahlil qiladi va har bir yurishida hozirgi zamonaviy o‘yinchilar haqida mantiqli fikrlar bildiradi. Boshqa tomondan, u maxsus xizmatlar xodimi – harbiy. SVD-7.55 vintovkasida ishlaydigan mohir snayper, bir qancha amaliyotlar-loyihalarda qatnashib nomi tillarga tushgan keskin nishonchi. Oddiy o‘quvchilarda savol tug‘ilishi mumkin: bunda xarakter mantig‘i buzilmaganmi? Bir kishi ham siyosatchi, ham snayper. Ustiga-ustak, ilmiy maqolalar yoza-di. Hozirgi kundagi odamlarni kuzatar ekanman, bu narsa oddiy holatga ishonish mumkin deb bilaman. Bekorga ruslar “Талантливый человек талантливый во всем”, demaydi. Demak, xalqimizda bunday kishilar bo‘lishi tabiiy, qolaversa, tariximiz o‘zi guvoh. Bobur – ham shoir, ham sarkarda, ham olim-u yozuvchi. Uning avlodlari ham shunday bo‘lishiga shubha yo‘q. Ana shunday xislatli qahramonlarni badiiy gavdalantirishni o‘ylagandim. Qanchadan-qancha mutaxassislarimiz xorijiy kompaniya va tadqiqot muassasalarida ishlashmoqda, izlanishlar olib borishmoqda. Shunday ekan, zamonaviy qahramon obrazini yaratishda istiholaga berilmaslik kerak degan fikrdaman.

Bu bilan bizda zamon ruhini aks ettiradigan asarlar ham yo‘q deyolmayman. Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asarida transgenezning ayrim falsafiy muammolarini qalamga oladi. Bu asar ham adabiyotimizda ancha shov-shuv ko‘tardi.



**Huseyin BAYDEMIR,**  
filologiya fanlari doktori,  
Otaturk universiteti professori

## O'zbek eli o'r keladi, o'zi o'jar zo'r keladi

Tog'ay Murod asarlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan eng ko'p foydalangan yozuvchilardan biridir. Uning asarlarini o'qigan chet ellik, o'zbek etnografiyasi va xalq og'zaki ijodi haqida hech qanday ma'lumoti bo'lmasa ham, bu madaniyat haqida anchagina bilimga ega bo'ladi. Tog'ay Murod kabi yozuvchilar o'z xalqiga ikki taraflama xizmat qilishyapti. Birinchisi, asarlarida xalq madaniyatini jonlantirib, unutilib ketishidan saqlab qolishyapti. Ikkinchisi esa, o'z madaniyatlarini dunyoga tanitishyapti. Qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning asarlari ham bunga misol bo'la oladi. Qirg'iz madaniyatining yashashi va dunyoga tanilishida uning asarlari katta ahamiyatga ega. Aytmatovning asarlari dunyoning to'rt tarafida o'qilishi bilan bir qatorda qirg'iz xalq madaniyati ham dunyoning

to'rt tarafida tanilib boryapti. Davlatlar, hukumatlar katta miqdorda sarmoya ajratmasin, baribir millatni tanitishda yozuvchi – san'atkorchalik samarali natijaga erisha olmaydilar. Yozuvchi kuchli tasvirlarga boy bir asari bilan o'z madaniyatini o'quvchilariga osonlik bilan yetkazishi mumkin. Bu jihatdan Tog'ay Murodning asarlari o'zbek madaniyatini tanitish borasida misli ko'rilmagan ahamiyatga ega. O'zbek madaniyatini tanitishga mas'ul shaxslar va tanitishni istaganlar bu muhtasham asarlarni dunyo tillariga tarjima qilishni tezroq boshlashlari kerak deb o'ylayman.

“Ot kishnagan oqshom” qissasining asosiy mavzusi ko'pkaridir. Bu qissa ayni paytda ko'pkari va ot ensiklopediyasiga ham o'xshab ketadi. Yozuvchi o'zbek xalqining ko'pkari va ot haqida necha asrlardan beri orttirgan tajribasini o'quvchiga yetkazadi. Asarning orqa planida esa an'ana-tuzum o'rtasidagi kurash ko'rsatilgan. An'ana eskini, tuzum yangini tamsil qiladi. Ziyodullaning mavqeyi, ya'ni dunyosini bu kurashdagi qismlar belgilab beradi. Ziyodulla urf-odatlar va an'analariga sodiq, durust, saxovati, ochiq ko'ngil bir qahramondir. U an'anaviylikni tamsil qilyapti va kurashning bir tarafidir. Qarshisida esa sovet tuzumining tamsillari, ya'ni rasmiy idoralarda ishlaydigan shaxslar turadi. Ziyodulla shifoxonadan shifo topmaydi, sochlari to'kiladi; maktabda o'zini kamsitilgan his qiladi va o'qishni tashlaydi. Cho'ponlik qila boshlaydi va bu bilan birgalikda baxshilik san'atini ham o'rganadi. Bu yerda tuzumdan an'anaviylikka o'tish bor. U bundan keyin tamoman an'ana tarafida bo'ladi. Bir ot olib, ko'pkariga tayyorlay boshlaydi. Qirq kun otni yopiq joyda boqadi. (Go'ro'g'li dostonining Turkiston va Onado'li nusxalarida ham Go'ro'g'li-ning G'iroti qirq kun yopiq joyda boqib yetishtiriladi). Ziyodulla ham bir doston qahramoni kabi otga bog'lanib qoladi. Tarlon oti uning eng yaqin do'sti, sirdoshidir. Go'ro'g'li uchun G'iroti qanday bo'lsa, Ziyodulla uchun ham Tarlon shunday qadrlil bor-yo'g'i edi. Davlat buyrug'i ostida barcha otlar to'planib so'yilishga olib ketilayotgan paytda Ziyodulla otini asrab qoladi, bermaydi. Chunki ot uning xonumoni – bor-yo'g'i. Ot uni o'tmishiga – Alpomishga, Kuntug'mishga bog'laydi. Otni berganida o'tmishidan ham ayrilar edi. Yozuvchi, Ziyodullaga qarshi tuzum tarafdori Rixsiyevni chiqaradi. Qiziq tarafi, Ziyodulla bilan Rixsiyev bir qishloqda tug'ilib katta bo'lishgan. Rixsiyev tuzum maktablarida ta'lim olgani uchun tuyg'ularini yo'qotgan, o'tmishidan va xalqidan ajralib qolgan edi. O'zbek madani-

yatini kamsitadigan holga kelib qolgan edi. Asarda o'sha zamon tuzumini ifodalovchi personajlardan yana biri harbiy bo'linmadagi askarlar va boshqasi shifoxonadagi shifokorlar edi. Ziyodulla hech aybsiz harbiy bo'linmada kaltaklanadi. Qo'li chiqib qolganida shifokorlar qo'lini joyiga tushurmasdan gips qilishadi. Ziyodullaning chiqqan qo'lini tabib joyiga tushirib qo'yadi.

Asarda madaniyatlar to'qnashuvining muhim o'lchovini ikki taraf ishlatgan til ifoda-

laydi. Ikki taraf ishlatgan tillar ochiqchasiga bir-biriga begonadir. Tuzum tarafini tamsil qilgan shaxslar ruscha va o'zbekchani aralashtirib gapirishyapti. Ularning ishlatgan so'zlari Ziyodullaning dunyosiga umuman to'g'ri kelmaydi. Ziyodulla ishlatgan maqollar va iboralar o'quvchini o'ziga rom qiladi, sof o'zbekcha so'zlaydi. Asarda quyida aniqlaganimiz maqollarning barchasi Ziyodullaning

tilidan berilgan. Maqollar jamiyatning umumtafakkuri bilan yaratilgani uchun, ichida yashayotgan jamiyatni dunyoga va hayotga qarashlarini, qadrlarini, hukmlarini o'tkazadilar. Shuning uchun maqollar milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar davom etayotgan joylarda va o'sha muhitda ko'p ishlatiladi. Shu ma'noda asarda kelgan barcha maqollarning Ziyodulla orqali gapirtirilishi tabiiy holdir. Bu bir tasodif emas, chunki o'zbek xalqining xotirasini Ziyodulla tamsil qilyapti. Ziyodulla oddiygina inson emas... U ayni paytda asrlardan beri kelayotgan madaniy qadriyatlardan, an'analardir, xalqdir!

Maqollar qisqa bo'lishiga qaramay, og'zaki adabiyotning eng didaktik xususiyatga ega turidir. Bu qisqa jumlar ichiga ulkan ma'no singdirilgan. Tog'ay Murod maqollarning didaktik kuchidan iloji boricha ko'proq foydalangan.

Maqollar va iboralar adabiy asarlarining gultojidir. Asarning tilini yana ham o'qishli va jozibali qiladi. Ma'lumki Tog'ay Murodning barcha asarlarida bo'lgani kabi ushbu qissada ham o'ziga xos va ajoyib tili, uslubi bor. O'quvchini o'ziga rom qilgan bu go'zal ifoda ko'p ishlatilgan maqollar bilan yana ham tabiiy, yana ham muhtasham qilingan.

Ushbu asarda jami qirq ikkita maqol qo'llanilgan bo'lib, ularning eng ko'pini ot bilan bog'liq maqollar tashkil qiladi. Bu esa asarning mavzusi bilan bevosita bog'liqdir. O'zbek xalqi madaniyatida ot bilan bog'liq maqollarning soni, maqolga o'xshash iboralarni ham qo'shib hisoblaganda, yuzdan ortiq. Yozuvchi bular orasidan aytilishi juda osonlarini tanlab olganini ko'rdik. Keyingi navbatda uylanish va kallik bilan bog'liq maqollar keladi. Asarning orqa planida bu mavzular ham yoritilgani uchun yozuvchi bu maqollarning ma'no kuchidan foydalangan.

Quyida keltirilgan maqollar asarda kelish navbatiga ko'ra berilgan. Ikkinchi darajada joy olgan maqoldan tashqari hammasi asarda bir marta ishlatilgan.



**1.** Kambag'alni tuyaning ustida it qopadi.

**2.** Ot olsang, Oboqlidan ol, ayol olsang, Irg'alidan ol.

**3.** Ot olsang, ho'kiz qorindan ol, ho'kiz olsang, ot qorindan ol.

**4.** Oti borning qanoti bor.

**5.** Ot bitdi, qanot bitdi.

**6.** Otangni ko'rdim – ahmadi forig', onangni ko'rdim – tovonni yoriq.

**7.** Ko'rpangga qarab oyoq uzat.

**8.** Bor bo'lsa ko'rolmaydi, yo'q bo'lsa berolmaydi.

**9.** Kalning nimasi bor, temir tarog'i bor.

**10.** Otga minsang, boshingni o'yla, yerga tushsang, otingni o'yla.

**11.** Ot tepkisini ot ko'taradi.

**12.** Odam so'zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi.

**13.** Oshingni yesa-da mard yesin, boshingni yesa-da mard yesin.

**14.** Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi.

**15.** Eshak yiqitsa, tuyog'ini to'shaydi, ot yiqitsa, yolini to'shaydi.

**16.** Yomondan qoch-da qutul, yo, ton-da qutul.

**17.** O'zbek eli o'r keladi, o'zi o'jar zo'r keladi.

**18.** O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir.

**19.** Yolg'iz otning changi chiqmaydi, changi chiqsa-da dong'i chiqmaydi.

**20.** Bir kalning hiylasi qirq kishini charchatadi.





**21.** Haq saqlasa balo yo'q, Haq qarg'asa davo yo'q.

**22.** O'zing yaxshi olam yaxshi, o'zing yomon olam yomon.

**23.** Orachiga olti tayoq.

**24.** Nasib etsa kelar Shom-u Iroqdan, nasib yetsa ketar qosh-u qaboqdan.

**33.** Elning qulog'i ellikta.

**25.** Davlat-da egiz-egiz, mehnat-da egiz-egiz.

**34.** Indamagin kalga, o'zi kelar holga.

**26.** Qazisan, qartasan, asli naslingga tortasan.

**35.** Kal o'zini ovutar, qo'ltig'ini sovutar.

**27.** Kuyovni payg'ambarlar-da siylagan.

**36.** Yaxshi otdan yiqilsa, yomon ta'nachi bo'ladi.

**28.** Bo'ydoqning aqli ikki ko'zida bo'ladi.

**37.** Og'zing qora qon bo'lsa-da, g'animing oldida tupurma.

**29.** Yigitning boshi ikkita bo'lmagunicha moli ikkita bo'lmaydi.

**38.** Eshak egasini tanimaydi, pishak bekasini tanimaydi.

**30.** Yosh yigit ko'zi bilan qiz olma.

**39.** Yomon gap raketadan oldin yuradi, yaxshi gap toshbaqadan keyin yuradi.

**31.** Yosh bolaga ish buyur-u, izidan o'zing yugur.

**40.** El og'ziga elak tutib bo'lmaydi.

**41.** Kuygan o'lanchi bo'ladi, suygan laparchi bo'ladi.

**32.** Bir yaxshiga bir yomon har yerda bor.

**42.** Osmon olis, yer qattiq.

\* Murod, Tog'ay (2018). "Ot kishnagan oqshom", Tanlangan Asarlar (Romanlar, Qissalar). (Nashrga tayyorlovchi: Ma'suma Ahmedova). Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, b. 409-496.



Shavkat ODILJON

# Sirot kabi nozikdir taqdir

\* \* \*

*Osmon bilan yerning orasi  
buncha qisqa, bunchalar qisqa.  
yurak bilan dilning orasi  
balogardon hamma yumushga.  
kunlar bug'doy donasi kabi  
sitoladi ongingda bir-bir.  
nozik ekan tunlarning ta'bi,  
sirot kabi nozikdir taqdir.  
termiladi ko'kda bitta ruh,  
balki uning nomi erur Oy  
va o'sha ruh beradi shukuh,  
shukr, chindan mavjuddir Xudoy.  
men bormanki, borlig'im tilsim,  
tirikligim misli chaqindir.  
men bilaman, mehribon o'lim  
Har nafasim kabi yaqindir.  
osmon bilan yerni ayirmoq —  
ajratmoqdir bandani Haqdan.  
yurak bilan dilni ayirmoq —  
ajratishdir etni tirnoqdan.  
men yeranmi va yoki osmon —  
umr oqib bormoqda sokin.  
osmon bo'lib zamindan pastman,  
zamindirman osmonga yaqin.*



\* \* \*

Ketmang dedi, uzoq yalindi.  
Men o'zimni soldim lohasga.  
Yuragimning yarmi tilindi.  
Va o'zimni tashladim pastga.  
Tez orada qaytaman dedim.  
Zirqirardi har bitta tolam.  
Men o'shanda juda yosh edim.  
Ko'rinmasdi ko'zimga bolam.  
Qaytaman deb so'z bering, dedi.  
Nimanidir hayqirib aytdim.  
Qaytdim,  
qaytmoq ko'p og'ir edi.  
Men o'zimni yo'qotib qaytdim.  
Endi vijdon qiynaydi meni.  
Qanday chiqay, axir, bu jardan.  
Ne farqim bor ming va'da berib.  
Urushdan qaytmagan askardan?  
Ketmang dedi, qolsaydim shu tob.  
O'ylarimning bari havoyi.  
Bolam – she'rim, yalingan – kitob.  
Faqat chorlagandi Navoiy.

\* \* \*

Dardlarimni ichga yutdim hammasini,  
Butun umr go'yo azob tortgandayman.  
Ko'tarolmay o'z aksimning hamlasini,  
Ich-ichimdan nurab borayotgandayman.

Bilmaysiz-da, menda mayda dardlar emas,  
Olamshumul iztiroblar bergan iz bor.  
Hayotimda faqatgina gardlar emas,  
Olamlarni qamal qilgan bitta qiz bor...

Dard g'aribi, yuz sorig'i bo'ldim netay,  
Es-hushimdan, bor-yo'g'imdan qilgin judo.  
Ich-ichimdan nurab borayotganimda,  
Ich-ichimda meni bunyod aylay, Xudo!

\* \* \*

Tushlarimga kirasiz tinmay –  
Shu hayotdan o'rganganingiz.  
Yashayvering sira o'ksinmay,  
Yolg'on – yaxshi ko'rganlaringiz.  
Ammo Sizga behad tashakkur,  
Menda taqdir gunoh-savobi.  
Siz o'zimdan begona qilib,  
Tanitdingiz menga Xudoni.  
Gohi shodman, gohida tushkun,  
Umrim uzra nedir yopgansiz!  
Menga azob berib kun-u tun  
Nima derdim rohat topsangiz.  
Aldar ekan ko'ngil ham ba'zan,  
Yolg'onlarning ustida jamman.  
O'z ko'ngliga quloq solib so'ng  
Birinchi pand yegan odamman.  
Men bilaman, sizda ham qon dil,  
Tushlarimga kirasiz tinmay.  
Xudo, axir, hammadan odil,  
Yashayvering sira o'ksinmay.  
Rosti, Sizni yaxshi ko'raman,  
Axir, siz ham menga ko'z tikkan.  
Ikki olam aro Siz menga  
Ko'zmunchoqsiz o'zi ko'zikkan.

## BO'YQIZ HAQIDA SHE'R

To'rt fasl bu ko'cha menga qadrdon,  
Mana, necha yilki sabrimni sinar.  
Oddiy somonshuvoq bo'lgan xonadon  
Qishda ham ko'zimga issiq ko'rinar.  
Bir kunda ming marta o'taman bundan,  
Sababin hech kimga aytmayman dangal.  
Xotirjamlik ketar. Har kuni tunda  
Bu uy o'ylarimga soladi changal.  
Har manzilga eltar yaqinroq yo'l bor,  
Lekin oshiq tersga borganin ko'ring.  
Nima qilsin, shu uy qilsa gar xumor,  
Nodon oyog'idan horganin ko'ring.  
Bahona topilmas ochiqdir darcha,  
Ne holga tushyapman kun o'tgan sayin?  
O'ligi bor bir kun yig'laydi, garchi  
Jinnisi bor har kun yig'lashi tayin.  
Axir, tushayapman mana ne ko'yga?  
Nechun o'zni buncha qilyapman sayyor.  
Hech kimsa sezmaydi, axir, bu uyda  
Bo'yi tandirdan past, bo'y yetgan qiz bor!



**Sayyora  
XOLMIRZAYEVA**

## Ukajonim, Jahongir...

Yashash – bu ertangi kunga umid bilan qarashmi? Qo'yilgan maqsad-u orzular sari intilishmi? Umr yo'llarimizni, o'tgan yillarimizni, quvonchli va baxtli damlarimizni yodga olib, shukronalik qilishmi? Har bir o'tayotgan kunimizdan ma'no-yu yupanch izlashmi? Ushalmagan orzularimiz, kimgadir aytilmay qolgan, mehrlil so'zlarimizning armonimi? Kutilmagan qiyinchiliklar-u hayotning turli zarbalariga chidab, yengib o'tishmi? Hayotning har bir kuni tuhfa, g'animat ekanligini qadrlashmi?

Ukajonim, Jahongir, sen oilamizda farzandlardan kenjasi eding, hammamiz seni bolaligingdan erkalatardik, ra'yingga qarardik, yaxshi ko'rardik. Seni, kipriklari uzun, ko'zlari katta-katta chiroyli bolachani, qo'ldan qo'yimay ko'tarib yurardik.

Barchamizni g'afatda qoldirib, nega buvijonim va adajonimning yonlariga borishga bunchalar shoshilding, ukajon! Hali o'ylagan ishlaring, ertangi kundan bizga aytgan, aytmagan umidlaring, ishonchlaring bor edi-ku!

Qaysi damlarni eslay, ukajonim. Bundan 43 yil avval, 1974-yilning 7-avgust kuni (kuchli shamol turgandi o'shanda) tug'ilganingnimi, buvim, adam, men, Jamshid sen bilan opamni tug'uruqxonadan chiqishinglarda kutib olganimiz, keyin Tinchlikdagi hovlimizga (o'sha paytlar yozda hovlida yashar edik) borganimiznimi, seni bolalar bog'chasidan olib kelishlarimnimi yoki ilk hikoyang chop etilgandagi quvonchlaringnimi?

Bolaligingda yakshanba kunlari hayvonot bog'iga olib borishimizni so'rarding. Galma-gal, ba'zan adam, ba'zan opam, ba'zan men bo'sh vaqtimizga qarab seni u yerga yetaklardik (u paytlar hayvonot bog'i uyimizga yaqin joyda edi). Sen bolaligingdan sayohatlarga chiqib, yurt kezhishni yaxshi ko'rib voyaga yetding. Ikki-uch yoshingdan boshlab opam bilan yozgi ta'tilda Kavkaz, Qrim, Sochi, Issiqko'l kabi dam olish maskanlariga borarding. Men ham, akang Jamshid ham talaba edik. Adam esa har yili sizlar bilan dam olishga birga borishga va'da berardilar-u, lekin yaqinlashganda doimgidek ishlarini (yozayotgan asarlarini to'xtatishga) ko'zlari qiymasdi. Buvim, adam, men va Jamshid sizlarning qaytishinglarni intilish bilan kutardik. Kelgach esa, sen opamga ham gap bermay, ko'rgan joylaring, narsalaring, bo'lgan voqealar haqidagi taassurotlaringni aytib charchamasding. Hammamizga sovg'alar, o'sha yurtning biror belgisini bildiruvchi yodgorliklar olib kelardinglar. O'sha yillardan odat bo'lib qolgan bo'lsa kerak, ulg'ayganingda ham turli sovg'alarni yaqinlaringga, do'stlaringga hadya etishni kanda qilmasding. Senga ham yodgorliklar, sovg'alar berishganda xursand bo'larding. O'z xonangda turli yurtlardan keltirilgan yodgorliklar, buyumlar xuddi o'sha mamlakat tarixi haqida so'zlayotgandek qatorlashib turardi. Rus tilli bog'chaga borganliging va rus maktabida ta'lim olganliging sababli ba'zan ruscha so'zlarni ham aralashtirib gapirarding. Keyinchalik o'zbek tilida sof, chiroyli so'zlaydigan bo'lding.

Ukajonim, sening qo'lyozmalaring, turli yillardagi gazeta, jurnal va adabiy to'plamlarda chop etilgan asarlaring nusxalari, hujjatlaring, kerakli qog'ozlaring qo'limda, o'zing hammasini yillar davomida yig'majildga to'plab yurgan ekansan. Voy, Jahongirim-ey, bular sen uchun qanchalar muhim, qadrlil bo'lganligini va senga quvonchli, baxtli onlarni in'om qilganlarini bilaman.

“Zarya Surxana” gazetasida (1995-yil, iyul) “Aborigen” nomli ilk hikoyang chop etilganida endigina 20 yoshda eding. Mana, bir necha nusxada olib

qo‘ygan ekansan. Keyinchalik, 2013-yilda betob holingda bu hikoyaning yaratilishi, umuman adabiyot olamiga kirib kelishing, adam bilan ijod haqida qilingan suhbatlar haqida “Ilk qadam” nomli essengni yozding. Hozir shu esseni qayta varaqlar ekanman, unda men uchun eng yaqin insonlarim – adam va sening siymong gavalanadi. “Tong yulduzi” gazetasining bir nechta sonlarida (1996-yil, iyul-avgust) “Faqat hayot abadiy” nomli ilk qissang “Chaqnayotgan yulduz” rukni ostida so‘zboshi bilan chop etilgach, adabiyotshunoslar, ijodkorlar, kitobxonlarning e‘tiborini tortib, og‘izga tushgan eding. Birin-ketin “Oltinchi hukm”, “O‘tgan kunlardan”, “Ovchi”, “O‘lmagan jondan umid” kabi hikoyalaring gazeta va jurnallarda chop etilgandi. Hali asarlaring kitob holida jamlanmay turib, 1997-yildayoq O. Yoqubov, Shukrullo kabi ijodkorlarning, A. Musaqulov, B. Sarimsoqov kabi olimlarning seni Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilishga bergan tavsiyanomalari saqlanib qolgan. Sen esa Yozuvchilar uyushmasiga a‘zo bo‘lishga shoshilmading. “Hali ulguraman. Asosiysi, yozganlarim ma‘qul bo‘lyap-

ti-ku,” deganding kulib. Asarlaring ham rus tilida, ham o‘zbek tilida bosilardi. Rus tilida yozganing uchun ularni o‘zbek tiliga adam bilan birga o‘tirib tarjima qilardinglar.

1998-yilda Zominda o‘tkazilgan Yosh ijodkorlar tanlov-seminarida qatnashib, nasr bo‘yicha 1-o‘rinni egallaganingda adam bilan opamning qanchalar quvonganlarini, sen bilan faxrlanishganini hamon eslayman. Sen u yerda yangi do‘stlar orttirding, o‘zingni yana bir sinovdan o‘tkazding. O‘zingga, kelajagingga ishonching yanada ortdi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Oliy Adabiyot kursiga 2001-yilda qabul qilinib, 2003-yilda a‘lo baholariga tamomlading. Mana, qo‘limda diploming, unga berilgan ilova. Tabriklar... Kursdoshlaring Ne‘mat Hayrat, Davron Rajablar bilan bir umrlik yaqin do‘stlarga aylandinglar. “Orzu daraxti”, “Sovg‘a”,

“Umid”, “To‘yga to‘yona” kabi hikoyalaring, “Xush, qol...” nomli yangi qissang hamda “Yigirma yildan so‘ng”, “So‘nggi romantik” kabi esselaring ham kitobxonlar tomonidan yaxshi kutib olindi.

Hayotingdagi hamma voqealar bir oqimda kutilganidan ko‘ra yaxshiroq, o‘zing xohlagandek ketayotgan edi, hatto bir-ikkita nashriyotlar o‘zlari kitobingni chop ettirish istagini bildirgandilar.

Shunda biz mutlaqo o‘ylamagan, yetti uxlab tushimizga kirmagan, xayolga ham kelmagan voqealar bo‘lib ketdi-ya! Sen, ha, sen ko‘zingdan shikoyat qila boshlading, atrof butunlay xiralashib ketayotganini aytding. Bizlar avvaliga ajablandik, sababini tushunmadik, chunki bolaligingdan hech qachon ko‘zingda muammo bo‘lmagan edi. Ko‘zingning xiralashishi kuchayotganligi hammamizni tashvishga solgandi. Adam bilan opam seni eng kuchli doktorlarga ko‘rsatdilar, bir necha bor operatsiya ham qildirishdi. Lekin tashxis o‘zgarmadi, ko‘zning asab tolalarida qurish, ya‘ni jarohatlanish yuz bergan, tiklanmaydi, deyishgandi. Ko‘zning bu ahvolga kelishiga kuchli toliqish, mingit yoki miya chayqalishining asorati sabab qilib ko‘rsatilgandi. Vrachlardan iborat komissiya seni mehnatga layoqatsiz deb topishib, umrbodga 2-guruh nogironligini belgilashgandi. Ko‘zingning qolgan besh foizini saqlab qolish uchun ham muntazam davolanishing kerakligini ta‘kidlashgan edi. Bu o‘rtada 2005-yilning 29-sentabr kuni oilamizning suyangan tog‘i, mehribon adajonimiz Shukur Xolmirzayev vafot etdilar. Hamma narsa tamom bo‘ldi, deb o‘yladim, hatto men ham qanday yashashni, qayerdan kuch olishni bilmay qoldim. O‘shanda opamga qanday dalda bo‘lishni, bu og‘riqlarni, qayg‘ularni yengib o‘tishlariga qanday yordam bera olishimni ham bilolmay qolgandim. A. Navoiy bobomiz aytganlaridek, “sabr etagini tutish, barcha qiyinchiliklarni sabr-chidam bilan yengish” dan boshqa ilojimiz yo‘q edi.

Dard kelsa, qo‘shaloq keladi, deb shuni aytsalar kerak-da. 2007-yilning yozida g‘ira-shira qorong‘ida mashina yo‘lidan o‘tayotganingda mashina yaqinlashganini



sezmay qolib, avtohalokatga uchraganing oilamiz uchun yana bitta og'ir musibat bo'ldi. Ukajonim, omon qolganingga shukur qildik. Bir necha oy kasalxonada yotganingdan so'ng (umurtqangni operatsiya ham qilishgandi) uyga ruxsat berishdi. Doimiy massajlardan, jismoniy harakatlardan so'ng, bir qo'lda devorni ushlab, ikkinchi qo'lda hassa bilan turishni mashq qila boshlading. Ketma-ket kelgan kasalliklar, turli mayda gaplar, oilaviy notinchlik seni tushkunlikka tushirib yubordi, hamma narsaga qo'l siltading. Hayotning kutilmagan evrilishlari yonida o'zingni butunlay ojiz sezding. Hayot tugagandek tuyildi – yozmay qo'yding. Hatto yaqin do'stlaring seni bunday bemor holda ko'rishlarini, achinib qarashlarini istamasding. Uyga ham eng yaqinlargina keladigan bo'ldi. Opam va senga qarovchi hamshiragina asl holatingdan xabardor edilar. Vaqti kelsa, menga ham og'riqlaringni bildirging kelmasdi, sezdirmaslikka, o'zingni tetik, bardam tutishga harakat qilarding.

Birin-ketin kunlar, oylar, hatto yillar ham o'ta boshladi. Sen asta-sekin shunday holatda yashashga o'zingni ko'niktirib boshlading, moslashishga urinding.

Ukajonim, senga yashashga kuch beradigan yagona narsa – bu qalam tebratish, yozish ehtiyoji ekanligini aytganingda, seni ruhlantiradigan gaplar aytgandim-u, o'zim esa boshqa xonaga chiqib ko'zyoshlarimni artgandim. Shunda, esingdami, Jahongir, opamga nimalar deganing, kechagidek yodimda turibdi-ya. Sen: “Opa, ko'chaga chiqqaningizda ikkita qalin daftar, ikkita ruchka olib keling. Yozishni boshlayman. Qatori tekis bo'lmasligi mumkin, mayli, sekin-sekin mashq qilaman. Keyin o'zingiz chiroyli qilib ko'chirib, menga o'qib berasiz”, deding. Endi sening yostig'ing yonida qalin daftar (ichida ruchkasi bilan) paydo bo'ldi. Kunlarning birida “И это пройдёт” (“Bu kunlar ham o'tib ketar”) nomli essengni tugatganingni, hozir opam uni daftardan oq qog'ozga ko'chirayotganlarini aytganingda, ovozingdagi qat'iylik, dalillik meni quvontirgandi, o'zingdan qoniqish hissi paydo bo'lgani shunday sezilib turardi.

Ukajonim-a, bir boshingga shuncha narsa-ya. Esseni opam yana bir necha marta o'zingga o'qib berganlaridan keyin so'nggi nuqtani qo'yding. Endi esseni rus tilidan o'zbek tiliga o'girish masalasi turardi. Bu masalani hal qilishni men o'z bo'ynimga olgandim. U yoq-bu yoqdan surishtirib, shoir Muhiddin Omon badiiy asarlarning tarjimasini bilan shug'ullanishini bilgach, unga berib kelgan edim.

Bir necha oydan keyin esse “A'lo kayfiyat” (2011) jurnalida chop etilgandi. Keyingi yillarda “Tumor” (2012), “Ilk qadam” (2013), “Yettinchi hayot” (2014) nomli avtobiografik esselarni yozding. Asarlaring chop etilgan gazeta va jurnallarni paypaslab ushlab, xursand bo'lding.

Jahongir, o'zingga hech qachon aytmagan ekanman, endi aytaman – sen kuchli inson eding. Bir necha yillar davomida ko'rpa-to'shakka mixlanib, uydan tashqariga chiqolmay qolganingda ham yashashdan ma'no-mazmun izlading, hayotning bergan quvonchli damlariga shukronalik qilding, ertangi kunga rejalar tuzib, umid bilan qarading, yaqinlaringga hamdard bo'lding, jiyanlaring kelajagiga ishonch bilan qarading va ularning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatding. Hayotni boricha qabul qilishni o'rganding.

Jahongirim, bolalarni, yosh bolachalarni qanchalar yaxshi ko'rarding. Tanishlarimizning, qo'shnilarimizning farzandlarini uyga to'plab, ular bilan gaplashib, hazillashib-kulishib o'tirarding. Ular ham senga intilishardi. Lekin o'z farzanding sendan yiroqda edi, diydoriga to'ya olmading. Unga ham butun umrlik armon bo'lib qolganingni yillar o'tgan sari yanada his qiladi. Mening ikki o'g'lim uchun esa sen ham tog'a, ham do'st, ham sirdosh eding. Ularga kichkintoyligidanoq bo'lakcha mehr bilan qarading, umring davomida ularning o'qishi, qiziqishi, intilishi, tarbiyasi sen uchun muhim edi, ular ham buni qadrlardilar. Sen qanchalik yaxshi ko'rgan bo'lsang, ular ham sendan kam yaxshi ko'rishmas edi.

Ukajonim, qalbing keng edi, kundalik hayotdagi ba'zi arzimas narsalardan xafa bo'lganimni eshitib, menga suyanch bo'larding, ko'nglimni ko'tararding. Men har gal borganimda, ovozimni eshitish bilan yotgan joyingdan so'rashishni boshlarding. Men esa shosha-shosha yangiliklarni gapirib ketardim. Sen ham shuni poylab turgandek, jiddiy tinglarding. Opam xontaxtani turli yeguliklar bilan to'ldirib tashlardilar, keyin o'tirib choy ichardik. Ba'zan hazillashib, “Zerikkan paytlarimda meni hamma gapimni so'zsiz tinglaydigan, e'tiroz bildirmaydigan, fikrimga doim qo'shiladigan ayiqcham bor”, – deb qo'yarding. Darhaqiqat, kulrang ayiqcha karavotningning bo'sh joyini egallab, senga qarab o'tirardi.

Uyning to'rida sening eng baxtli damlaringdan xotira bo'lib do'sting, rassom Abdujabbor Erminovning “Jahongir” nomli portreti osig'liq turardi, endi shu portretdan hammamizga qarab, kuzatib turibsan-a...

Asarlaring matbuotda chiqa boshlagach, tanish-bilishlar, do'stlaring, adamning shogirdlari qo'ng'iroq qilib hol-ahvol so'raydigan, esselaring haqida fikr bildiradigan bo'lishdi. Ularning uyga ham kelib turishlaridan, adabiyot, san'at haqida, umuman, turli mavzularda suhbatlashib o'tirishlaridan quvonarding, nafaqat quvonarding, balki bir necha kun ko'tarinki kayfiyatda bo'larding.

Klassik kinolar (ovozini eshiktarding), qo'shiq-u musiqalarning, badiiy asarlarning diskklarini sotib oldirar eding. Umuman, musiqalarni, qo'shiqlarni tinglashni yaxshi ko'rish hammamizga xos, shekilli, bilasan-ku, adam ham qo'shiq tinglashni yoqtirardilar, ba'zan qo'shilishib xirgoyi ham qilardilar. Men ham yaxshi qo'shiqlarni tinglab, rohatlanaman, qaysidir ma'noda ulardan malham izlayman. Sen ham o'rinda yotgancha, yod bo'lib ketgan qo'shiqlarni qayta-qayta tinglab o'ylaring. Nimalar haqida o'ylarding, ukajonim, qo'shiqlar qay kunlaringni yodingga solardi-a?

Jahongirim, kuni kecha qabringga borib bir dasta oppoq gul qo'yib keldim. Qaragin-a, qaysi gullarni yaxshi ko'rishingni bilmas ekanman. Chunki shu paytgacha sen menga gullar sovg'a qilarding, hatto so'nggi yillarda ham bayram va tug'ilgan kunlarimda kuryer orqali yuborarding. Men esa senga qo'ng'iroq qilib, gullarni keltirishganini aytib minnatdorlik bildirardim.

Do'rmondagi dala-hovlimizdan xabar olgani borar ekanman, Yozuvchilar bog'ining yonidan o'tib ketayotib, shu yerda sen ilk bora, 21 yoshingda Gulchehrani uchratganing, baxtiyor damlarni boshdan

o'tkazganingni eslayman. Bor ovozimni to'ldirib, "Jahongir", deb baqirgim keladi. Lekin har qancha baqirmay, hech kim ko'rinmaydi, hech qanday sado chiqmaydi...

Qo'limda sening daftarga yoza boshlagan ikkita chala hikoyang. Biri "Uzbek", ikkinchisi "Когда засыпают ангелы" deb nomlangan. Ukajonim, yotgan joyingda sekin karavotingga o'tirib: "Опа, men yozuvchiman-a, hali ko'p asarlar yozaman-a", - der eding. Yozuvchilar uyushmasi kitobingni chop etishiga bosh-qosh bo'layotgani hamda uyushmaga a'zo qilishni ham tezlatish niyatida ekanliklari hammamiz uchun orziqib kutilgan xabar edi.

Shunda, esingdami, ukajonim, kitobingni qanday nomlashni muhokama qilgandik. Sen o'ylab ko'rib, adam, buyuk rassom R. Choriyev va o'zing bilan bog'liq voqealar tasvirlangan "So'nggi romantik" nomli asaringning qo'yishni taklif qilgan eding. Bu gap opamga ham, menga

---

*Nimalar haqida o'ylarding, ukajonim, qo'shiqlar qay kunlaringni yodingga solardi-a?*

---

ham ma'qul kelgandi. Keyin bir nechta suratlaringni kitob uchun tanlab olgan edik. Kitobning birinchi korrekturasi o'qilayotganini nashriyot tahririyatidan qo'ng'iroq qilib aytishganda, sen tez kunlarda kitobingni qo'lingga olishni ko'z oldingga keltirganding. Tug'ilgan kuning arafasida kitobing chop etilishi sen uchun eng katta sovg'a bo'lardi. Biz tug'ilgan kuningga kimlarni taklif etishimiz, qanday tashkil qilishimiz haqida birga o'tirib fikrlashgan edik.

Hech qanday to'siq yo'qdek edi... Lekin bir kun kelib kundalik muolajalar ham yordam berishi qiyinligini, sog'liging yomonlashayotganini sezarding. Shuning uchun nimalarnidir tezroq bajarishga, ulgurishga harakat qilarding-a, ukajonim.

Ertaga nima bo'lishi bandasiga ma'lum emas ekan. 19-iyul kuni doktorni uyga chaqirganimizda, seni tekshirib ko'rgach, "isitmasini tushirsak bo'ldi, yosh ekan, tuzalib ketadi, har kuni kelib o'zim xabar olaman", dedi.

Biz ham o'g'lim Javlonbek bilan kechqurun sen uyquga ketgach, o'z uyimizga ketishga otlangandik. Ketmasimdan oldin sekin boshingni ko'tarib, senga sovuq choy ichirdim, chiroyli sochlaringni, qo'llaringni silab qo'ydim, "ertaga ertalab vaqtliroq kelamiz", dedim. Sen "yaxshi" degandek, bosh irg'ading va ko'zingni yumding. Ey ukajonim-a, jonim-a, bu so'nggi xayrlashuv ekanligini qaydan bilayin?!

Jahongirjon, Olloh menga qancha umr ajratgan, bilmayman - o'ziga ma'lum. Ammo bir narsani aniq bilaman, sening qo'lyozmalarining, sen uchun muhim bo'lgan buyumlar, suratlarining adamning arxivlari qatorida saqlanadi va bir kuni kelib adamning uy-muzeylaridan joy oladi.



**Alisher NAZAROV**

1991-yili tug'ilgan. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini tamomlagan.

# G'aroyib damlar

Hikoya



Adashboy umr bo'yi yiqqan kitoblarini og'li bilan saraladi.

– Ernest Heminguey “Alvido, qurol”... yo'q, “Dekameron” – Jovanni Bokachcho... hmm... qo'lingdagini ko'rsat-chi, “O'tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon”, yana “Sarob”, Qodiriy qoladi, “Sarob”ni ber.

Javon yengillab qolgan, ota bir nechta kitoblar orasiga ularni ham qo'shdi. Keyin o'g'liga yuzlanib so'radi.

– Iye, o'g'lim, shuncha kitobni nima qilasan?  
– O'tgan safar bularni bermaymiz degandingiz, qola qolsin!

– Bo'пти, orasidan o'zingga yoqqanlarini tanlab ol-chi.

O'g'liga ularning deyarli hammasi yoqardi, shu bois kitoblarning bir-ikkitasini ajratib, qolganini o'ziga olib qoldi. Buni ko'rgan ota:

– Sen ularning hammasini olib qolyapsan-ku, o'g'lim! – dedi.

– Hammasinimas, mana bular sizga, – deya javob berdi bola ajratib qo'ygan ikkita surati kamrog'ini ko'rsatib, lekin ularni ham ko'zi qiymayotgandi.

Ota o'tirib, o'g'li oldidagi kitoblarni xuddi bo'lish-gandek, bitta o'g'liga, bitta o'ziga ajrata boshladi. Bola buni sezib tumtayib oldi.

– Ana, bo'ldi! Eng yaxshi – surati ko'p, qiziqarlilarini senga qoldiryapman.

Og'il tumshayib, otasiga qaradi va oldidagi kitoblarning barini uning oldiga surib:

– Hammasini olib ketavering, – dedi-da, arazlab chiqib ketdi.

Ota o'ziga ajratgan kitoblarni, yana bir qancha eski gazetalarni olib, tezlik bilan sumkaga tiqdi. U ostonadan chiqarkan, o'g'lini urishayotgan ayolining:

– Nima qilasan shuncha kitobni? Bulardan pul yasarmiding? – deganini eshitdi.

Ota ichkariga gapirgan bo'ldi:

– Bolani koyima.

Bola yig'lab tashqariga chiqdi:

– Dada, kitoblarimni bering, bering!

Ayol ham ostonada turib:

– Urishsam, sizning yoningizni olib urishyapman.

Ota o'g'liga oxirgi gapini aytdi:

– Senikiga tekkanim yo'q, ana, uyda turibdi.

Onasi yana erining yonini oldi:

– O'zingniki qolibdi-ku, huda-behuda nima-ga g'ishova qilasan?!

Ota eshikdan tashqariga yo'naldi. Bola badtar avjiga mindi...

Ro'zg'ori tang ahvolda qolgan, hatto ishxonasidan yarim yildan beri maoshini olmagan ota shu tariqa ostonadan chiqdi. Shu choqqacha kimlarningdir muruvvati, kimlarningdir yordami – olgan qarzlari evaziga ro'zg'orini tebratib kelardi. U har oying boshi yoki oxirida butun oilasini entiktirgancha, shu kunlarda oylik berish ehtimoli borligini aytar, bu so'zidan o'zining ham ko'ngli tog'dek ko'tarilib, g'am-tashvishi arib ketardi. Lekin ko'pincha bu xush-xabar yolg'on bo'lib chiqar, shu ko'yi mana, keyingi uch oy ham oldingilaridek sas-sadosiz o'tmoqda edi.

Adashboy pistachi kampir oldiga keldi. U o'zining kichkina ko'chma rastasi bilan odam gavjum joylarda tirikchiligini o'tkazar, ayni damda uning ahvoli Adashboynikidan ancha durust edi. Qariya sumkasi ichidan bir nechta kitoblarni olayotgan Adashboyga mayda chaqalardan uzatdi.

– Iye, sal ko'paytirishning iloji yo'qmi, opa?  
 – Kitoblar ko'payib ketdi. Nima qilaman ularni?  
 Pechkaga ishlatay desam, bu yog'i bahor. Kecha Siddiq malim ham bir qanchasini ko'tarib chiqibdi, – u yonidagi bir uyum kitobga ishora qildi. – Savdo qilgan bor pulimni beryapman.

So'ng "mana kamiga" degandek, oldida uyilib yotgan, tuz qo'shib qovurilgan pistadan voronkaga solib uzatdi. Adashboy pista o'ralgan "voronka"ga qarab qoldi. Kampir uni Navoiyning qalingina "Topmadim" g'azallar to'plamidan yulib olganini esa o'ramni olgach bildi.

– Buni bollaringizga berarsiz!

Adashboy qog'ozga o'ralgan pistani olib, achi-narli holda bosh silkiib qo'ydi. Yaxshiyam xotini pishiqchilik payti meva-chevalarni quritib qoqi, to'kin kunlari ortgan nonlarni to'g'rab, qat-tiqnon qilib qo'ygan edi. Shu narsa Adashboy oilasiga qishda bakor keldi. Baxtlariga bu yil bahor ham erta oraladi. Odamlar eski davrlardagidek qishdan chiqqaniga xursand. Ilikuzildi payt darmonga kirish maqsadida sumalaklar tayyorlanmoqda boshlandi. Xullas, kunlar isib, hayot jonlanib, g'imir-g'imir boshlangan.

Qatnov yo'lidan o'tarkan, u signalini vang'illatib kelayotgan mashinani ko'rib, sapchib tushdi-yu, shuvullab o'tib ketganini sezdi. U vang'illagancha o'tib ketdi. Yo'lning narigi tomoniga yetmay, endi bu yonidan signal ovozi keldi. Qarasa, mashina ichida G'ofur kirakash, ha deb unga signal chalayotibdi. Adashboy beixtiyor yugurgilagancha, yo'l chetiga o'tdi. Kirakash oynasini tushirib, unga qaradi-da:

– O', domla! Ko'zga qarang, ko'zga! Meniyam bo-la-chaqam, bor! – deb labini burdi. Adashboy aybdor-larcha, kirakash izidan qarab qoldi...

U bu gal ham el qatori hafsalasiz holda ishga keldi. Ishxonadagilarga bahor ta'siri deb unchalik e'tibor bermadi. Eshikdan kirayotib hamkasbi Siddiq muallimga yo'liqdi.

– Adashboy, yangilikni eshitdingizmi? – uning ko'zlarida shodlik va bilinar-bilinmas yig'i alomati ko'rinardi.

Adashboy topqirligini ishga soldi.

– Yig'ilishib sumalak qilmoqchisiz. Kecha xotini qarindoshlari bilan boshlab qo'ygan, "tekinga qo'shilolmayman, yuzim chidamaydi" deb mendan pul so'radi. Bu xotin zotining turib-turib yozda qor, qishda ko'kat so'rab qoladigan fe'li bor. Urishib berdim. Hoziram uydan janjallashib kelyapman.

Siddiq unga biroz achingan bo'lib, birdan o'zi istamagan ko'yi baland ovozda:

– Adashboy, oylik berishyapti-i-i! – dedi.

Uning "berishyapti-i-i" degan so'zi, ajabtovur eshitildi. Nahotki! Adashboy bu yangilikdan esankirab qoldi.

– Oylik be-berishyapti?! – so'radi hayron.

Qaradiki, Siddiq muallim qo'lida uch oylik maoshini quchoqlab turibdi. Adashboy kassaga qadar uchib bordi. U yerda g'ala-g'ovur, tirbandlik, lekin bu uning kayfiyatiga zarra bo'lsa-da ta'sir qilmadi, chunki hisobchi hadeb, "Pul hammaga yetadi, navbat-navbat kelinglar" deya jumbishga kelgan olomonga qarab qichqirib qo'yardi. U bu holatni ilgari bir necha bor tushida ko'rgandi. Ayni paytda juda borsa ikki yarim-uch soatdan so'ng qo'lga intiqib kutgan birmas, ikkimas, naq uch oylik maoshini olishi, uyga uch qop semirib borishi, jajji, ammo qiyinchiliklarga chidamli farzandlarining xursand qiyiqirilarini eshitishi, u borgach jag'i tolmas xotini yana bir nima deydigan bo'lsa, chakagiga dasta pul bilan tortib yuborishi haqida o'ylardi. Mana, nihoyat, u bugun chinakam ro'zg'orboshi qiyofasida xonadoniga kirib boradi. Naqadar serzavq onlar!

Odamlar omonlik yetgan kunga shukrona aytib, tartibni saqlashga uqtirilayotgan bo'lsa-da, kassa darchasi oldida tiqilinch qilishar, yulib-yulqinib, maosh olishar, navbati yaqinlar bo'shagan darcha teshigiga boshqasidan oldinroq qo'lini tiqib olsa, o'zini yana-da baxtiyor his qilardi. Darchadan bitta qo'l dasta pulni mahkam siqib chiqqan zahoti, o'rniga yana to'rtta qo'l sanchilardi. Ayni dam kimdir mo'ljalni sal noto'g'ri oldi chog'i, darcha tagida baqiriq eshitildi.

Adashboy turfa yaxshi xayollarga berilib, o'z navbatini kuta-kuta, uch yarim soatdan so'ng, o'zidan oldin yana sakkizta odam borligini ko'rdi.

*Xabaringiz bor, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshida yosh ijodkorlarning "Umid" nomli nasr to'g'ragi ish boshladi. Hozirda bu to'garakda bir necha yigit-qizlar qatnashib, yozganlarini tengdoshlari bilan muhokama qilib, kam-u kemtiklarini to'ldirib, mashqlarini qayta-qayta ishlab kelishyapti. Bir qaraganda, mashqlardagi kemtikliklar osonlik bilan but bo'lmaydigandek ko'rinsa-da, kishini quvontiradigan adabiy asar desa degulik durustgina mashqlar ham paydo bo'layotgani bor gap. Shu bois to'garak qatnashchilariga ham kenglik qilsak, jurnalimiz sahifasida ana shu yoshlarga ham o'rin bersak, degan istak tug'ildi.*

*Aziz jurnalxon, tanishning Alisher Nazarov deganlari so'zining, gapining borar "mazasini" biladigan yoshlarimizdan. Uning hozirgacha yozgan bir-ikki mashqlarida tarix va bolalik xotiralari bo'y ko'rsatayotir. Balki ertaga boshqa o'zanlarda quloch yozib suzar, buni vaqt atalmish hakam ko'rsatadi. O'qiyotganingiz "G'aroyib damlar"da ham uzoq emas, kechagi kunimizga, XX asrning so'ngi o'n yilligidagi biroz taxir kunlar qalamga olingan. Ayni o'sha pallalarni yoddan chiqazsak, xotiramizdan ochirsak, bu kunning qadriga yetmaymiz, shukrini aytmaymiz.*

*Hikoya sizga ma'qul kelgan bo'lsa, Alisherga birgalashib baland parvoz tilaylik.*

**Tahririyatdan**

U olijanoblik qilib, o'zidan keyin kelgan yana bir nechta xodimani ham oldinga o'tkazib yubordi. Tortishuv va talashuvlar tinib, sal-pal havo yurib qolgan kassa darchasidan endi hisobchi boshini ko'rsa bo'lardi. U yuzlari tiralgan, qizarib shishgan burniga paxta tiqqan ko'yi pin-qillagancha familiyalarni o'qib, pul tarqatardi. Aftidan boya adashgan qo'l uning burniga kirib ketgan.

...Adashboyning navbati ham yetib keldi. Navbatda turgan kishilar ham unchalik tiqilinch qilmay qo'ygandi. Baribir, oyligini olayotgan mahal ortidan bir-ikki turtishlar bo'ldi, albatta, va nihoyat, o'zi hamda uning oilasi intiq kutgan maosh egasining qo'lga tegdi.

Shu kuni hamma pul olish bilan band bo'ldi. U kassadan chiqib, oyoqlari yerga tegmay ketib borarkan, birdan ko'cha chetida lahzalik lotereya sotib o'tirgan kampirga ko'zi tushdi. Adashboy televizorda xuddi mana shunday lotereya o'ynab avtomobil yutgan odamni ko'rgani va unga rosayam havasi kelganini eslab qoldi. Umri bino bo'lib, biror marta mashina haydamagan Adashboyning endi uyiga ana shunaqa avtomobil bilan kirib borish haqida o'ylamayapti, deb birov ayta olmasdi.

Birinchi lotereyadan hech vaqo chiqmagani Adashboyning uyiga avtomobil yoki sotuvchi kampir aytganidek, shahardan to'rt xonali kvartira egasi bo'lib qaytish fikridan qaytara olmadi. Agar uning bu niyati amalga oshsa, kim biladi, Adashboyning qanday alqov, e'tirof-u shon-shuhrat tagida qolishini! Tamom, u ketadi, shaharga ketadi. Barchasidan to'ydi axir. O'z qadriga kuydi axir. Eng muhimi, xotini bilan bir paytlar – yoshliklarida qilgan orzulari ro'yobga chiqadi...

Eh, bu gal ham lotereya yutuqsiz! Yo'q, bo'sh kelma, Adashboy! Sovima! Axir osonmi shunday yutuqning egasi bo'lish!? Qurbonlik talab qilinadi, albatta. Xo'p... bunisidayam yutuq yo'q, lekin mana yana bir urinish...

Sotuvchi kampir Adashboyning har xil lotereyalariga qiziqtirib, unga tinmay yangi-yangi lotereya biletlarini uzatib, o'sha zahoti pulini sanab olar, o'yinchi cho'ntagidan chiqarib, sotuv stoli ustiga qo'yib olgan pullar taxlami tobora kamayib borardi. U taslim bo'lishni istamasdi. Bosh-ketiga qaramay, biletlarni bir-bir o'chirib tashlayverardi... Hash-pash deguncha kampir rastasi tepasida to'plan-gan o'tkinchilar davrasi kengayib, Adashboy bir gala tomoshatalab olomon ichida qoldi. Ammo u bunga ko'p ham e'tibor bermadi. Ha, mana o'sha uy! Hozir... hozir... ikkita bor. Yana bitta kerak...

Xo'sh? Eee... voyvayakning bolasiyam yo'q... ha, balki, oxirgi urinish qolgandir. Qirqiga chidab, qirq biriga chidamasdan ketib qolsa, g'irt nodonlik qilgan bo'lmaydimi? Avtomobil yo shahardagi uyga ega bo'lishiga bir necha marta "bir baxya" qoldi. Nega endi niyatiga yetishiga sal qolganda odimlashni bas qilishi kerak? Bir qadam qolganda-ya, bir qadam-a! Unga agar o'yinni bas qilgudek bo'lsa, keyingi biletida yutuq qolib ketadigandek tuyilaverardi. Adashboy xayolidagi avtomobil hamda kvartirasidan ko'ngil uzib ketolmadi. Xo'p, mo'mayroq pul yutsa ham nima? Katta-katta summadagi yutuqlarni ham yutay-yutay deyapti. Nima qilish kerak? Davom etish kerak! U o'zining yutug'ini boshqa birovga tashlab ketolmaydi-ku! Yo'q, hozir stoldan uzoqlashguday bo'lsa... kimdir kelib, o'sha yutuqli biletni oladi-da... o'ylashning o'zi dahshatli. Bugun juda ko'pchilik oylik olgan. U chekinmadi. Lekin... bir nechta biletning o'z puli miqdorida chiqqan yutug'ini hisobga

olmaganda, shashvaram yutmadi. Sotuvchi kampir navbatdagi lotereya biletini tutganda, u rasta ustidagi pullar taxlamiga qo'l cho'zib, ularni topolmay qoldi.

– Pullarim qani? – Adashboy uni o'rab olgan olomonga yuzlandi, – Mening oyligim qani?..

U o'ziga hayron baqrayib turgan turfa qiyofalarni ko'rdi. Bu o'zi yashayotgan joyning, u bezgan, lekin qochib ham ketolmaydigan nihoyatda tanish, oddiy odamlar edi. Quruq cho'ntagiga qo'l solgan Adashboyning badanidan muzdek bir narsa yugurib o'tdi. Nahotki? Kampir buni sezdi. Qo'lida tutib turgan navbatdagi lotereyani qaytib joyiga qo'ydi va bo'shashib qoldi.

...Kecha xotining kichkina tog'asi chet eldan qaytibdi. "Uni yo'qlagani boramiz. Ozroq go'sht olib keling", degan. O'tgan safar olib chiqqan bir dasta gazetasiga Ne'mat qassob bir burda go'sht berib, uni rosa xafa qilgandi. Qaytib gazetaga go'sht almashmayman, deb so'z bergandi o'ziga-o'zi. Lekin... uyda "Ma'rifat"ning ayrim sonlari qolgan. O'g'li o'ziga qoldirilgan kitoblarni ko'rib bo'ldimikin? Bola-ku, bir narsadan tez zerikadi. Pistachi xolaning atagani ham harna yordam. Keyin javonida qolgan sanoqli kitoblarini esladi. "Alvido, qurol", "Dekameron", o'zimizning Qodiriy qolgandi... mayli, Qodiriy olib qolib...

...Muyulishdagi bozor rastalari yonidan olishi kerak bo'lgan narsalarga o'ychan qarab o'tayotgan Adashboyning sabzavotfurnush qaynog'asi ko'rib, qo'yarda-qo'ymay ozroq kartoshka va piyozni yelimqopga solib berdi. Keyin Adashboy bilan maktabdosh bo'lgan, doim mardikorlik qilib, topmaganda yuz, topganda yarimtani dardiga darmon qiladigan oshnasi uchradi.

...Adashboy uyiga tunda gandraklaganacha so'ppayib kirib bordi. Bugun oylik berishgani esa xotining qulog'iga yetib borgan di...